

VOLUME-4
ISSUE-4
APREL-2026



**«YANGI O‘ZBEKISTONDA
TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI**



**Research Science and
Innovation House**

<https://universalpublishings.com>
editor@universalpublishings.com

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER



**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.**

30.04.2026-yil.

Ushbu to'plamda « **YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR**» ilmiy konferensiyasi 2026-yil 4-soni 4-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.


Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE” MCHJ**

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O'zbekiston.

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqarayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug'bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O'zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abduraimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 4, Issue 4, Aprel 2026

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



SUKUT – AYOLLAR ICHKI VA TASHQI NUTQINING HARAKAT BIRLIGI SIFATIDA

Mirzayeva Surayyo Mahmasharif qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: surayyomirzayeva92@gmail.com

Egamberdiyeva Kumush Asadulla qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ayollar nutqiga xos muhim kommunikativ va lingvopsixologik hodisalardan biri — sukut (jimlik) ichki hamda tashqi nutqni o'zaro bog'lovchi faol mexanizm sifatida ilmiy asosda tadqiq etiladi. Sukut oddiy nutqiy tanaffus emas, balki axborotni qayta ishlash, emotsional holatni tartibga solish va genderga xos kommunikativ strategiyani ifodalovchi vosita sifatida izohlanadi. Tadqiqot doirasida ayollar diskursida ichki nutqning tashqi ifodaga ko'chish jarayonida yuzaga keladigan "sukut filtrlari" hamda ularning pragmatik funksiyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Natijalar esa ayollar nutqining lingvistik xususiyatlarini yanada chuqurroq anglashga va gender tilshunosligi doirasidagi mavjud ilmiy bo'shliqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ayollar nutqi, sukut fenomeni, ichki nutq, tashqi nutq, harakat birligi, gender lingvistikasi, kognitiv pauza, kommunikativ strategiya.

МОЛЧАНИЕ — КАК ЕДИНИЦА ДЕЙСТВИЯ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ РЕЧИ ЖЕНЩИН

Абстрактный

У данной статье одно из важных коммуникативных и лингвopsихологических явлений женской речи — молчание рассматривается как активный механизм, связывающий внутреннюю и внешнюю речь, на научной основе. Автор объясняет молчание не как простой речевой перерыв, а как средство обработки информации,



регулирования эмоционального состояния и выражения гендерно-специфической коммуникативной стратегии. В рамках исследования систематически анализируются «фильтры молчания», возникающие в процессе превращения внутренней речи женщин во внешнее выражение, а также их прагматические функции. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию лингвистических особенностей женской речи и устранению существующих научных пробелов в области гендерной лингвистики.

Ключевые слова: Женская речь, феномен молчания, внутренняя речь, внешняя речь, единица действия, гендерная лингвистика, когнитивная пауза, коммуникативная стратегия.

SILENCE AS A UNIT OF ACTION IN WOMEN'S INNER AND OUTER SPEECH

Abstract

This article looks at an important feature of women's speech — silence — as a way that connects their inner thoughts with what they say out loud. The author explains that silence is not just a pause, but a tool for processing information, managing emotions, and showing a communication style typical for women. The study also examines “silence filters,” which appear when women turn their inner speech into spoken words, and their practical uses. The results help us better understand women's language and fill gaps in gender linguistics.

Keywords: Women's speech, silence phenomenon, inner speech, outer speech, unit of action, gender linguistics, cognitive pause, communicative strategy.

Kirish. Mazkur maqolada ayollar nutqiga xos sukut fenomeni zamonaviy lingvistik tadqiqotlar kontekstida ilmiy asosda tahlil qilinadi. Nutq endi faqat tovush va so'zlar tizimi sifatida emas, balki semantik pauzalar va anglangan sukut majmuasi sifatida talqin etiladi. Ayollar nutq madaniyatida sukut passiv holat sifatida emas, balki ichki va tashqi nutqning o'zaro muvozanatini ta'minlovchi, murakkab kognitiv jarayonlarning faol harakat birligi sifatida ko'riladi. Nutqiy portretida sukut fikrning tashqi ifodaga chiqishidan oldingi “filtrlash” bosqichi bo'lib, u ijtimoiy moslashuv, hissiy intellekt va ichki diskursning dinamik ko'rinishlarini aks ettiradi. Tadqiqotda sukutning an'anaviy “jimlik” tushunchasidan farqli ravishda ayollar muloqot strategiyasidagi faol komponent sifatidagi o'rni va ichki nutqni tashqi ifodaga tayyorlashdagi transformatsion funksiyasi tizimli tarzda o'rganiladi. Shu yondashuvga ko'ra, sukut — nutqning oddiy tanaffusi emas, balki uning eng konsentratsiyalashgan va mazmunan boy shakli sifatida talqin qilinadi.



Ko‘pincha ayollar sukuti zaiflik yoki bo‘yinsunish belgisi sifatida talqin qilinsa-da, ushbu tadqiqotning yangiligi shundaki, sukut ayollar muloqotida ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan kommunikativ strategiya sifatida ko‘riladi. Masalan, u *o‘zini himoya qilish, rad etish* yoki *chuqur mulohaza yuritish* kabi funksiyalarni bajaradi va shuning orqali sukutning passiv emas, aksincha faol va maqsadga yo‘naltirilgan xarakteri ilmiy jihatdan namoyon qilinadi. Insonlar uchun yangilik shundaki, sukut paytida miya “to‘xtab qolmaydi”. Aksincha, bu vaqtda ichki nutq eng yuqori faollik nuqtasiga chiqadi.

Ayollar nutqida sukut ko‘pincha:

1. Murakkab vaziyatlarda hissiyotlarni boshqarish usuli;

“Kumush boshini egdi. Uzoq vaqt jim qoldi. Go‘yo tiliga so‘z kelar, ammo aytishga jur‘at topolmas edi. Ko‘zlarida nam qalqib chiqdi, lekin u yoshini ko‘rsatmaslik uchun yuzini chetga burdi.

— *Siz qanday lozim topsangiz, — dedi nihoyat past ovozda [1].”*

2. Shovqinli va foydasiz muloqotdan tiyilish orqali o‘z ichki dunyosini himoya qilish;

“Xonzodabegim ortiqcha gap-so‘zlarga nuqta qo‘yish uchun shunchaki jim qoldi. Bu sukunat har qanday achchiq tildan ko‘ra keskirroq edi. U o‘zining ichki olamini begona ko‘zlardan va bema‘ni savollardan mana shu devor bilan himoya qilardi[6].”

3. So‘z bilan aytib bo‘lmaydigan ma‘nolarni "jimlik" orqali kuchliroq yetkazish;

– *Vakillarimiz Maskovga ketishdi, — dedi Ahadbey, — Qrim tatarlari bilan birgalashib, haqiqatga yetishar, insholloh.*

– *Chechenlar ko‘p ketishdi. Seni ham ketdi, deb yuruvdim? — dedi Ismoilbey.*

– *Onam shu yerda, buvam shu yerda. Men qayoqqa boraman? — Zelixon “men qamoqda edim”, demadi. Chol gap kavlamasin, deb boshini egib, sukut saqladi [7]* kabi ma‘nolarni anglatadi.

Tadqiqotning asosiy materillari. Sukutning ichki nutq bilan bog‘liqligi, ya‘ni tashqi nutq to‘xtaganida ichki nutqning faollashishi va fikrni shakllantirish funksiyasi aynan Vigotskiyning “ichki nutq” — bu o‘zi uchun nutq degan nazariyasiga asoslangan [3].

Ayollar nutq faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ichki nutq ko‘pincha tashqi nutqqa nisbatan yanada boy, murakkab va emotsional jihatdan rang-barang xarakterga ega. Bu jarayonda sukut oddiy pauza yoki nutqning uzilishi sifatida emas, balki ichki kognitiv va emotsional jarayonlarning eng faol bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayol sukut saqlayotgan paytda uning ichki nutqi tashqi nutqda ifodalanmagan mazmunlarni tizimlashtiradi, semantik jihatdan qayta ishlaydi hamda hissiy yukni boshqarish



funksiyasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, sukut tashqi nutqning vaqtinchalik to'xtashi bilan birga, ichki nutqning faollashuvi va chuqurlashuvini ta'minlovchi muhim psixolingvistik mexanizm sifatida talqin etiladi.

Jef Verseyren insonning sukut saqlashiga sabab bo'luvchi sakkiz jihatni aniqlaydi va inson jim bo'lganda bilingki, bu behudaga ro'y bermaydi, deb yozadi. Kishi jim qoladi, qachonki:

1. Tabiatan (xarakter jihatidan) bosiq bo'lsa;
2. Aytadigan gapi bo'lmaganda;
3. Fikrsizlik oqibatida;
4. Kuchli his-hayajonga berilganda yoki qattiq qayg'uga botgan holatda;
5. Fikrlari chalkash, xayollari tarqoq odam indamay turadi;
6. Suhbatdoshining gapini bo'lmaslik uchun sukut saqlaydi;
7. Sir saqlaganda;
8. Suhbatga befarq munosabatda bo'lganda [9].

Ayollar nutqidagi sukut ko'pincha strategik xarakterga ega. U andisha, qarshilik yoki hamdardlik kabi murakkab ijtimoiy rollarni so'zsiz bajaradi. Bu esa muloqotni boshqarishning eng nozik va samarali usuli ekanligini ko'rsatadi.

Misol. Tasavvur qiling, mehmonchilikda ayol kishiga yoqmagan yoki u bajarishni istamaydigan taklif tushdi (masalan, yana ovqat suzish yoki biror tadbirga borish). Ayol keskin "yo'q" demaydi, balki bir necha soniya yerga qarab sukut saqlaydi.

Tashqi nutq: Jimlik (nol darajali belgi).

Ichki nutq: "Buni xohlamayman, lekin rad etsam mezbon xafa bo'lishi mumkin. Qanday yumshoqroq tushuntirsam ekan?"

Harakat: Bu sukut — rad javobining "yumshatilgan" shakli. Tashqi nutq to'xtagan, lekin ichki nutq eng maqbul diplomatiyani qidirmoqda.

Ayollar tabiatan emotsional bo'lishadi. Sukut ularga kuchli his-tuyg'ular (g'azab, xafachilik yoki hayajon) paytida "to'xtash" (pauza) beradi. Bu pauza ichki nutqda hissiyotni mantiqqa aylantirishga yordam beradi. Natijada, ayol kishi o'ylamasdan gapirib qo'yishdan saqlanadi, bu esa uning obro'yini va oiladagi xotirjamlikni himoya qiladi. O'zbek ayoli hayotida sukut — bu andisha va hurmat ramzi. Bu passivlik emas, balki vaziyatni yumshatish san'ati.



Masalan, qaynona yoki turmush o'rtog'i bilan tushunmovchilik bo'lganda, ayolning sukut saqlashi — nizoni to'xtatishning eng qisqa yo'li. Bu "yutqazish" emas, balki aqlli strategiya orqali oilaviy bitimni saqlab qolishdir.

Ona sukut saqlash orqali farzandiga sabr va tinglash madaniyatini o'rgatadi. Baqir-chaqirsiz, vazminlik bilan munosabat bildirish bolaning ruhiyatiga so'zdan ko'ra kuchliroq ta'sir qiladi. Ayolning "mazmunli sukuti" bolada ongsiz ravishda o'zini tutish va o'zgalar fikrini hurmat qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Tadqiqotchi O.Y.Nosova suhbat jarayonida jimlik saqlashning 6ta sababini ko'rsatib o'tadi. Bular –

1) jimlik – norozilik belgisi;

"...Kumush hamon o'sha holatda — ko'zi bir nuqtaga tikilgan, qilt etmas edi. Uning bu jimjiligi atrofida gilarga har qanday faryoddan ham mudhishroq eshitilar, bu sukut ichida Otabekka nisbatan ulkan bir e'tiroz, nafrat va ayni paytda bitmas-tuganmas o'kinch bor edi. U hatto yig'lamasdi. Chunki yig'i — taslim bo'lish, yupanishni so'rashdir. Kumushning tosh qotgan chehrasi esa — taqdirdan ham, sevgisidan ham yuz o'giran, ammo mag'rur qolgan ayolning so'zsiz isyoni ed [1]."

2) jimlik – suhbatdosh(lar)dan axborotni yashirish;

"...Zebi so'roqlarga javob bermasdi. Uning ko'zlari bir nuqtaga qadalgan, go'yo bu dunyodan butunlay uzilib ketgandek edi. Tergovchi stolni mushtlar, baqirar, undan Haqiqatni ayt! deb talab qilar edi. Zebi esa faqat jim edi. Bu jimlikda ham qo'rquv, ham hayrat, ham ulkan bir sirdoshlik bor edi. U o'zining aybsizligini aytsa ham baribir ishonmasliklarini ich-ichidan his qilardi. Shuning uchun u o'z dardini, o'sha mash'um kechadagi bor haqiqatni jimlik qa'riga yashirdi. Uning sukunati tergovchining har qanday savolidan ko'ra vahimali edi[2]."

3) jimlik – suhbatdosh fikrini yoki suhbat mavzusini tasdiqlash;

"...Otabek uning ko'zlariga tikilib, o'zining yurak dardi bilan o'rtoqlashar,

Kumushdan bir og'iz so'z kutardi. Kumush esa hamon jim... Uning bu jimligi rad etish emas, balki so'z bilan aytib bo'lmaydigan darajadagi shirin bir tasdiq edi. Uning qizarib ketgan yuzlari, yerga qadalgan nigohi Otabekning har bir so'zini yurakdan qabul qilayotganini, uning fikriga butun borlig'i bilan qo'shilayotganini ko'rsatardi. Bu sukunat "Men siznikiman, siz nima desangiz shu" degan iqroddan ham kuchliroq yangrar edi [1]."

4) jimlik – suhbatdosh fikrini yoki suhbat mavzusini himoya qilish;

"So'fi qiziga qarab o'shqirganida, Qurbonbibi bir chekkada mungi chiqib, indamay o'tirardi. Uning tili gapirmasdi, lekin bu sukunat ortida ulkan bir himoya devori bor edi. U o'z jimligi



bilan go'yo: 'Menga baqiring, meni ayblang, lekin qizimga tegmang', — degandek bo'lardi. U erining gapiga e'tiroz bildirmaslik orqali vaziyatni yumshatar, suhbat mavzusini o'zining sabrli sukunati bilan jilovlab turardi. Agar u gapirsa, janjal alanganar, Zebi ko'proq zarar ko'rardi. Onaning jimligi — farzandining tinchligini himoya qiluvchi eng mustahkam qo'rg'on edi[2]."

5) jimlik – kamtarlik yoki tobelik belgisi;

Zebi yangi xonadonda o'zini xuddi qafasga tushgan qushdek his qilardi, ammo bu tuyg'usini hech kimga bildirmasdi. Poshshaxon unga buyruq berganida yoki kinoyali gaplar otganida, Zebi faqat yer chizar, Xo'p bo'ladi, opajon, degan so'zni ham aytishga iymangandek jim turardi. Uning bu itootkorona sukuti — o'z irodasini butunlay Mingboshi va uning katta xotiniga topshirganidan dalolat edi. Zebi o'zini bu uyda bir mehmondek yoki taqdir hukmiga bo'ysunuvchi bandadek tutardi, har qanday nohaqlikka ham kamtarlik bilan jimlikni javob qilib qaytarardi[2]."

6) jimlik –nutqiy muloqotni ma'qullash, qo'llab quvvatlash[5].

"Asadbek dasturxon atrofida o'tirib, qizining kelajagi yoki xonadon tartiblari haqida keskin gapirardi, Manzura esa indamay choy suzardi. U erining gapini bo'lishni xayoliga ham keltirmas, hatto unga tik qarashga botinolmasdi. Manzuraning bu yuvoshgina jimligi Siz nima desangiz shu, sizning so'zingiz biz uchun qonun degan ma'noni anglatardi. U o'z sukuti bilan erining barcha fikrlarini ma'qullardi, xonadondagi ushbu qat'iy tartibga o'zining tobeligini so'zsiz namoyish etardi. Bu yerda so'zga o'rin yo'q edi — jimlik hamma narsani hal qilardi[7]."

O.Nosova jimlikning "suhbatdosh fikrini yoki suhbat mavzusini himoya qilish" yoki "suhbatdosh fikrini yoki suhbat mavzusini himoya qilish" kabi belgilarini ko'rsatib o'tadi va bu boshqa tadqiqotlarda deyarli uchramaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollar nutqida kuzatiladigan sukut hodisasi tovushning oddiy yo'qligi sifatida emas, balki nutqiy energiyaning ichki nutq sferasiga yo'naltirilishi va qayta taqsimlanishi jarayoni sifatida talqin etiladi. An'anaviy yondashuvlarda sukut ko'proq passiv holat sifatida baholangan bo'lsa-da, mazkur tahlillar uning aslida faol kognitiv mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Xususan, ayollar uchun sukut "kognitiv pauza" funksiyasini bajarib, bu jarayonda axborot qayta ishlanadi, nutqiy strategiyalar shakllantiriladi hamda hissiy va semantik tarkiblar ichki nutq doirasida tartibga solinadi. Shu bois sukutni passiv emas, balki yuqori darajadagi psixolingvistik faollikni ifodalovchi holat sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, nutq jarayonida yuzaga keladigan sukut hodisasi kommunikantlardan birining tashqi nutqqa ichki nutq orqali javob qaytarishi sifatida talqin



etilishi mumkin. Tashqi jihatdan shaxs sukut saqlab turgandek ko‘rinsa-da, uning ongida nutqiy faoliyat uzluksiz davom etadi. Ayrim holatlarda esa muloqot ishtirokchilarining har ikkisi ham sukutga murojaat qiladi. Bunday sukut avval bildirilgan fikr, mulohaza yoki muayyan axborotga nisbatan shakllangan ichki munosabatning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois sukut kommunikativ jarayonda mazmun yuklamaydigan bo‘shliq emas, balki semantik va pragmatik ahamiyatga ega bo‘lgan faol nutqiy birlik sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar” (Roman)
2. Abdulhamid Cho‘lpon, “Kecha va kunduz” (roman)
3. L. S. Vigotskiy (“Tafakkur va nutq”)
4. Lakoff, Robin Tolmach. Language and Woman's Place (1975).
5. Носова О.Е. Молчание: стратегия и тактика // Ж.Вестн. –Уфа, 2009. – № 1. –С. 105-109.
6. Pirmqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2018-yil
7. T. Malik. Shaytanat. 1-kitob
8. Tannen, Deborah. “You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation”.
9. Версейрен Ж. Что люди говорят, что они делают со словами. – Норвуд, Ablex, 1985.



INGLIZ TILINI O'RGANISHDA LINGVISTIK INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH: EKSPERIMENTAL TADQIQOT

Allanazarova Sadoqat Azimovna

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot zamonaviy til o'qitish metodologiyasida o'quvchilarning individual psixologik va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda lingvistik intellektni (verbal-linguistic intelligence) maxsus interaktiv faoliyatlar orqali maqsadli rivojlantirishning samaradorligini eksperimental yo'l bilan o'rganadi. Howard Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasiga (Multiple Intelligences Theory) asoslanib, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini chet tili sifatida (English as a Foreign Language – EFL) o'rganayotgan talabalar uchun innovatsion metodik yondashuv ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik intellekt, ko'p intellektlar nazariyasi, verbal-linguistic intelligence, eksperimental tadqiqot, EFL o'qitish, interaktiv faoliyatlar, ijodiy yozuv, virtual debat.

Kirish:

Zamonaviy til o'qitish metodologiyasida har bir o'quvchining shaxsiy psixologik xususiyatlari va aqliy qobiliyatlarini chuqur hisobga olish muhim strategik ahamiyatga ega. Chunki har bir insonning o'rganish uslubi, qiziqishlari va intellektual salohiyati bir-biridan tubdan farq qiladi. Ana shu tamoyilni ilgari surgan mashhur amerikalik psixolog va pedagog Howard Gardner 1983-yilda "Ko'p intellektlar nazariyasi"ni (Multiple Intelligences Theory) taklif qildi. Ushbu nazariya inson aql-zakovatini an'anaviy tarzda bitta "umumiy intellekt" (IQ) ko'rsatkichi bilan o'lchab bo'lmasligini isbotlab, aqlni sakkiz va undan ortiq mustaqil intellekt turlariga bo'ladi.

Ular orasida lingvistik intellekt (verbal-linguistic intelligence) til o'qitish jarayonida alohida o'rin tutadi. Bu intellekt so'zlarni nafaqat to'g'ri ishlatish, balki ularning ma'no va hissiy ranglarini chuqur anglash, murakkab matnlarni tahlil qilish, o'z fikrlarini ravon va ijodiy tarzda ifoda etish, shuningdek, boshqalarning nutqini tinglab, ularni samarali tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Lingvistik intellekt yuqori darajada rivojlangan shaxslar tilni o'zlarining asosiy vositasi sifatida ko'radi va undan nafaqat kommunikatsiya, balki fikrlash, ijodkorlik va hatto o'z-o'zini anglash uchun foydalanadilar.

Ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) o'rganayotgan talabalar uchun lingvistik intellektni maqsadli rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Bunday yondashuv nafaqat grammatika, lug'at va



nutq ko'nikmalarini oshiradi, balki talabalarning umumiy kognitiv qobiliyatlarini, tanqidiy fikrlashini va o'z-o'zini ifoda etish ishonchini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. Natijada til o'rganish jarayoni mexanik takrorlashdan chiqib, talabaning shaxsiy rivojlanishining ajralmas qismiga aylanadi.

Biroq, O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitishida hali ham an'anaviy usullar — grammatik tarjima, qoidalar yodlash va standart testlarga asoslangan mashqlar ustunlik qilmoqda. Bu usullar ko'pincha talabalarning tabiiy tilga bo'lgan qiziqishi, ijodiy salohiyati va individual o'rganish uslubini hisobga olmaydi. Natijada ko'plab talabalar tilni "majburiy fan" sifatida qabul qiladi, motivatsiyasi pasayadi va haqiqiy kommunikativ kompetensiya yetarli darajada shakllanmaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — lingvistik intellektni maqsadli va tizimli rivojlantirish orqali oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishning samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan qo'llash mumkin bo'lgan yo'llarini aniqlash, tasdiqlash va taklif etishdir. Tadqiqot natijalari nafaqat O'zbekiston oliy ta'lim tizimida, balki boshqa mamlakatlarning EFL o'qitish amaliyotida ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi metodik yondashuvlar yaratishga xizmat qiladi.

Howard Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi (Multiple Intelligences Theory) 1983-yildan boshlab til o'qitish sohasida keng qo'llanilmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar ushbu nazariyani ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) o'rganish jarayonida talabalarning individual farqlarini hisobga olgan holda o'qitish usullarini takomillashtirish uchun asos qilib olgan. Masalan, ba'zi ishlar lingvistik intellektni boshqa intellekt turlari (masalan, interpersonall yoki vizuall) bilan birgalikda o'rganib, ularning til ko'nikmalariga ta'sirini tahlil qilgan. Biroq, aksariyat tadqiqotlar lingvistik intellektni boshqa intellektlar bilan birlashtirib yoki faqat statistik bog'liqlik (korrelyatsion tahlil) darajasida cheklanib qolgan. Bunday yondashuvlar talabalarning MI profili bilan til muvaffaqiyati o'rtasidagi umumiy bog'liqlikni ko'rsatgan bo'lsa-da, lingvistik intellektni alohida maqsadli rivojlantirishga qaratilgan to'liq eksperimental dizaynlar juda kam uchraydi.

Masalan, ba'zi tadqiqotlarda (Gebremeskel, 2024; Akbari & Hosseini, 2008 kabi) lingvistik intellekt o'qish va nutq ko'nikmalarini bashorat qiluvchi asosiy omil sifatida aniqlangan, ammo bu ishlar ko'pincha kuzatuv yoki oldindan-keyin testlarga asoslangan bo'lib, faqat korrelyatsion xulosalar bilan cheklangan. Boshqa tadqiqotlarda esa MI nazariyasi umumiy o'qitish strategiyalarida qo'llanilgan (Tiansoodeenon va Sitthitikul, 2024), lekin lingvistik intellektni maxsus interaktiv faoliyatlar orqali mustaqil ravishda kuchaytirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli eksperimentlar deyarli yo'q. Natijada, nazariya amaliyotda ko'proq "umumiy MI yondashuvi" sifatida qo'llanilmoqda, bu esa talabalarning tilga bo'lgan tabiiy lingvistik salohiyatini chuqur va maqsadli rivojlantirish imkoniyatini cheklab qo'yadi.



O'zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstida esa bu mavzu deyarli o'rganilmagan holatda qolmoqda. Mavjud oz sonli ishlar asosan Gardner nazariyasining umumiy nazariy jihatlarini muhokama qilish bilan cheklanadi yoki boshqa fanlar (masalan, psixologiya yoki pedagogika) bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Amaliy eksperimental tadqiqotlar, ayniqsa oliy ta'lim darajasida ingliz tili o'qitishida lingvistik intellektni rivojlantirishga qaratilganlar umuman yo'q. Bu holat O'zbekiston oliy ta'lim tizimida an'anaviy usullarning ustunligi va talabalarining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishdagi yetishmovchilikni yanada chuqurlashtiradi.

Mazkur tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida yangi interaktiv modelni taklif etadi. Ushbu model lingvistik intellektni rivojlantirish uchun "ijodiy hikoya yaratish + virtual debat + reflektiv jurnal yuritish" kombinatsiyasidan foydalanadi. Bu yondashuv oldingi tadqiqotlardan tubdan farq qiladi, chunki u nafaqat lingvistik intellektni alohida nishonga oladi, balki O'zbekiston talabalarining madaniy-psixologik xususiyatlarini – ya'ni kollektivism (jamoaviy qadriyatlar) va individual ifoda etish o'rtasidagi muvozanatni – chuqur hisobga oladi. Natijada, talabalar tilni mexanik o'rganishdan chiqib, o'z fikrlarini ijodiy va ishonchli tarzda ifoda etish, boshqalar bilan konstruktiv muloqot qilish va o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu model nafaqat nazariy bo'shliqni to'ldiradi, balki O'zbekiston sharoitida EFL o'qitishni yanada samarali va talabaga moslashtirilgan holga keltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot dizayni Mazkur tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida amalga oshirildi. Dizayn pre-test/post-test sxemasiga tayanadi va ikkita parallel guruhni (eksperimental va nazorat) o'z ichiga oladi. Kvazi-eksperimental yondashuvni tanlashning asosiy sababi real universitet muhitida to'liq randomizatsiya qilishning amaliy cheklovlari edi. Ushbu dizayn lingvistik intellektni rivojlantiruvchi intervensiyaning ingliz tili ko'nikmalariga va talabalarining o'z-o'zini ifoda etish qobiliyatiga ta'sirini sabab-natija munosabati orqali aniqlash imkonini beradi. Pre-test bosqichi orqali guruhlarining boshlang'ich holati iloji boricha tenglashtirildi, post-test esa 12 haftalik intervensiyadan keyin o'zgarishlarni o'lchash uchun qo'llanildi. Dizayn ichki va tashqi ishonchlilikni ta'minlash maqsadida bir qator nazorat choralarini (bir xil o'qituvchi, bir xil dars vaqti, bir xil auditoriya) o'z ichiga oladi.

Tadqiqot namunasi: Namuna tanlashda oddiy tasodifiy tanlov usuli qo'llanilib, talabalar oldindan ikki teng guruhga ajratildi:

1. **Eksperimental guruh** (n = 30) – lingvistik intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus interaktiv dasturda ishtirok etgan talabalar.

2. **Nazorat guruh** (n = 30) – an'anaviy EFL o'qitish darslarida davom etgan talabalar;

Namuna hajmi statistik kuch talabalariga javob berishi uchun G*Power 3.1 dasturida hisoblab chiqildi (effect size $f = 0,35$, $\alpha = 0,05$, kuch = 0,82). Guruhlar jins tarkibi, yosh va dastlabki ingliz tili darajasi bo'yicha statistik jihatdan muvozanatli bo'lishi ta'minlandi. Barcha



ishtirokchilar o'zbek tilida ona tili sifatida so'zlashuvchi va ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar edi.

Ma'lumot yig'ish asboblari tadqiqotda quyidagi uchta asosiy vosita qo'llanildi:

1. Gardnerning ko'p intellektlar inventarizatsiyasining lingvistik bo'limi (moslashtirilgan variant). Asbob o'zbek tiliga tarjima qilinib, pilot tadqiqotda sinovdan o'tkazildi. Ichki ishonchlilik darajasi Cronbach's alpha ko'rsatkichi bo'yicha $\alpha = 0,89$ ni tashkil etdi. Lingvistik intellekt 5 ballik Likert shkala orqali baholandi.

2. Cambridge English Placement Test (CEPT) – ingliz tilining umumiy ko'nikmalarini (Listening, Speaking, Reading, Writing) baholash uchun xalqaro standart test. Test pre- va post-bosqichlarda bir xil sharoitda o'tkazildi va yuqori validsiyaga ega.

3. Refleksiv jurnal va tuzilgan o'qituvchi kuzatuv. Eksperimental guruh talabalari har hafta o'z tajribalari, qiyinchiliklari va o'sishini yozib bordilar. Jurnallar tematik-kontent tahlili orqali ko'rib chiqildi. Qo'shimcha ravishda o'qituvchi tomonidan tuzilgan kuzatuv varaqlari (observation checklist) yordamida talabalarining darsdagi faolligi, nutq ravonligi va ishtirok darajasi baholandi.

Talabalar tomonidan yuritilgan refleksiv jurnallarning tematik tahlili ham ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Ko'pchilik ishtirokchilar "til orqali o'z fikrlarimni endi erkinroq va chuqurroq ifoda eta olyapman", "debatlarda qatnashish o'zimga bo'lgan ishonchni oshirdi" kabi fikrlarni yozgan. O'qituvchi kuzatuv bo'yicha eksperimental guruh talabalarining darsdagi faolligi va nutq ravonligi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, lingvistik intellektni maqsadli rivojlantirishga asoslangan ushbu yondashuv EFL o'qitishni yanada samarali, talabaga mos va zamonaviy qilishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimida innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Armstrong, T. (2000). *Multiple intelligences in the classroom* (2nd ed.). Association for Supervision and Curriculum Development.
2. Christison, M. A. (1996). Teaching and learning languages through multiple intelligences. *TESOL Journal*, 6(1), 10–14.
3. Christison, M. A., & Bassano, S. (2005). *Multiple intelligences and language teaching*. Alta Book Center Publishers.



4. Gardner, H. (1983). *Frames of mind: The theory of multiple intelligences*. Basic Books.
5. Gardner, H. (1999). *Intelligence reframed: Multiple intelligences for the 21st century*. Basic Books.



O'ZBEKISTONDA INVESTITSION SIYOSAT VA UNING HUQUQIY ASOSI

Ismoilov Diyorbek Sirojiddin o'g'li

Qo'qon university magistranti

Annotasiya. Maqolada O'zbekistonda investitsion siyosat va uning huquqiy asoslari, jumladan maxsus iqtisodiy zonalar va davlat-xususiy sheriklik tizimlari hududiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot investitsion muhitni barqarorlashtirish, sarmoya loyihalarini samarali amalga oshirish va hududiy iqtisodiy farqlarni kamaytirish masalalarini ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: investitsion siyosat, hududiy rivojlanish, huquqiy asos, xorijiy investitsiyalar, maxsus iqtisodiy zonalar.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish maqsadida bir qator qonuniy hujjatlarni qabul qildi. Shu jumladan, "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va ularni boshqarish mexanizmlarini belgilaydi. Qonun, shuningdek, investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini ta'minlash orqali iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun davlat va xususiy sektor o'rtasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha sheriklik shartlarini tartibga soladi. Ushbu qonun hududlarda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va investorlar bilan hamkorlikni rag'batlantirish orqali sarmoya muhitini yaxshilashga imkon yaratadi. Mazkur qonunlar birgalikda investitsion muhitni tartibga solish, hududlar kesimida loyihalarni amalga oshirishni rag'batlantirish va investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan sharoit yaratish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Investitsiya siyosati – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui tushiniladi.

Investitsion siyosatni muvofiqlashtirish maqsadida maxsus davlat institutlari tashkil etildi. 2017-yilda tuzilgan "Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi" bugungi kunda investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tarkibida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, xorijiy investorlarni qo'llab-quvvatlovchi UzIPA agentligi ham tashkil qilingan bo'lib, u potensial investorlarni axborot bilan ta'minlash, maslahat va ko'mak berish, investitsiya forumlarini o'tkazish kabi vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:



O'zbekistonda investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yaratish va takomillashtirish;

mamlakatda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi uchun markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish;

mahalliy aholi va tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faolligini rag'batlantirish;

investorlar huquqlarini himoya qilish va ularning majburiyatlarini bajarish, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish monitoringi. Investitsiya siyosatining asosiy maqsadi mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya bozori va umumiy moliya sektorining boshqa tarkibiy qismlari - bank, sug'urta, valyuta va pul bozorini rivojlantirish hisoblanadi.

Mamlakatda xorijiy sarmoyalarni rag'batlantirish uchun qator soliq va bojxona imtiyozlari joriy etilgan. Masalan, erkin iqtisodiy zonalar va maxsus industrial zonalarda ro'yxatdan o'tgan xorijiy sarmoyali korxonalar foyda solig'i, mol-mulk solig'i, bojxona boji kabi to'lovlardan bir necha yilga ozod qilinadi. Birinchi erkin iqtisodiy zona 2008-yilda Navoiyda tashkil etilgan bo'lsa, hozirgi kunda barcha hududlarda 20 dan ortiq EIZ va texnoparklar faoliyat yuritmoqda. Natijada, xorijiy investorlar uchun tayyor infratuzilma va "yagona darcha" kabi qulayliklar yaratilgan.

Investitsion muhitning yaxshilanishida makroiqtisodiy barqarorlik va moliya bozorini liberallashtirish ham muhim rol o'ynadi. 2017-yilda milliy valyuta so'm kursining erkin konvertatsiyasi joriy etilib, valyutani erkin ayirboshlash va dividendlarni xorijga o'tkazish imkoniyati yaratildi. 2019-yilda yangi Soliq kodeksi qabul qilinib, unda soliq stavkalari sezilarli pasaytirildi (masalan, foyda solig'i 7,5% gacha, QQS 15% etib belgilandi). Bu islohotlar biznes yuritish xarajatlarini kamaytirib, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirdi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar bo'yicha huquqiy-institutsional baza shakllantirilgan va so'nggi yillarda jadal takomillashtirildi. Investitsiyalar to'g'risidagi qonun xorijiy investor huquqlarini keng kafolatlaydi, davlat dasturlari va Prezident farmonlari orqali ustuvor tarmoqlar va hududlarga sarmoya jalb etish maqsadli rag'batlantirilmoqda. Endi asosiy e'tibor ushbu siyosatning amaliy natijadorligini oshirishga qaratilmoqda, ya'ni yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanib xorijiy kapital oqimini muntazam ko'paytirish muhim vazifa bo'lib turibdi.

O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan investitsion siyosati yo'nalishlarining asosiy maqsadi – ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish, ushbu yo'nalishlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini



mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqishdan iboratdir. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda investitsion siyosat quyidagi yo'nalishlarga qaratiladi:

Investitsion salohiyatni kengaytirish: amortizatsiya siyosatini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, fond bozorining rolini tubdan oshirish, aholi va tadbirkorlarning jamg'armalarini safarbar etish hamda xorijiy va mahalliy xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay investitsion muhit yaratish;

Investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish: iqtisodiyot tarmoqlarining modernizatsiyasini tezlashtirish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi yuqori va o'rta texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratish va rivojlantirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish;

Investitsion siyosatni isloh qilishning asosiy vazifasi: investitsiyalar hajmini ko'paytirishga emas, balki ularning samarali foydalanish konsepsiyasiga bosqichmabosqich o'tish, ayniqsa, xomashyo bo'lmagan tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishga va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratish;

Investitsion siyosatning ustuvor yo'nalishlarini qayta yo'naltirish: an'anaviy, asosan, xomashyo qazib olish sanoati tarmoqlarini moliyalashtirishdan voz kechib, yuqori ilmiy-texnologik tarmoqlarga investitsiya kiritish, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga muvofiqligi: sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish va ushbu jarayonga investitsiyalarni jalb qilishga ustuvor ahamiyat qaratish;

Texnologik rivojlanish uchun asos yaratish: mamlakatning texnologik taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qiluvchi yangi ishlab chiqarishlarni yaratish va mavjudlarini rivojlantirish, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish, ilg'or energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, xomashyo resurslarini qayta ishlash va butlovchi qismlar ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, investitsiyalarni jalb qilish jarayonida xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun: LRU-604, 17.02.2020. – Toshkent, 2020. – 12 b.



2. O'zbekiston Respublikasi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun: ZRU-537, 10.05.2019. – Toshkent, 2019. – 18 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Hududlarda investitsiyalarni jalb qilishda qonuniy tartib va imtiyozlar tizimi: tahliliy hisobot. – Toshkent, 2023. – 40 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" PF-4996-sonli 31.032017.
5. Uzbekistan Investment Promotion Agency. (n.d.). *Introduction*. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi. <https://invest.gov.uz/en/introduction>
6. Ministry of Investments and Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Investment incentives in Uzbekistan*. <https://invest.gov.uz/en/investment-incentives>
7. UNCTAD Investment Policy Hub. (2017). *Uzbekistan relaxes capital controls on foreign currency*. UNCTAD Investment Policy Monitor. <https://investmentpolicy.unctad.org/investment-policy-monitor/measures/3151/uzbekistan-relaxes-capital-controls-on-foreign-currency>
8. Murtozayev, S. *O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy va institutsional asoslari*. Science Problems Uzbekistan. 2024.
9. UNCTAD Investment Policy Hub. (n.d.). *Uzbekistan – The Law on Investments and Investment Activity*. <https://investmentpolicy.unctad.org/investment-laws/laws/328/uzbekistan-the-law-on-investments-and-investment-activity>



THE USE OF HIGH-ENERGY GAMES TO PROMOTE ACTIVE PARTICIPATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS IN INCLUSIVE CLASSROOMS

Abduraximova Feruza Boxadirovna

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti (PhD) katta o'qituvchisi

Yaxyoyeva Sarvinoz Xayotjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

Abstract

Inclusive education aims to provide equal learning opportunities for all students, including those with special educational needs. One of the major challenges in inclusive classrooms is ensuring active participation and engagement of all learners. This study explores the use of high-energy games as an effective pedagogical tool to promote active participation among children with special needs in inclusive settings. High-energy games are characterized by movement, interaction, and emotional involvement, which can enhance motivation and social integration. The research analyzes how such activities influence students' engagement, communication skills, and overall learning experience. The findings suggest that incorporating structured, high-energy games into classroom activities significantly improves participation, reduces social barriers, and creates a more inclusive learning environment. The study highlights the importance of adaptive teaching strategies and recommends integrating game-based approaches into inclusive education practices.

Keywords: inclusive education, high-energy games, active participation, special educational needs, student engagement, gamification, interactive learning, inclusive classrooms.

Introduction

In recent years, inclusive education has become a central focus of modern educational systems, aiming to ensure equal access to learning for all students regardless of their abilities or disabilities. Inclusive classrooms bring together diverse learners, including children with special educational needs, and require teaching strategies that address a wide range of abilities, learning styles, and developmental levels. Despite the growing emphasis on inclusion, one of the key challenges faced by educators is promoting active participation and engagement among all students, particularly those with special needs.



Active participation is a crucial element of effective learning, as it enhances students' motivation, supports cognitive development, and encourages social interaction. However, children with special educational needs often encounter barriers such as limited communication skills, lack of confidence, and insufficiently adapted teaching methods, which can hinder their involvement in classroom activities. Therefore, there is a need for innovative and flexible approaches that can create a supportive and engaging learning environment.

One promising approach is the use of high-energy games in the classroom. High-energy games involve physical activity, collaboration, and emotional engagement, making them particularly effective in capturing students' attention and encouraging participation. These games can be adapted to meet individual needs, allowing all students to be involved regardless of their abilities. Moreover, such activities promote not only academic engagement but also social inclusion, teamwork, and positive classroom dynamics.

This study aims to examine the role of high-energy games in promoting active participation among children with special educational needs in inclusive classrooms. By analyzing the impact of these interactive strategies, the research seeks to contribute to the development of more effective and inclusive teaching practices.

Literature Review

Inclusive education has become an essential component of modern educational systems, focusing on providing equal opportunities for all learners, especially those with special educational needs. Researchers emphasize that inclusion is not only about physical placement in mainstream classrooms but also about ensuring meaningful participation. Active engagement is considered a key factor in successful inclusive education, as it supports both academic achievement and social integration.

Several studies highlight that students with special needs often face barriers such as limited access to adapted teaching methods, insufficient teacher preparation, and lack of supportive learning environments. These challenges can reduce motivation and participation, leading to lower educational outcomes. Therefore, the implementation of flexible and student-centered approaches is crucial.

Modern pedagogical research increasingly supports the use of interactive and game-based learning strategies. High-energy games, in particular, have been identified as effective tools for enhancing student engagement. These activities combine physical movement, emotional involvement, and social interaction, which are especially beneficial for children with special



needs. Game-based approaches help reduce anxiety, improve communication skills, and foster collaboration among students.

Furthermore, gamification and active learning strategies have been shown to create inclusive and motivating learning environments. By incorporating elements such as competition, rewards, and teamwork, teachers can increase students' interest and participation. Studies also indicate that structured, high-energy activities can positively influence students' behavior, attention span, and overall classroom involvement.

Overall, the literature suggests that innovative, movement-based, and interactive teaching strategies play a significant role in improving participation and inclusion in diverse classrooms.

Methodology

This study employed a qualitative research design to explore the effectiveness of high-energy games in promoting active participation among children with special educational needs in inclusive classrooms. The research was conducted in an inclusive primary school setting.

Participants included 20 students, among whom 6 were identified as having special educational needs. The study was carried out over a period of four weeks. During this time, teachers integrated high-energy games into regular classroom activities.

Data were collected through classroom observations, teacher feedback, and student engagement checklists. The observation focused on students' participation levels, interaction with peers, and responsiveness during activities. Additionally, informal interviews with teachers were conducted to gather insights into the effectiveness of the implemented strategies.

The collected data were analyzed using thematic analysis to identify patterns related to student engagement and participation.

Results

The findings of the study indicate that the use of high-energy games significantly improved student participation in inclusive classrooms. Students with special educational needs showed increased involvement in classroom activities compared to traditional teaching methods.

The results revealed that:



- Students became more active and willing to participate during lessons involving high-energy games.
- Social interaction between students improved, with increased collaboration and communication.
- Students demonstrated higher levels of motivation and enthusiasm.
- Behavioral issues decreased during interactive activities.

Teachers reported that high-energy games created a more dynamic and inclusive classroom environment, where all students felt encouraged to participate regardless of their abilities.

Discussion

The results of this study align with previous research emphasizing the importance of interactive and student-centered teaching approaches in inclusive education. High-energy games appear to be an effective tool for overcoming common barriers faced by children with special educational needs.

One of the key advantages of these activities is their ability to engage multiple learning modalities, including physical, social, and emotional aspects. This makes learning more accessible and enjoyable for diverse learners. Additionally, the use of movement and teamwork helps reduce anxiety and builds confidence among students with special needs.

The findings also suggest that teachers play a crucial role in adapting games to meet individual student needs. Proper planning and flexibility are essential to ensure that all learners can actively participate.

However, the study also highlights the need for teacher training and access to appropriate resources to successfully implement such strategies in inclusive classrooms.

Conclusion

In conclusion, high-energy games are a valuable pedagogical tool for promoting active participation among children with special educational needs in inclusive classrooms. These activities enhance engagement, improve social interaction, and create a positive learning environment.



The study confirms that incorporating interactive and movement-based strategies can significantly support inclusive education goals. Educators are encouraged to integrate high-energy games into their teaching practices to foster greater participation and inclusion.

Future research could explore the long-term impact of such strategies and their application in different educational contexts.

References

1. Rustamov, A. (2024). *Inclusive education as a system of equal learning opportunities*.
2. Ibragimova, D., & Rasulova, M. (2025). *Procedures for engaging children in inclusive education*.
3. Abduazizova, N., & Ne'matova, Z. (2025). Barriers to student engagement in inclusive education.
4. Azimova, G., et al. (2025). *Modern approaches to special pedagogy in inclusive education*.
5. Rosero, J., & Inga, L. (2025). Transforming inclusive education through gamification and active learning strategies.
6. Shuxratov, B., & Ismoilova, D. (2025). *Innovative pedagogical approaches for students with special educational needs*.
7. Abduraximova, F. B., & Yaxyoyeva, S. X. (2025). Inklyuziv ta'limning zamonaviy ta'limdagi istiqbollari.



NUTQIY KOMPETENSIYA VA INTERFAOL TA'LIM METODLARI INTEGRATSIYASI

Nasimova Muattar Khasanovna

PhD Students of Samarkand State University

named after Sharof Rashidov

Uzbekistan

nasimovamuattar@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada ogʻzaki nutq kompetensiyasining lingvistik, psixolingvistik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Unda kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida grammatika, leksika va fonetika oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik yoritiladi. Shuningdek, interfaol taʼlim metodlari, xususan keys-stadi va loyiha ishlari ogʻzaki nutq koʻnikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi koʻrsatib beriladi. Tadqiqotda nutq faoliyatining integratsiyalashgan yondashuvi hamda kommunikativ kompetensiyaning taʼlim jarayonidagi oʻrni asoslanadi. Natijada talabalarda ogʻzaki nutq, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish koʻnikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqola zamonaviy taʼlimda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritadi.

Tayanch soʻzlar: ogʻzaki nutq kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, fonetika, leksika, grammatika, interfaol metodlar, taʼlim jarayoni.

Abstract

This article analyzes the linguistic, psycholinguistic, and pedagogical aspects of oral speech competence. It highlights the interconnection of its core components, including grammar, vocabulary, and phonetics. The study also examines the effectiveness of interactive teaching methods, particularly the case study and project-based learning approaches, in developing speaking skills. Furthermore, it emphasizes the role of integrated language activities and communicative competence in the educational process. As a result, the article demonstrates the development of students' oral speech, critical thinking, and problem-solving skills. The paper focuses on both theoretical and practical aspects of forming oral speech competence in modern education.

Keywords: oral speech competence, communicative competence, linguistic competence, phonetics, vocabulary, grammar, teaching methods, interactive learning.



Og'zaki nutq kompetensiyasi shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilish, axborotni tushunarli yetkazish va tinglovchini anglash qobiliyatini ifodalovchi murakkab tuzilma hisoblanadi. U lingvistik komponentga asoslanib, grammatika, leksika va fonetika bilimlarini hamda ularni nutqda qo'llash ko'nikmasini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya tilning fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va stilistika kabi bo'limlari bilan uzviy bog'liqdir[6]. Shuningdek, bu kompetensiya grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish, mazmunni anglash va nutqni mantiqan shakllantirishni ham o'z ichiga oladi[1]. Og'zaki nutq kompetensiyasi lingvistik va fonetik bilimlarning integratsiyasi asosida shakllanib, shaxsning samarali kommunikativ faoliyatini ta'minlaydi hamda to'g'ri va mazmunli nutq qurish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Nutq kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik jihatlari

Nutqiy kompetensiya zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim vositalardan biri bo'lib, uning mazmuni, tuzilishi va turlari pedagogik muloqot hamda kommunikativ samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil etiladi [4]. Ushbu kompetensiya nutqni to'g'ri va adekvat qo'llash bilan birga, til vositalaridan samarali foydalanish, shuningdek, nutqning ifodaliligini ta'minlovchi lingvistik va nolingvistik, xususan, intonatsion vositalarni qo'llash qobiliyatini ham qamrab oladi [9]. Shu bilan birga, nutq kompetensiyasi faqat lingvistik bilimlar majmui bilan cheklanmaydi, balki ularni turli kommunikativ vaziyatlarda amaliy qo'llashni ham nazarda tutadi. Bu jarayonda sotsiolingvistik va pragmatik komponentlar muhim ahamiyat kasb etib, ular orqali nutqning ijtimoiy kontekstga mosligi hamda muloqot maqsadiga erishish ta'minlanadi. Xususan, lingvistik kompetensiya til birliklarining grammatik va sintaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilishi haqidagi bilimlarni o'z ichiga olsa, sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy jihatdan maqbul nutq shakllarini tanlash va muloqot sharoitini to'g'ri anglashni talab etadi [2]. Bundan tashqari, nutqiy kompetensiya nutq faoliyatining barcha turlarini — tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozishni — o'zaro integratsiyalashgan holda egallashni ham o'z ichiga oladi [8]. Ayniqsa, xorijiy tilni o'rganish jarayonida ushbu komponentlarning uyg'un rivoji nutqiy kompetensiyaga asoslangan yondashuvning markaziy ahamiyatini belgilaydi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda Case study (keys-stadi) va project work (loyixa ishlari)

Ushbu metodlar ichida eng samarali yondashuvlardan biri sifatida «Keys-stadi» (case study) usuli alohida o'rin tutadi. «Case study» atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, “case” – aniq vaziyat yoki hodisa, “study” – o'rganish va tahlil qilish ma'nolarini anglatadi. Mazkur



metod real yoki modellashtirilgan vaziyatlarni chuqur tahlil qilish asosida o'qitishni tashkil etishga yo'naltirilgan uslub hisoblanadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, ushbu yondashuv 1921-yilda Garvard universitetida iqtisodiyot va boshqaruv fanlarida amaliy muammolarni o'rganish maqsadida ilk bor qo'llanilgan. Keys-stadi jarayonida ochiq axborot manbalari yoki real hayotiy voqea-hodisalar tahlil obyekti sifatida olinadi. Ushbu metodik yondashuv quyidagi asosiy savol yo'nalishlariga tayanadi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday (How) va Qanday natija (What result). Mazkur savollar asosida talaba mavjud ma'lumotlarni tizimli tahlil qilib, muammoning maqbul yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Loyiha ishlari talabalarning real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash imkoniyatini kengaytirsa, keys-stadi usuli energetika sektori kabi amaliy stsenariylar orqali ularning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi[7]. Shuningdek, loyiha faoliyati davomida talabalar o'z fikrlarini muhokama qilish, taqdimot qilish va izohlash orqali kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlaydi, bu esa real muloqot ehtiyojlarini aks ettiradi. Keys-stadi esa talabalarga muayyan muammolarni hal qilish jarayonida turli axborot manbalaridan foydalanib, real vaziyatni chuqur tahlil qilish imkonini beradi[4]. Keys-stadi texnologiyasi esa talabalarni muammoli vaziyatlarni hal etish jarayoniga jalb etib, ularning ilmiy-ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda bilim va ko'nikmalarni hamkorlikda qo'llashga o'rgatadi. Ushbu metod, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning tadqiqot, kommunikativ va analitik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi[3]. Shu nuqtai nazardan, keys-stadi metodologiyasi talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish hamda argumentativ nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi[5]. Ushbu yondashuv nutq faoliyatining barcha turlarini integratsiyalab, talabalarning kommunikativ maqsadlarga erishishini ta'minlaydi va zamonaviy ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikni yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, keys-stadi metodi zamonaviy ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan integratsiyalash orqali talabalarning kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantiruvchi samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, tizimli tahlil qilish, muqobil yechimlar ishlab chiqish hamda asosli xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, u og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda ham muhim didaktik vosita bo'lib, zamonaviy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

References

1. Congmin, Z. (2023). Theorizing the Language Ability and Language Assessment. *US-China Foreign Language*, 21(7). <https://doi.org/10.17265/1539-8080/2023.07.002>



2. G'aniyeva, M. (2025). Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari. Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17682764>
3. Hnatenko, T., & Lysenko, N. (2023). Use of innovative learning technologies in higher educational in the conditions of mixed education. 1, 14. <https://doi.org/10.32782/health-2023.1.3>
4. İsmaylova, R. (2024). Effectiveness of English Language Teaching Based on Communicative Approach in Azerbaijan Higher Education Institutions. DergiPark (Istanbul University).
5. Romashyna, Z. (2025). Usage of gamification as an interactive educational method in teaching foreign languages. ScienceRise Pedagogical Education, 56. <https://doi.org/10.15587/2519-4984.2025.338621>
6. Tashmuradova, H. (2026). Boshlahg'ich sinf o'quvchilarini nutqini sun'iy intellekt vositalari orqali rivojlantirish. Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research). <https://doi.org/10.5281/zenodo.18753206>
7. Vilkhovchenko, N. (2024). Using project work in teaching english for specific purposes for energy sector. Bulletin of Alfred Nobel University Series Pedagogy and Psychology, 1(27), 160. <https://doi.org/10.32342/2522-4115-2024-1-27-17>
8. Vladlenov, D. (2023). Problems of the development of science and the view of society. 1. <https://doi.org/10.46299/isg.p.2023.1.11>
9. Качак, Т., & Blyznyuk, Т. (2023). Development of Communicative Competence of Future Special Education Teachers. Journal of Vasyl Stefanyk Precarpathian National University, 10(1), 87. <https://doi.org/10.15330/jpnu.10.1.87-98>



ИС ГАЗИ ТАЪСИРИДА ҚИЗИЛЎНГАЧНИНГ МОРФОФУНКЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАРИ ВА УЛАРНИ КОРРЕКЦИЯЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ

Бахронов Б.Б.,

Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институти

Мақсад: Узоқ муддатли ис газы (СО) таъсирида қизилўнғачда юзага келадиган морфологик ва иммуногистокимёвий ўзгаришларни чуқур ўрганиш, шунингдек *Silybum marianum* (расторопша) ва *Carthamus tinctorius* (сафлор) асосидаги фитотерапевтик воситаларнинг коррекцион самарадорлигини баҳолаш.

Материаллар ва усуллар: Тадқиқотда вазни 200–250 г бўлган 200 та оқ зотсиз каламуш иштирок этди. Ҳайвонлар тасодифий тарзда 4 гуруҳга ажратилди: назорат; сурункали СО интоксикацияси; СО + *Silybum marianum*; СО + *Carthamus tinctorius*.

СО таъсири ҳайвонларни 200–300 мг/м³ (0,02–0,03%) концентрацияли муҳитда кунига 1–2 соат, ҳафтасига 5–6 марта, 1–3 ой давомида сақлаш орқали моделлаштирилди, бу эса сурункали гипоксия ҳолатини шакллантиришга хизмат қилди.

Тажриба якунида ҳайвонлардан қизилўнғач тўқималари олиниб, 10% нейтрал формалинда фиксация қилинди, стандарт гистологик ишловдан ўтказилиб, парафинга қуйилди. 5–7 мкм қалинликдаги кесмалар гематоксилин-эозин ва Van Gieson усуллари билан бўялди.

Имуногистокимёвий таҳлил стрептавидин-биотин-пероксидаза усулида ўтказилиб, Ki-67 (пролиферация маркери) ва Vcl-2 (антиапоптотик фаоллик маркери) қўлланилди. Иммунопозитив хужайралар 1 мм² майдонда морфометрия усулида ҳисобланди.

Натижалар: Узоқ муддатли СО таъсири қизилўнғач шиллик қаватида сезиларли деструктив ўзгаришларга олиб келди. Эпителий қалинлиги $45 \pm 2,3$ дан $26 \pm 1,2$ нм гача камайди, шиш даражаси $10 \pm 0,6$ дан $20 \pm 1,1$ нм гача ошди, инфильтрация 35 ± 3 дан 140 ± 9 хужайра/мм² гача кўпайди, яллиғланиш фаоллиги эса $0,5 \pm 0,1$ дан $4,0 \pm 0,2$ баллгача ўсди.

Фитокоррекция натижасида патологик ўзгаришлар сезиларли даражада камайди. *Carthamus tinctorius* қўлланилган гуруҳда эпителий қалинлиги $42 \pm 2,0$ нм гача тикланди, яллиғланиш 1,5–2,0 баллгача пасайди, инфильтрация 60–70 хужайра/мм² ни ташкил этди. *Silybum marianum* гуруҳида эса эпителий $43 \pm 2,1$ нм, яллиғланиш $1,3 \pm 0,1$ балл ва инфильтрация 55 ± 4 хужайра/мм² га тенг бўлди.



Қўшимча равишда аниқландики, фитопрепаратлар қўлланилиши Ki-67 ва Bcl-2 экспрессиясининг мувозанатлашувига олиб келиб, хужайралар пролиферацияси ва апоптози ўртасидаги мувозанатни қисман тиклайди.

Хулоса: Сурункали ис гази таъсири қизилўнгачда гипоксияга боғлиқ оғир морфофункционал бузилишларни келтириб чиқаради. *Silybum marianum* ва *Carthamus tinctorius* асосидаги фитокоррекция яллиғланиш ва дистрофик ўзгаришларни камайтириш, шунингдек хужайравий регенерация жараёнларини барқарорлаштиришда самарали эканлиги аниқланди.

Олинган натижалар фитотерапияни сурункали гипоксия шароитида қизилўнгачни ҳимоя қилиш ва даволашнинг истикболли йўналиши сифатида қараш имконини беради ҳамда келгусида клиник тадқиқотлар ўтказиш зарурлигини кўрсатади.



TEKNOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna

*Termiz davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Maxmarejabova Gulsevar Ravshan qiz

*Termiz davlat pedagogika
instituti talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlash ko'nikmalari va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning texnologiya darslari samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya ta'limi, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract

This article explores the didactic possibilities of using innovative pedagogical and information technologies in teaching technology subjects. The study analyzes how the integration of modern technologies into the educational process can enhance students' creative thinking, independent work skills, and practical competencies. Furthermore, the article justifies the role of innovative approaches in improving the effectiveness of technology lessons.

Keywords: technology education, innovative technologies, pedagogical technology, interactive methods, digital learning, competency-based approach.

Аннотация

В данной статье рассматриваются дидактические возможности использования инновационных педагогических и информационных технологий в преподавании предмета «Технология». Проанализировано, как внедрение современных технологий в образовательный процесс способствует развитию у учащихся творческого мышления,



навыков самостоятельной работы и практических компетенций. Кроме того, обоснована роль инновационных подходов в повышении эффективности уроков технологии.

Ключевые слова: образование по технологии, инновационные технологии, педагогическая технология, интерактивные методы, цифровое обучение, компетентностный подход.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'qituvchidan dars jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kasbiy yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy dars usullaridan farqli o'laroq, innovatsion yondashuvlar o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon etadi.

Hozirgi globallashuv, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan va axborot oqimi tobora kuchayib borayotgan sharoitda jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi nafaqat o'quvchilarga muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni berish, balki ularni ma'naviy jihatdan yetuk, mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan, ijtimoiy mas'uliyatli hamda faol fuqarolar sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda tarbiya jarayoni yetakchi o'rin egallaydi.

Ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi shaxs kamolotining poydevori sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning axloqiy qarashlari, xulq-atvor me'yorlari, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabati va shaxsiy sifatlari shakllana boshlaydi. Ushbu bosqichda egallangan tarbiyaviy tajriba o'quvchining keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati va jamiyatdagi ijtimoiy moslashuv darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va integrativ asosda tashkil etishni talab etmoqda. Bu esa tarbiya mazmuni va metodlarini qayta ko'rib chiqish, uni ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining mohiyati va mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash dolzarb vazifalardan biridir.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida tarbiya jarayonining pedagogik mohiyati va mazmuni, uning ta'lim jarayoni bilan o'zaro aloqadorligi, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim tizimida tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.



Asosiy qism

Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalar tushunchasi

Innovatsion texnologiyalar deganda ta'lim jarayonida yangi pedagogik g'oyalar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish tushuniladi. Texnologiya fanida bu yondashuvlar amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari, modellashtirish va muammoli vaziyatlar orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion metodlarning turlari va ularning samaradorligi

Texnologiya darslarida quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish yuqori natija beradi:

Loyiha metodi

– o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

Klaster, aqliy hujum, B-B-B metodi

– mavzuni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi;

Raqamli texnologiyalar (multimedia, virtual laboratoriyalar)

– darsning ko'rgazmaliligi va qiziqarliligini oshiradi.

Mazkur metodlar orqali o'quvchilarning nazariy bilimlari amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lanadi.

Axborot texnologiyalarining o'rni

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish texnologiya darslarida vaqtni tejash, axborotni tez va samarali yetkazish imkonini beradi. Elektron darsliklar, video darslar, interaktiv platformalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hozirgi globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) qo'llanilishi o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari texnologiya darslarining mazmunini boyitib, ta'lim jarayonini vizual, interaktiv va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Jumladan, elektron darsliklar, multimediali taqdimotlar, animatsiyalar va videoroliklar yordamida murakkab texnologik jarayonlarni o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish mumkin. Bu esa o'quvchilarning mavzuni tez va chuqur o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Texnologiya darslarida virtual laboratoriyalar va kompyuter modellashtirish dasturlaridan foydalanish o'quvchilarga xavfsiz muhitda tajribalar o'tkazish, mexanizmlar va texnologik jarayonlarni sinab ko'rish imkonini beradi. Bunday yondashuv ayniqsa murakkab yoki moddiy resurs talab etadigan mashg'ulotlarda samarali hisoblanadi. Natijada o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari mustahkamlanadi va ijodiy tafakkuri rivojlanadi.



Shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish mumkin. Masalan, onlayn platformalar va elektron test tizimlari orqali o'quvchilarning bilim darajasi aniqlanib, ularning individual qobiliyatlari va qiziqishlariga mos topshiriqlar beriladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyasini shakllantiradi.

Texnologiya fanida internet resurslaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-texnik yangiliklar, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarni o'quvchilarga taqdim etish orqali ularning dunyoqarashi kengayadi hamda kasbiy yo'naltirilganlik darajasi ortadi. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim imkoniyatlari texnologiya darslarini uzluksiz va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib, ularni zamonaviy mehnat bozoriga mos, raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalariga asoslangan darslar o'qituvchining pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish bilan birga, ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib, ularni kelajak kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu usullar o'qituvchining pedagogik mahoratini yanada takomillashtirishga imkon yaratadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, kompyuter modellashtirish dasturlari yordamida o'quvchilarda texnologik jarayonlar haqidagi tasavvurlar yanada aniqlashadi, murakkab tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni yengillashadi. Natijada o'quvchilarning fan bo'yicha qiziqishi ortib, dars jarayonidagi faolligi kuchayadi.

Shuningdek, axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish imkonini beradi. Bu esa har bir o'quvchining bilim darajasi, qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi. Elektron ta'lim



resurslari va onlayn platformalar orqali o'quvchilarning bilimni nazorat qilish, tahlil qilish va baholash jarayonlari yanada shaffof va samarali amalga oshiriladi.

Texnologiya fanida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni kelajak kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar bilan tanishish orqali o'quvchilarda mehnat bozorida talab etiladigan kompetensiyalar shakllanadi. Bu esa ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirib, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan kompleks va tizimli foydalanish o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, texnologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. **Pedagogik texnologiyalar asoslari.** – Toshkent, 2020.
2. Jo'rayev R.X. **Ta'limda innovatsion yondashuvlar.** – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi materiallari.
4. Hardiyana, B., Shinobu, H., Effendi, D., Noviansyah, B., & Abdunazarova, Z. K. (2025). EVALUATING NOVICE ANGKLUNG PLAYERS'EMOTIONAL AND EXPERIENTIAL RESPONSES TO CUE-GUIDED SELF-TRAINING METHODS USING FACE RECOGNITION AND PARTICIPANT FEEDBACK. *NED University Journal of Research*, 22(250).
5. Hardiyana, B., Shinobu, H., Effendi, D., Noviansyah, B., & Abdunazarova, Z. K. (2025). EVALUATING NOVICE ANGKLUNG PLAYERS'EMOTIONAL AND EXPERIENTIAL RESPONSES TO CUE-GUIDED SELF-TRAINING METHODS USING FACE RECOGNITION AND PARTICIPANT FEEDBACK. *NED University Journal of Research*, 22(250).
6. Mamanazarova, F., & Abdunazarova, Z. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARINI O'RGANISH. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(7), 124-127.
7. Abdunazarova, Z. (2025). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O 'QITISHDA MUHIM MUOMMOLARNI HAL QILISHDA FALSAFANING RO



‘LI. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(3), 137-144.

8. Abdunazarova, Z. X. (2025). Boshlang ‘ich sinfda ekologik ta’limning ahamiyati va dolzarbligi. *Строительство и образование*, 4(5), 276-279.

9. Abdunazarova, Z. Environmental Culture in Future Primary Classes Content AND Philosophical Features OF Formation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 13(4), 101-107.

10. Mamanazarova, F., & Abdunazarova, Z. (2025). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(7), 124-127.

11. Abdunazarova, Z. (2025). Qadimgi manba “avesto”dadagi tabiat haqidagi falsafiy qarashlarining MOHIYATI. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(5), 37-41.

12. Abdunazarova, Z. Environmental Culture in Future Primary Classes Content AND Philosophical Features OF Formation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 13(4), 101-107.

13. Abdunazarova, Z. Environmental Culture in Future Primary Classes Content AND Philosophical Features OF Formation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 13(4), 101-107.

14. Mamanazarova, F., & Abdunazarova, Z. (2025). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(7), 124-127.

15. Mamanazarova, F., & Abdunazarova, Z. (2025). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(7), 124-127.

16. Abdunazarova, Z. (2025). Qadimgi manba “avesto”dadagi tabiat haqidagi falsafiy qarashlarining MOHIYATI. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(5), 37-41.



17. Abdunazarova, Z. (2025). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O 'QITISHDA MUHIM MUOMMOLARNI HAL QILISHDA FALSAFANING RO 'LI. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(3), 137-144.
18. Mamanazarova, F., & Abdunazarova, Z. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARINI O'RGANISH. *Универсальная индексная библиотека «Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования»*, 4(7), 124-127.



MADANIYAT MUASSASALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING MEZONLARI

Abduhamidov Javlonbek Shodiyor o'g'li

Madaniyat va san'at sohasi menejmenti yo'nalishi 1-kurs magistranti

abduhamidov2911@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligini aniqlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Madaniyat markazlari, teatrlar, filarmoniyalar va boshqa madaniy tashkilotlarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni hamda ularning faoliyat natijadorligini baholash mezonlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida madaniyat muassasalari faoliyatida uchraydigan muammolar, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar hamda ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqildi. Shuningdek, madaniyat muassasalari faoliyatini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar va indikatorlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida madaniyat muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish va aholining madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat muassasalari, samaradorlik, madaniy siyosat, boshqaruv tizimi, madaniy xizmatlar, ma'naviy rivojlanish, baholash mezonlari.*

Аннотация: *В данной статье научно анализируются вопросы определения эффективности деятельности культурных учреждений. Освещается роль культурных центров, театров, филармоний и других культурных организаций в духовной жизни общества, а также критерии оценки результативности их деятельности. В ходе исследования были рассмотрены проблемы, возникающие в деятельности культурных учреждений, факторы, влияющие на их эффективность, а также пути решения данных проблем. Кроме того, проанализированы основные показатели и индикаторы, применяемые при оценке деятельности культурных учреждений. По результатам исследования разработаны научные предложения и рекомендации по эффективной организации деятельности культурных учреждений, повышению качества культурных услуг и расширению участия населения в культурной жизни.*

Ключевые слова: *культурные учреждения, эффективность, культурная политика, система управления, культурные услуги, духовное развитие, критерии оценки.*



Abstract: *This article analyzes the issues of determining the effectiveness of cultural institutions from a scientific perspective. The role of cultural centers, theaters, philharmonic societies and other cultural organizations in the spiritual life of society, as well as the criteria for evaluating the effectiveness of their activities, are highlighted. During the research process, the problems encountered in the activities of cultural institutions, the factors affecting their effectiveness, and the ways to eliminate these problems were examined. In addition, the main indicators and criteria used to assess the performance of cultural institutions were analyzed. As a result of the research, scientific proposals and recommendations were developed to improve the effective organization of cultural institutions, enhance the quality of cultural services, and expand public participation in cultural life.*

Keywords: *cultural institutions, efficiency, cultural policy, management system, cultural services, spiritual development, evaluation criteria.*

Kirish - Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi har qanday jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyat muassasalari – teatrlar, filarmoniyalar, kutubxonalar, muzeylar va madaniyat markazlari – aholining ma'naviy hayotini boyitish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlodni estetik va madaniy ruhda tarbiyalash, hamda bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishda muhim institutlar sifatida faoliyat yuritadi.¹ Shu bois, madaniyat muassasalari jamiyatning ma'naviy rivojlanishidagi yetakchi vosita sifatida qaraladi va ularning samaradorligini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Madaniyat vazirligi tomonidan madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu jumladan, madaniyat muassasalarini modernizatsiya qilish, ularning faoliyatini samarali boshqarish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida qator qaror va dasturlar ishlab chiqilgan. Biroq amaliyotda madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligini baholash va ularning natijadorligini aniq ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Mazkur muassasalarda uchraydigan asosiy muammolar qatoriga quyidagilar kiradi: moddiy-texnik bazaning cheklanganligi, malakali kadrlar sonining yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, aholining madaniy tadbirlarda ishtirok darajasining pastligi va faoliyat samaradorligini baholash mezonlarining yetishmasligi. Bu muammolar nafaqat madaniyat muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishga to'sqinlik qiladi, balki mamlakat madaniy siyosatini rivojlantirishga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi – madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligini aniqlash mezonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning jamiyatdagi o'rni va mavjud muammolarini aniqlash hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot

¹ Abdullayev A. Madaniyat va san'at boshqaruvi asoslari. – Toshkent: Ilm-Nashr, 2019.



natijalari madaniyat muassasalarining ish faoliyatini takomillashtirish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish va aholining madaniy hayotdagi faolligini kengaytirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mavzuning o'rganilganlik darajasi Madaniyat muassasalari faoliyatini boshqarish va ularning samaradorligini oshirish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. O'zbekistonlik olimlar orasida A. Abdullayev, N. To'rayev, B. Yusupov kabi tadqiqotchilar madaniyat muassasalarini boshqarish, madaniy xizmatlarni tashkil etish va madaniy siyosat masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar. Xorijiy tadqiqotchilar orasida Richard Florida, John Holden, Franco Bianchini kabi olimlar madaniy siyosat, kreativ iqtisodiyot hamda madaniyat muassasalari faoliyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini o'rganish bo'yicha muhim ilmiy ishlar olib borganlar. Ushbu tadqiqotlarda madaniyat muassasalarining boshqaruv tizimi va faoliyat yo'nalishlari keng yoritilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Madaniyat muassasalari faoliyatidagi muammolar: Madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular nafaqat tashkilotlarning ichki ish faoliyatini, balki jamiyatning madaniy hayotini ham bevosita ta'sir qiladi. Ushbu muammolarni aniqlash va tasniflash tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega. Moddiy-texnik baza cheklanganligi. Ko'plab madaniyat muassasalari – teatrlar, filarmoniyalar va madaniyat markazlarining moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablar darajasida emas. Sahna jihozlari, ovoz va yoritish texnologiyalari eskirgan, kutubxonalar va muzeylarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yetarli darajada qo'llanilmayapti. Bu holat tadbirlar sifatiga va muassasalar faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi. Malakali kadrlar yetishmasligi.² Madaniyat sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar soni va malakasi yetarli emas. Ko'plab hududlarda professional teatr rejissyorlari, musiqa va san'at pedagoglari, kutubxonachilar va muzey xodimlari yetishmaydi. Bu esa madaniyat muassasalarining yuqori darajada xizmat ko'rsatishini cheklaydi va ijodiy loyihalarning sifatini pasaytiradi. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi. Madaniyat muassasalari faoliyati ko'pincha davlat byudjeti va mahalliy budjetga bog'liq. Moliyaviy resurslar yetarli bo'lmagan hududlarda tadbirlar soni va sifati past bo'ladi. Shu bilan birga, yangi ijodiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyati cheklanganligi muassasalarning rivojlanish sur'atini sekinlashtiradi. Aholining madaniy tadbirlarda ishtirok etish darajasining pastligi. Ayrim hududlarda aholining madaniy tadbirlarda ishtiroki past bo'lib, bu madaniyat muassasalarining samaradorligini baholashni murakkablashtiradi.³ Bu holat ko'pincha aholining madaniy-ma'rifiy bilim darajasining pastligi, transport va kommunikatsiya muammolari, shuningdek, tadbirlar targ'ibotining yetarli emasligi bilan

² To'rayev N. Madaniyat muassasalarini boshqarish nazariyasi. – Toshkent: Madaniyat, 2018.

³ Throsby D. Economics and Culture. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.



bog'liq. Faoliyat samaradorligini baholash mezonlarining yetishmasligi. Madaniyat muassasalari faoliyatini baholashda qo'llaniladigan aniq va tizimli mezonlar yetishmaydi. Natijada muassasalar o'z faoliyatining qaysi jihatlari samarali va qaysi jihatlari takomillashtirilishi lozimligini aniqlay olmaydi. Samaradorlik indikatorlari ishlab chiqilmaganligi, ularning monitoringi va tahlili tizimli ravishda amalga oshirilmasligi, tadbirlardan kutilgan natijalarni baholashni qiyinlashtiradi.

Madaniyat muassasalari faoliyatini samaradorligini oshirish yo'llari - Madaniyat muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish va natijadorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatilgan muammolarni bartaraf etish orqali madaniyat muassasalari nafaqat jamiyatning madaniy hayotiga samarali hissa qo'shadi, balki milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalash imkoniyatini kengaytiradi. Ushbu bo'limda samaradorlikni oshirishning eng muhim yo'llari keltiriladi. Moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish. Madaniyat muassasalari faoliyatining sifatini oshirish uchun ularning moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablar darajasiga keltirilishi zarur.⁴ Teatr va filarmoniyalarda sahna jihozlari, yoritish va ovoz texnologiyalarini yangilash, kutubxona va muzeylarda raqamli axborot texnologiyalarini joriy etish muassasalarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, hududlarda mavjud inshootlarning ta'mir va rekonstruksiya ishlari muntazam olib borilishi kerak. Malakali kadrlarni tayyorlash va kasbiy malakasini oshirish. Madaniyat muassasalari samaradorligining muhim omili sifatida malakali kadrlar hisoblanadi. Shu bois, professional mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini kuchaytirish zarur. Bu teatr rejissyorlari, musiqa va san'at pedagoglari, kutubxonachilar va muzey xodimlarini doimiy kasbiy rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o'rganish, malaka oshirish kurslari va master-klasslar tashkil etish samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Moliyaviy resurslarni optimallashtirish va qo'shimcha manbalarni jalb qilish. Madaniyat muassasalari faoliyatini kengaytirish va sifatini oshirish uchun moliyaviy resurslarni samarali boshqarish zarur. Davlat byudjeti bilan bir qatorda, mahalliy hamkorlik, homiylar va grant dasturlaridan foydalanish muassasalarga yangi ijodiy loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Shu yo'l bilan hududlarda madaniyat tadbirlarini kengaytirish va ularning sifatini oshirish mumkin. Aholini madaniy tadbirlarga jalb etish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish. Madaniyat muassasalari samaradorligini oshirish uchun aholining tadbirlarda ishtirokini rag'batlantirish zarur. Bu yerda marketing va targ'ibot ishlari muhim ahamiyatga ega. Mahalliy ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va interaktiv platformalar orqali tadbirlar haqida keng xabardorlik yaratish samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, bepul yoki arzon chiptalar,

⁴ Yusupov B. Madaniyat siyosati va boshqaruv. – Toshkent: Fan va Ma'rifat, 2020.



oilaviy va yoshlar uchun maxsus dasturlar tadbirlarda ishtirokni ko'paytiradi. Faoliyat samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va monitoring tizimini yo'lga qo'yish. Madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ularni baholash mezonlarini aniq belgilash va monitoring tizimini yo'lga qo'yish zarur. Tadbirlar soni, tomoshabinlar va ishtirokchilar statistikasi, loyihalar samaradorligi, aholining madaniy xizmatlardan qoniqish darajasi kabi indikatorlar asosida baholash amalga oshirilishi lozim. Bu tizimli yondashuv muassasalarga o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirish imkonini beradi. Shu yo'l bilan madaniyat muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, ularning ijtimoiy va ma'naviy ta'sirini oshirish hamda aholining madaniy hayotdagi faolligini kengaytirish mumkin bo'ladi. Samaradorlikni oshirish choralari nafaqat muassasalarning ichki ishlash sifatini yaxshilaydi, balki mamlakatning madaniy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga ham hissa qo'shadi.

Xulosa

Mazkur maqolada madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligini aniqlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida madaniyat markazlari, teatrlar, filarmoniyalar va boshqa madaniy tashkilotlarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini yoritildi, ularning faoliyatida uchraydigan muammolar aniqlanib, samaradorlikni oshirish yo'llari ishlab chiqildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, madaniyat muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish uchun: moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish, malakali kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish, moliyaviy resurslarni optimallashtirish, aholining madaniy tadbirlarda ishtirokini rag'batlantirish va faoliyat samaradorligini baholash tizimini joriy etish zarur. Ushbu chora-tadbirlar madaniyat muassasalarining ish sifatini oshirish, jamiyatdagi madaniy hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatish va aholining madaniy-ma'rifiy faolligini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada ko'rsatib o'tilgan ilmiy tavsiyalar va takliflar amaliyotga joriy etilganda, madaniyat muassasalarining samaradorligini aniq baholash, ularning faoliyatini takomillashtirish va milliy madaniyatni rivojlantirishda samarali natijalarga erishish mumkinligi ta'kidlandi. Umuman olganda, madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuv nafaqat muassasalar sifatini yaxshilaydi, balki mamlakatning madaniy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga ham muhim hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev A. Madaniyat va san'at boshqaruvi asoslari. – Toshkent: "Ilm-Nashr", 2019.
2. To'rayev N. Madaniyat muassasalarini boshqarish nazariyasi. – Toshkent: "Madaniyat", 2018.
3. Yusupov B. Madaniyat siyosati va boshqaruv. – Toshkent: "Fan va Ma'rifat", 2020.



4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Madaniyat sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari haqida” 345-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. 2023-yil Madaniyat sohasiga oid statistik hisobot. – Toshkent: 2024.
8. Florida R. The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure and Everyday Life. – New York: Basic Books, 2012.
9. Holden J. Cultural Value and the Crisis of Legitimacy: Why Culture Needs a Democratic Mandate. – London: Demos, 2006.
10. Bianchini F., Parkinson M. Cultural Policy and Urban Regeneration: The West European Experience. – Manchester: Manchester University Press, 1993.
11. Throsby D. Economics and Culture. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
12. UNESCO. Convention on the Protection and Promotion of the Diversity of Cultural Expressions. – Paris: UNESCO, 2005.
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. 2023-yil madaniyat sohasi statistik ma'lumotlar to'plami. – Toshkent: DSQ, 2024.
14. Smith L. Uses of Heritage. – London: Routledge, 2006.
15. Hewison R. Culture and Consensus: England, Art and Politics Since 1940. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
16. Bennett T. The Birth of the Museum: History, Theory, Politics. – London: Routledge, 1995.



“SHE’RIY MATNDA GUL OBRAZINING LINGVOPOETIK TALQINI VA KONNOTATIV MA’NOLAR TIZIMI”

Xolmurodova Mohinur Quvondiq qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘zbek she’riyatidagi “gul” leksemasi va u bilan bog‘liq fitonimlarning lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi — gul nomlarining poetik matndagi denotativ va konnotativ ma’no qatlamlarini yoritish hamda ularning badiiy semantikani shakllantirishdagi funksional rolini aniqlashdir. Ishda tahliliy-qiyosiy metodlar asosida gul obrazining falsafiy-estetik va ramziy konnotatsiyalari badiiy matnlar misolida tadqiq etilgan. Olingan natijalar o‘zbek poetikasi nazariyasini ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishga xizmat qiladi

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, fitonim, konnotatsiya, denotatsiya, poetik matn, obraz, semantika, badiiy diskurs, lirik timsol.

Annotation: This article analyzes the linguopoetic features of the lexeme flower and associated phytonyms in Uzbek poetry. The research aims to identify the denotative and connotative semantic layers of flower names within poetic texts and determine their functional role in shaping artistic semantics. Through analytical and comparative methods, the study explores the philosophical, aesthetic, and symbolic connotations of the flower image in literary works. The findings contribute to enriching theoretical perspectives in the field of Uzbek poetics.

Keywords: linguopoetics, phytonym, connotation, denotation, poetic text, artistic discourse, lyrical symbol.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу лингвопоэтических особенностей лексемы «гуль» (цветок) и связанных с ней фитонимов в узбекской поэзии. Цель исследования заключается в выявлении денотативных и коннотативных пластов значений названий цветов в поэтическом тексте, а также в определении их функциональной роли в формировании художественной семантики. На основе аналитико-сравнительных методов в работе исследуются философско-эстетические и символические коннотации образа цветка в художественных текстах. Полученные результаты способствуют обогащению теоретических взглядов в области узбекской поэтики.



Ключевые слова: лингвопоэтика, фитоним, коннотация, денотация, поэтический текст, художественный дискурс, лирический символ.

Kirish

O'zbek adabiy tilida fitonimlar, xususan, "gul" leksemasi badiiy obrazlar tizimining fundamental tarkibiy qismidir. Mazkur birlik shunchaki botanik atama bo'lmay, balki sevgi, ilohiy go'zallik hamda hayotning o'tkinchilik falsafasini mujassam etgan universal lirik timsoldir [1]. Lingvopoetik tahlil jarayonida leksemaning obyektiv (denotativ) hamda subyektiv-ramziy (konnotativ) ma'no qatlamlari matnning estetik ta'sirchanligini ta'minlovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi [2].

Asosiy qism : Gul obrazining lingvopoetik va konnotativ tahlili

O'zbek she'riyatida fitonimlar, xususan, "gul" leksemasi badiiy obrazlar tizimining fundamental asosi hisoblanadi. Ushbu leksemaning denotative ya'ni biologik ma'nosi she'riy diskursda konnotativ ya'ni ramziy qatlamlar bilan boyib, matnning estetik ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Mumtoz she'riyatda ishqiy-metaforik yondashuv Alisher Navoiy ijodida misolida tahlil qilsak:

Gul uzori lola yanglig' dog'u, lolu dog'i g'am,
Xat tekach, bo'ldi musalsal, so'ngra to'kdi ko'z yoshim.
Aytur o'lsa, la'li nozing, jon berur ko'nglum anga,
Chunki ul so'zlik duri g'aflatda qoldi, hushim.

“ Gul uzori lola yanglig' dog'u, lolu dog'i g'am,” [3]

Baytning birinchi misrasidagi "Gul uzori" (gul yuzi) birikmasida "gul" leksemasi ma'shuqaning yuziga nisbatan qo'llanilgan metafora hisoblanadi. Navoiy poetikasida gul shunchaki o'simlik emas, balki mukammallik, hayotbaxshlik va ilohiy nur ramzidir. Lingvistik jihatdan talil qiladigan bo'lsak : bu yerda "gul" so'zi o'zining denotativ ma'nosidan uzoqlashib, "go'zallik" tushunchasining etaloniga aylangan. Badiiy funksiyasini aytadigan bo'lsak : "Gul uzor" birikmasi orqali shoir o'quvchining tasavvurida yorning nafaqat tashqi ko'rinishini, balki uning nafosati va atrofga taratuvchi ma'naviy tarovatini ham gavdalantiradi.

Misradagi ikkinchi muhim fitonim "lola" bo'lib, u "lola yanglig' dog'" tashbehi orqali namoyon bo'ladi. Mumtoz adabiyotda lola o'zining qizil rangi va markazidagi qora dog'i bilan oshiq qalbining timsoli sanaladi. Navoiy bu o'rinda fitonimning biologik xususiyatidan mahorat bilan foydalanadi. Lolaning tashqi alvonligi – ishq o'ti, ichki dog'i esa – ayriliq va hasrat belgisidir. Falsafiy bog'liqlik: "Gul" yor va "Lola" oshiq fitonimlarining bir misrada kelishi tasodifiy emas. Gulning ochilishi yorning namoyon bo'lishi lola ko'nglida dog' paydo bo'lishiga oshiqning azoblanishiga sabab bo'ladi. Bu esa tabiat hodisalari orqali insoniy munosabatlarning psixologik parallelizm usulida berilishidir. Fitonim obrazlarning mantiqiy



davomi sifatida “xat” va “musalsal”– ko’rish mumkin .Ikkinchi misradagi “xat” yuzdagi mayin tuklar obrazi ham bilvosita fitonimik xarakterga ega, chunki u mumtoz she’riyatda ko‘pincha “sabza” yashillik, maysa tushunchasi bilan bog‘lanadi. Yor yuzidagi “xat”ning paydo bo‘lishi go‘yo gulzorga sabza oralashi kabi tasvirlanadi. Bu o‘zgarish oshiqning g‘amini yanada orttirib, uning ko‘z yoshlarini zanjirdek musalsal quyilishiga olib keladi.

Muammo: An'anaviy huquq tizimida javobgarlik shaxs bilan bog'liq — jismoniy yoki yuridik. Avtonom SI esa na jismoniy, na yuridik shaxs maqomiga ega emas. Shu sababli uchta asosiy yondashuv shakllandi:

Model	Mohiyati	Asosiy kamchiligi
Ishlab chiqaruvchi javobgarligi	SI mahsulot sifatida ko'riladi; nuqsonli mahsulot uchun ishlab chiqaruvchi javobgar. EU AI Act shu modelni qabul qilgan.	SI machine learning orqali o'zgarsa, «nuqson» tushunchasini qo'llash qiyinlashadi.
Foydalanuvchi javobgarligi	SI ni operatsiyaga qo'ygan sub'ekt nazorat qila olishi shart.	To'liq avtonom tizimda foydalanuvchi texnik qarorga aralashmaydi.
Aralash javobgarlik	Zarar turiga qarab mas'uliyat taqsimlanadi.	Taqsimlash mezonlari sudga alohida baholashni talab qiladi.



2024-yil iyulida kuchga kirgan EU AI Act yuqori xavfli SI tizimlari uchun ishlab chiqaruvchi javobgarligini majburiy audit bilan birlashtirgan birinchi majburiy hujjat bo'ldi.

2.2. Xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili

Davlat / Hujjat	Tartibga solish modeli	O'zbekiston uchun saboq
□A□A EU — AI Act (2024)	Xavf darajasiga asoslangan: past, o'rta, yuqori. Yuqori xavfli uchun majburiy audit.	Sohaviy tasnif modeli — tibbiyot va transport uchun darhol qo'llash mumkin.
□A□8 AQSh — Sohaviy	FDA, SEC, NHTSA alohida tartibga soladi. Markazlashgan AI qonuni yo'q.	Mavjud sohaviy qonunlar doirasida AI maxsus yo'riqnomalari kiritish mumkin.
□8□3 Xitoy — Algoritmik	2022-yil nizomi: tavsiya tizimlari va generativ AI uchun litsenziyalash.	Ijtimoiy tarmoqlar va media sohalarida maxsus tartibga solish zarur.
□0□F Qozog'iston	AI etika kodeksi (2023); javobgarlik qoidalari FK ga kiritish bosqichida.	Eng yaqin huquqiy tizim — hamkorlik va tajriba almashish imkoni yuqori.

2.3. O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlar

O'zbekiston Fuqarolik Kodeksining 985-moddasiga binoan zarar yetkazgan shaxs uni to'liq qoplashi shart. «Shaxs» tushunchasi faqat jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Avtonom SI tizimi ushbu doiraga tushmasligidan huquqiy muammo kelib chiqadi.

FK norma	Muammo	Tavsiya etilayotgan yechim
985-m.: zarar yetkazgan «shaxs» javobgar	SI jismoniy va yuridik shaxs emas	«Avtonom texnologik vosita» tushunchasini FK ga qo'shish



FK norma	Muammo	Tavsiya etilayotgan yechim
1003-m.: egasining hayvon uchun javobgarligi	Analog norma; SI ni hayvon bilan solishtirib bo'lmaydi	SI operatori uchun alohida javobgarlik rejimi yaratish
983-m.: niyat yoki ehtiyotsizlik isboti	Algoritm qarorida inson niyati yo'q	Ob'ektiv javobgarlik — zarar yetkazish faktining o'zi asosida
Sug'urta qonuni	SI xatarlarini qamrab olmaydi	Yuqori xavfli SI uchun majburiy javobgarlik sug'urtasi

3. METODOLOGIYA

Qiyosiy huquqiy tahlil (EU, AQSh, Xitoy, Qozog'iston)	ISO/IEC 42001:2023 standarti o'rganish
Sudlov amaliyoti case-study (ECHR qarorlari)	Akademik adabiyot tahlili (Scopus, SSRN)
Normativ-huquqiy hujjatlar ekzegetikasi	Stanford AI Index 2024 statistikasi
Ekspert va huquqshunoslar bilan suhbat	Xalqaro tajribani milliy sharoitga adaptatsiya
Qonun bo'shliqlarini xaritalash	Islohot loyihasini modellash

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston fuqarolik qonunchiligi avtonom SI tizimlari yetkazgan zarar uchun javobgarlikni tartibga solishga hozirgi holatda tayyor emas. Xalqaro modellar ichidan eng maqbuli — xavf darajasiga qarab mas'uliyatni taqsimlovchi «aralash javobgarlik» modeli.

Qonunchilik takliflari

O'zbekiston Fuqarolik Kodeksiga «Avtonom texnologik tizimlar tomonidan yetkazilgan zarar» nomli yangi IX¹-bob kiritilsin.



Yuqori xavfli AI tizimlari (tibbiyot, transport, moliya) uchun davlat akkreditatsiyasi va majburiy audit tizimi joriy etilsin.

ISO/IEC 42001:2023 standarti O'zbekiston me'yoriy hujjatlari sifatida qabul qilinsin.

Avtonom SI tizimlari uchun majburiy fuqarolik javobgarligi sug'urtasi joriy etilsin.

ECHR va Yevropa Adliya Sudi amaliyotini o'rganish bo'yicha xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Qonun va me'yoriy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (1997, keyingi o'zgarishlar bilan).
lex.uz/docs/111181

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-198-son Farmoni (13.03.2023).
lex.uz/docs/6385707

Regulation (EU) 2024/1689 — Artificial Intelligence Act. Official Journal of the EU, July 2024.
eur-lex.europa.eu

Cyberspace Administration of China. Algorithm Recommendation Provisions, 2022. cac.gov.cn

II. Xalqaro standartlar

ISO/IEC 42001:2023 — AI Management System. International Organization for Standardization, Geneva. iso.org/standard/81230

OECD Principles on Artificial Intelligence (2019, updated 2024). oecd.ai

III. Sudlov amaliyoti

ECHR. Big Brother Watch and Others v. the United Kingdom, No. 58170/13, 25 May 2021.
hudoc.echr.coe.int

NHTSA. Automated Vehicles for Safety. U.S. Department of Transportation. nhtsa.gov

IV. Ilmiy maqolalar

Doshi-Velez F., Kortz M. Accountability of AI Under the Law. Harvard, 2017. ssrn.com

Floridi L. et al. An Ethical Framework for a Good AI Society. Minds and Machines, 28(4), 2018. doi.org



Calo R. Artificial Intelligence Policy: A Primer. UC Davis Law Review, 51, 2017.
lawreview.ucdavis.edu

V. Elektron manbalar

O'zbekiston Qonunchilik ma'lumotlari tizimi: lex.uz

Stanford AI Index 2024: aiindex.stanford.edu

World Bank Governance Indicators 2023: worldbank.org

OECD.AI Policy Observatory: oecd.ai



**DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS
TIZIMINING SAMARADORLIGI:**

XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITINI BIRLASHTIRGAN QIYOSIY TAHLIL

Muallif: Omonov Firdavs Baxtiyor o'g'li

Termiz Davlat Universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

O'zbek tilida

Ushbu ishda avtomobil, tibbiyot va moliya sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi avtonom sun'iy intellekt tizimlari zarar yetkazganda qaysi shaxs yoki tashkilot javob berishi lozimligiga oid huquqiy savol ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Fuqarolik Kodeksining 985–1007-moddalari bu munosabatlarga mos kelmasligi dalillar bilan ko'rsatiladi. Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy tajribalari asosida milliy qonunchilikni rivojlantirish yo'nalishlari tavsiya etiladi.

На русском языке

В работе исследуется вопрос определения субъекта юридической ответственности при причинении вреда системами ИИ. Показано несоответствие норм ГК Узбекистана реалиям автономных технологических систем.

In English

This paper examines legal liability attribution when autonomous AI systems cause harm. It demonstrates insufficiency of Uzbekistan's Civil Code and proposes legislative reforms based on the EU AI Act, U.S. sectoral regulation, and China's algorithm governance framework.

1. KIRISH

So'nggi o'n yil ichida sun'iy intellekt tizimlari mustaqil qaror qabul qila oladigan avtonom agentlarga aylandi. Bu huquq sohasida yangi savol kun tartibiga qo'ydi: mazkur tizimlar zarar yetkazganda kim javobgar?

O'zbekistonda 2023-yilda PQ-198-sonli Farmoni bilan sun'iy intellekt sohasida dastlabki davlat siyosati hujjati qabul qilindi. Biroq bu hujjat texnologiyani rivojlantirish vazifalarini belgilaydi; zarar yetkazilganda mas'uliyat qaysi tuzilmaga yuklanishi to'g'risida normativ javob bermaydi.



Fuqarolik Kodeksidagi mavjud qoidalar inson tomonidan sodir etilgan harakatlarga mo'ljallangan. «Niyat», «ehtiyotsizlik» va «zarar yetkazuvchi» tushunchalari avtonom algoritmgga tatbiq etib bo'lmaydi.

1.1. Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Ishning asosiy maqsadi — O'zbekiston huquq tizimida sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashning samarali modelini asoslab berish.

- zarar yetkazgan avtonom SI tizimlariga oid xorijiy qonunchilik va sudlov amaliyotini o'rganish;
- O'zbekiston Fuqarolik Kodeksidagi mavjud normalar bilan ularni solishtirish, bo'shliqlarni aniqlash;
- milliy qonunchilikka kiritilishi zarur o'zgartirishlar bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish.

2. ASOSIY TAHLIL

2.1. Javobgarlik modellarining huquqiy tabiati

Muammo: An'anaviy huquq tizimida javobgarlik shaxs bilan bog'liq — jismoniy yoki yuridik. Avtonom SI esa na jismoniy, na yuridik shaxs maqomiga ega emas. Shu sababli uchta asosiy yondashuv shakllandi:

Model	Mohiyati	Asosiy kamchiligi
Ishlab chiqaruvchi javobgarligi	SI mahsulot sifatida ko'riladi; nuqsonli mahsulot uchun ishlab chiqaruvchi javobgar. EU AI Act shu modelni qabul qilgan.	SI machine learning orqali o'zgarasa, «nuqson» tushunchasini qo'llash qiyinlashadi.
Foydalanuvchi javobgarligi	SI ni operatsiyaga qo'ygan sub'ekt nazorat qila olishi shart.	To'liq avtonom tizimda foydalanuvchi texnik qarorga aralashmaydi.



Model	Mohiyati	Asosiy kamchiligi
Aralash javobgarlik	Zarar turiga qarab mas'uliyat taqsimlanadi.	Taqsimlash mezonlari sudga alohida baholashni talab qiladi.

2024-yil iyulida kuchga kirgan EU AI Act yuqori xavfli SI tizimlari uchun ishlab chiqaruvchi javobgarligini majburiy audit bilan birlashtirgan birinchi majburiy hujjat bo'ldi.

2.2. Xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili

Davlat / Hujjat	Tartibga solish modeli	O'zbekiston uchun saboq
□A□A EU — AI Act (2024)	Xavf darajasiga asoslangan: past, o'rta, yuqori. Yuqori xavfli uchun majburiy audit.	Sohaviy tasnif modeli — tibbiyot va transport uchun darhol qo'llash mumkin.
□A□8 AQSh — Sohaviy	FDA, SEC, NHTSA alohida tartibga soladi. Markazlashgan AI qonuni yo'q.	Mavjud sohaviy qonunlar doirasida AI maxsus yo'riqnomalari kiritish mumkin.
□8□3 Xitoy — Algoritmik	2022-yil nizomi: tavsiya tizimlari va generativ AI uchun litsenziyalash.	Ijtimoiy tarmoqlar va media sohalarida maxsus tartibga solish zarur.
□0□F Qozog'iston	AI etika kodeksi (2023); javobgarlik qoidalari FK ga kiritish bosqichida.	Eng yaqin huquqiy tizim — hamkorlik va tajriba almashish imkoni yuqori.

2.3. O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlar

O'zbekiston Fuqarolik Kodeksining 985-moddasiga binoan zarar yetkazgan shaxs uni to'liq qoplashi shart. «Shaxs» tushunchasi faqat jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Avtonom SI tizimi ushbu doiraga tushmasligidan huquqiy muammo kelib chiqadi.



FK norma	Muammo	Tavsiya etilayotgan yechim
985-m.: zarar yetkazgan «shaxs» javobgar	SI jismoniy va yuridik shaxs emas	«Avtonom texnologik vosita» tushunchasini FK ga qo'shish
1003-m.: egasining hayvon uchun javobgarligi	Analog norma; SI ni hayvon bilan solishtirib bo'lmaydi	SI operatori uchun alohida javobgarlik rejimi yaratish
983-m.: niyat yoki ehtiyotsizlik isboti	Algoritm qarorida inson niyati yo'q	Ob'ektiv javobgarlik — zarar yetkazish faktining o'zi asosida
Sug'urta qonuni	SI xatarlarini qamrab olmaydi	Yuqori xavfli SI uchun majburiy javobgarlik sug'urtasi

3. METODOLOGIYA

Qiyosiy huquqiy tahlil (EU, AQSh, Xitoy, Qozog'iston)	ISO/IEC 42001:2023 standarti o'rganish
Sudlov amaliyoti case-study (ECHR qarorlari)	Akademik adabiyot tahlili (Scopus, SSRN)
Normativ-huquqiy hujjatlar ekzegetikasi	Stanford AI Index 2024 statistikasi
Ekspert va huquqshunoslar bilan suhbat	Xalqaro tajribani milliy sharoitga adaptatsiya
Qonun bo'shliqlarini xaritalash	Islohot loyihasini modellar

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston fuqarolik qonunchiligi avtonom SI tizimlari yetkazgan zarar uchun javobgarlikni tartibga solishga hozirgi holatda tayyor emas. Xalqaro modellar ichidan eng maqbuli — xavf darajasiga qarab mas'uliyatni taqsimlovchi «aralash javobgarlik» modeli.



Qonunchilik takliflari

- O'zbekiston Fuqarolik Kodeksiga «Avtonom texnologik tizimlar tomonidan yetkazilgan zarar» nomli yangi IX¹-bob kiritilsin.
- Yuqori xavfli AI tizimlari (tibbiyot, transport, moliya) uchun davlat akkreditatsiyasi va majburiy audit tizimi joriy etilsin.
- ISO/IEC 42001:2023 standarti O'zbekiston me'yoriy hujjatlari sifatida qabul qilinsin.
- Avtonom SI tizimlari uchun majburiy fuqarolik javobgarligi sug'urtasi joriy etilsin.
- ECHR va Yevropa Adliya Sudi amaliyotini o'rganish bo'yicha xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Qonun va me'yoriy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (1997, keyingi o'zgarishlar bilan). lex.uz/docs/111181
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-198-son Farmoni (13.03.2023). lex.uz/docs/6385707
3. Regulation (EU) 2024/1689 — Artificial Intelligence Act. Official Journal of the EU, July 2024. eur-lex.europa.eu
4. Cyberspace Administration of China. Algorithm Recommendation Provisions, 2022. cac.gov.cn

II. Xalqaro standartlar

5. ISO/IEC 42001:2023 — AI Management System. International Organization for Standardization, Geneva. iso.org/standard/81230
6. OECD Principles on Artificial Intelligence (2019, updated 2024). oecd.ai

III. Sudlov amaliyoti

7. ECHR. Big Brother Watch and Others v. the United Kingdom, No. 58170/13, 25 May 2021. hudoc.echr.coe.int
8. NHTSA. Automated Vehicles for Safety. U.S. Department of Transportation. nhtsa.gov

IV. Ilmiy maqolalar



9. Doshi-Velez F., Kortz M. Accountability of AI Under the Law. Harvard, 2017. ssrn.com
10. Floridi L. et al. An Ethical Framework for a Good AI Society. *Minds and Machines*, 28(4), 2018. doi.org
11. Calo R. Artificial Intelligence Policy: A Primer. *UC Davis Law Review*, 51, 2017. lawreview.ucdavis.edu

V. Elektron manbalar

12. O'zbekiston Qonunchilik ma'lumotlari tizimi: lex.uz
13. Stanford AI Index 2024: aiindex.stanford.edu
14. World Bank Governance Indicators 2023: worldbank.org
15. OECD.AI Policy Observatory: oecd.ai



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA AKSIOLOGIK BIRLIKLARNI O'QITISHNING LINGVOMADANIY VA METODIK ASOSLARI

(Tezis)

Sobirjonova Marjona

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Islomova Zahro

Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti Katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi ingliz va o'zbek tillaridagi aksiologik (qadriyat ifodalovchi) birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni chet tili darslarida o'qitishning metodik asoslari yoritilgan. Til va madaniyat integratsiyasi orqali talabalarning sotsiomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Aksiologik birliklar — xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va hissiy-qiyamatli munosabatlarini aks ettiruvchi leksik va frazeologik birliklardir. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansubligi, turli madaniy va diniy an'analarga ega ekanligi bu birliklarning semantik va konnotativ farqlarini keltirib chiqaradi. Maqolada paremiologik birliklar (maqol va matallar), konnotativ leksika va pragmatik birliklar misolida qiyosiy tahlil olib borilgan. Shuningdek, aksiologik birliklarni o'qitishning interfaol metodlari — loyiha ishi, rolli o'yinlar, madaniy skriptlar va kontrastiv tahlil vazifalari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari aksiologik birliklarni tizimli o'rgatish talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: aksiologiya, lingvokulturologiya, qadriyat, paremiologiya, konnotatsiya, metodika, madaniyatlararo muloqot, sotsiomadaniy kompetensiya, kontrastiv tahlil.

This thesis discusses the linguocultural characteristics of axiological (value-expressing) units in English and Uzbek and the methodological foundations of their teaching in foreign language classes. The issues of developing students' sociocultural competence through the integration of language and culture are analyzed. Axiological units are lexical and phraseological units that reflect the worldview, moral standards, and emotional-value relationships of the people. The fact that the English and Uzbek languages belong to different language families and have



different cultural and religious traditions causes semantic and connotative differences in these units. The article conducts a comparative analysis using the example of paremiological units (proverbs and sayings), connotative lexis, and pragmatic units. Interactive methods of teaching axiological units are also proposed - project work, role-playing games, cultural scripts, and contrastive analysis tasks. The results of the study show that systematic teaching of axiological units significantly increases students' intercultural communication competence.

Keywords: axiology, linguoculturology, value, paremiology, connotation, methodology, intercultural communication, sociocultural competence, contrastive analysis.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslik va til o'qitish metodikasida tilni madaniyatning tarkibiy qismi sifatida o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Har bir til o'z so'zlovchilarining qadriyatlar tizimini, axloqiy me'yorlarini va dunyoni idrok etish uslubini aks ettiradi. Aynan shuning uchun chet tilini o'rgatishda faqat grammatik qoidalar va lug'at boyligini emas, balki shu tilda ifodalangan qadriyatlarni ham o'qitish talab etiladi. Aksiologik birliklar — ijobiy yoki salbiy bahoni, qadriyatga asoslangan munosabatni ifodalovchi til birliklaridir. Ular sinonimik qatorlarda, frazeologizmlarda, paremiyalarda va konnotativ ma'noga ega so'zlarda namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy jihatdan o'rganilganda, aksiologik birliklar semantikasida tub farqlar mavjudligi aniqlanadi. Masalan, freedom (erkinlik) ingliz tilida individual huquqlar va shaxsiy mustaqillik bilan bog'liq bo'lsa, ozodlik o'zbek tilida milliy istiqlol va jamoa erkinligi konnotatsiyasiga ega. Yoki pride so'zi ingliz tilida asosan ijobiy baholansa, unga eng yaqin o'zbekcha takabburlik salbiy qadriyatga ega. Bunday farqlarni bilmagan talaba madaniyatlararo muloqotda pragmatik xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

Ushbu tezisning maqsadi — ingliz va o'zbek tillaridagi aksiologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash va ularni o'qitishning samarali metodik tamoyillarini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aksiologik tilshunoslikning nazariy asoslari N.D. Arutyunova (1999), V.I. Karasik (2002), Ye.M. Volf (1985) kabi olimlarning ishlarida yoritilgan. Ular baholash komponentini so'z ma'nosining ajralmas qismi deb hisoblaydi. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish N. Mahmudov (2013), M. Mirtojiyev (2010), Sh. Safarov (2017) tomonidan rivojlantirilgan. Xususan, N. Mahmudov til va milliy qadriyatlar munosabatini o'rganib, har bir tilda "o'ziga xos dunyo manzarasi" mavjudligini ta'kidlaydi. Paremiologik tadqiqotlar (Permyakov, 1988; Mamatov, 2012) shuni ko'rsatadiki, maqol va matallar xalqning qadriyatlar tizimini eng ixcham va obrazli ifodalaydi. Ingliz paremiologiyasida Time is money, Honesty is the best policy kabi pragmatik



qadriyatlar ustunlik qilsa, o'zbek paremiologiyasida Sabr — oltin, Mehnat baxt keltirar, Ota-ona — ulug' martaba kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar yetakchi o'rinda turadi. Metodik jihatdan, sotsiomadaniy kompetensiya (Safonova, 2001; Byram, 1997) chet tilini o'z egasining madaniyati bilan birga o'rgatishni talab qiladi. Ammo ingliz va o'zbek tillari kontekstida aksiologik birliklarni o'qitishga bag'ishlangan maxsus metodik tadqiqotlar yetarli emas.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: 1. Qiyosiy-chog'ishtirma tahlil — ingliz va o'zbek tillaridagi aksiologik birliklarning semantik va konnotativ xususiyatlari aniqlash uchun. Material sifatida badiiy adabiyot, matbuot va paremiologik lug'atlardan olingan 200 dan ortiq birlik tahlil qilindi.

2. So'rovnoma — Shahrisabz davlat pedagogika institutining 30 nafar ingliz filologiyasi talabalari o'rtasida aksiologik birliklarni tushunish va qo'llash darajasini aniqlash uchun o'tkazildi.

3. Pedagogik kuzatuv — 3 ta eksperimental darsda aksiologik birliklarni o'qitishning taklif etilgan metodlari sinovdan o'tkazildi.

4. Komponent tahlil — so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolarini ajratish uchun qo'llanildi.

NATIJALAR

4.1. Ingliz va o'zbek tillaridagi aksiologik birliklarning tipologiyasi

So'rovnoma natijalari:

- 70% talabalar aksiologik birliklarni tarjima qila oladi, ammo madaniy konnotatsiyasini tushuntira olmaydi.
- 55% ambitious so'zining ingliz tilida ijobiy, o'zbek tilida esa takaabur (salbiy) ma'nosida qabul qilinishini bilmaydi.
- 80% talabalar qadriyat lug'atini madaniy kontekstda o'rganishga qiziqish bildirgan.
- Eng ko'p xatolar loyalty (sadoqat), charity (xayriya), privacy (shaxsiy daxlsizlik) kabi tushunchalarni talqin qilishda kuzatilgan.

4.4. Taklif etilayotgan metodik tamoyillar

Eksperimental darslar natijasida quyidagi tamoyillarning samaradorligi isbotlandi:p



1. Kontrastiv semantik tahlil — o'xshash, ammo bir-biriga to'g'ri kelmaydigan aksiologik birliklarni solishtirish (freedom — ozodlik, pride — g'urur/takabburlik).
2. Kontekstli immersiya — badiiy parchalar, kinodialoglar, reklama va ommaviy axborot vositalari misolida aksiologik birliklarni o'rganish.
3. Qadriyatlarni aniqlash mashqlari — dilemmalar muhokamasi: "Har doim halol bo'lish kerakmi?", "Ingliz tilidagi success va o'zbek tilidagi muvaffaqiyat tushunchalari qanday farq qiladi?"
4. Loyiha asosidagi o'qitish — talabalar ingliz va o'zbek maqollarining qiyosiy lug'atini tuzadilar yoki "Qadriyatlar xaritasi"ni yaratadilar.
5. Rolli o'yinlar va madaniy skriptlar — turli madaniy vaziyatlarda aksiologik birliklardan to'g'ri foydalanishni mashq qilish.
6. Korpus asosidagi misollar — aksiologik birliklarning real nutqdagi chastotasi va kolokatsiyalarini ko'rsatish. Eksperimental guruhda (15 talaba) an'anaviy metod bilan o'qitilgan nazorat guruhiga (15 talaba) nisbatan aksiologik birliklarni to'g'ri tushunish va qo'llash ko'rsatkichi 35% ga yuqori bo'ldi.

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko'rsatadiki, aksiologik birliklar oddiy sinonimlar emas, balki muayyan madaniyatga xos konseptlardir. Ularni o'qitish lug'aviy tarjimadan tashqari, chuqur lingvomadaniy tahlilni talab qiladi. Ingliz va o'zbek tillari misolida bu farqlar ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi: ingliz tili individualizm, pragmatizm va shaxsiy yutuq qadriyatlariga asoslangan bo'lsa, o'zbek tilida jamoviylik, ma'naviy poklik, kattalarni hurmat qilish va diniy qadriyatlar yetakchi o'rinda turadi. An'anaviy grammatik tarjima metodi yoki faqat kommunikativ yondashuv bu farqlarni e'tiborsiz qoldirgani uchun pragmatik xatolarga olib keladi. Taklif etilgan lingvomadaniy yondashuv tilni madaniy qadriyatlar tizimi bilan birga o'rgatish orqali bu kamchilikni bartaraf etadi. Shuningdek, tadqiqotda paremiologik birliklar aksiologik tahlil uchun eng qulay material ekanligi aniqlandi. Maqollar ixchamligi, obrazlilik va avtoritetga ega (xalq donoligi) bo'lgani uchun talabalar ularni oson eslab qoladi va qadriyatlar farqini tushunadi. Tadqiqotning cheklovlari: kichik namuna (30 talaba), faqat bir institut doirasida o'tkazilganligi. Kelgusida turli bosqichdagi talabalar ishtirokida uzoq muddatli eksperiment o'tkazish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAVSIYALAR



Aksiologik birliklar ingliz va o'zbek tillarini qadriyatlar tizimi sifatida o'zlashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Ularni samarali o'qitish quyidagilarni talab qiladi:

1. Qadriyat terminlari va ularning konnotatsiyalarini eksplitsit (aniq, ochiq) solishtirish.
2. Haqiqiy madaniy vaziyatni aks ettiruvchi autentik materiallardan foydalanish.
3. Faqat leksik bilim emas, balki tanqidiy madaniy ongni rivojlantiruvchi topshiriqlar.
4. Aksiologik birliklarni tematik modullar asosida o'qitish (masalan, "Oilaviy qadriyatlar", "Mehnat va muvaffaqiyat", "Do'stlik va sadoqat").
5. Baholash tizimiga aksiologik kompetensiyani tekshiruvchi topshiriqlarni kiritish (vaziyatli testlar, esselar, loyihalar).

O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishda lingvomadaniy yondashuvni joriy etish talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini oshiradi va noto'g'ri tushunishlarning oldini oladi. Kelgusida o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalar uchun kontrastiv aksiologik birliklar lug'ati va o'quv qo'llanmasini yaratish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arutyunova, N. D. (1999). *Yazyk i mir cheloveka*. Moskva: Yazyki russkoy kultury.
2. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters.
3. Karasik, V. I. (2002). *Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs*. Volgograd: Peremena.
4. Mahmudov, N. (2013). *Tilning mukammal sirlari*. Toshkent: Akademnashr.
5. Mamatov, A. (2012). *O'zbek va ingliz tillari paremiologiyasining qiyosiy tahlili*. Toshkent: Fan.
6. Mirtojdiyev, M. (2010). *O'zbek tili semasiologiyasi*. Toshkent: Mumtoz so'z.
7. Permyakov, G. L. (1988). *Osnovy strukturnoy paremiologii*. Moskva: Nauka.
8. Safarov, Sh. (2017). *Pragmalingvistika*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
9. Safonova, V. V. (2001). *Sotsiokulturny podkhod k obucheniyu inostrannym yazykam*. Moskva: Vysshaya shkola.
10. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures through Their Key Words*. Oxford: Oxford University Press.
11. Volf, Ye. M. (1985). *Funksionalnaya semantika otsenki*. Moskva: Nauka.



ZEBO MIRZONING HAYOT YO'LI VA SHE'RLARINING ASOSIY G'OYAVIY MAVZULARI

Normirzayeva Zuxra Rustam qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoira Zebo Mirzoning hayot yo'li hamda ijodidagi asosiy g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishlar tahlil qilinadi. Uning she'rlarida insoniy kechinmalar, muhabbat, ayol qalbi, milliy qadriyatlar, Vatanga sadoqat va ruhiy izlanishlar badiiy ifodasi yoritiladi. Shoiraning poetik mahorati, obrazlilik tizimi va zamonaviy o'zbek she'riyatidagi o'zni ilmiy asosda baholanadi.

Kalit so'zlar: Zebo Mirzo, o'zbek she'riyati, ayol lirika, g'oyaviy mavzu, muhabbat, Vatan, milliy qadriyatlar, poetik obraz, badiiy ifoda, ruhiy kechinmalar, zamonaviy she'riyat, lirik qahramon, ijodiy uslub, badiiy mahorat, hayotiy falsafa.

Abstract: This article analyzes the life path of poet Zebo Mirzo and the main ideological and thematic directions of her poetry. The study highlights the artistic expression of human emotions, love, a woman's inner world, national values, devotion to the homeland, and spiritual reflections. The poet's artistic mastery, imagery system, and place in modern Uzbek poetry are scientifically evaluated.

Keywords: Zebo Mirzo, Uzbek poetry, women's lyric poetry, ideological themes, love, homeland, national values, poetic image, artistic expression, spiritual experiences, modern poetry, lyrical hero, creative style, artistic mastery, life philosophy.

Аннотация: В данной статье анализируются жизненный путь поэтессы Зебо Мирзо и основные идейно-тематические направления её поэзии. Освещается художественное отражение человеческих переживаний, любви, внутреннего мира женщины, национальных ценностей, преданности Родине и духовных исканий. Научно оцениваются поэтическое мастерство, система образов и место поэтессы в современной узбекской поэзии.

Ключевые слова: Зебо Мирзо, узбекская поэзия, женская лирика, идейная тематика, любовь, Родина, национальные ценности, поэтический образ, художественное выражение, духовные переживания, современная поэзия, лирический герой, творческий стиль, художественное мастерство, философия жизни.



Zebo Mirzo 1970-yil 15-dekabrda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida tug'ilgan. Uning bolalik yillari tabiat bilan uyg'unlikda o'tganligi keyinchalik she'riyatidagi panteistik va metaforik obrazlar tizimiga asos bo'lgan. [Haqqulov, I. Ishqqa sadoqat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – B. 45.] Shoira 1993-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetini tamomlagan. Uning kasbiy faoliyati bevosita ijodiy muhit bilan bog'liq bo'lib, quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan: O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi: "Yoshlar" teleradiokanalida uzoq yillar muharrir va sharhlovchi sifatida faoliyat yuritgan [O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 10-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 212.].

Nashriyot sohasida ham hozirgi kunda "Yangi asr avlodi" nashriyot-matbaa markazida bosh muharrir lavozimida faoliyat yuritmoqda. Zebo Mirzo adabiyotga 90-yillarning boshida kirib keldi. Uning hayot yo'lidagi muhim xronologik bosqichlar uning kitoblari nashr etilishi bilan belgilanadi. 1994- yili ilk she'riy to'plami — "Tun malagi" nashr etildi va adabiy jamoatchilikda shov-shuv uyg'otdi.[Jo'raqulov, U. Nazm va nazzora. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 89.] 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshida Zebo Mirzoning "Yoshlar" teleradiokanalidagi faoliyati uning ijodiy shaxsiyati uchun muhim "laboratoriya" vazifasini o'tadi. U televideniya ishlar jarayonida milliy adabiyotimizning yetakchi namoyandalari (Ertug'ul, Rauf Parfi va b.) bilan doimiy muloqotda bo'ldi. Bu davrda uning she'rlarida publitsistik o'tkirlik va lirik noziklik sintezi paydo bo'ldi. Uning ko'rsatuvlari orqali ko'plab yosh ijodkorlar adabiyotga kirib keldi, bu esa uning jamoatchilik orasidagi nufuzini oshirdi. [Qurbonova, M. O'zbek ayol shoiralari ijodida lirik qahramon muammosi. – Toshkent: "Fan", 2019. – B. 112.]. 2004-yili shoira uning lirik qahramoni ma'naviy olamini aks ettiruvchi "Ishq" saylanmasi dunyo yuzini ko'rdi. Bu davrda shoira hayotida tasavvufiy qarashlar va badiiy mahorat uyg'unligi kuzatiladi. 2010-yili "Nur kukunlari" to'plami nashr etildi. Bu kitob metaforik obrazlar talqini bo'yicha yangi bosqich sifatida baholandi.[Hamdamova, M. Hozirgi o'zbek she'riyatida ayol ruhiyati talqini. (Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati). – Samarqand, 2018. – B. 18.] Zebo Mirzo 2011-yildan hozirgacha "Yangi asr avlodi" nashriyatida faoliyat ko'rsatish jarayonida "Yo hay!" to'plami dunyoga keladi va unga bosh muharrirlik maqomini qo'lga kiritadi [Haqqulov, I. She'riyat – ruhiy munosabat. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. – B. 204.] Uning bosh muharrirligida nashr etilayotgan jahon adabiyoti namunalari o'zbek tilining boy imkoniyatlarini ko'rsatib bermoqda. 2022-yilda unga berilgan "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni uning o'ttiz yillik uzluksiz va samarali ijodiy hamda ijtimoiy mehnatining mantiqiy yakuni bo'ldi. [Prezident Farmoni, 2022-yil 24-avgust. "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz bir yilligi munosabati bilan..."]. O'zbekiston



Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoni bilan taqdirlandi. ["O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2022-yil 26-avgust soni.]

Zebo Mirzo she'rlarining asosiy mavzulari.

Zebo Mirzo she'riy merosi zamonaviy o'zbek lirik adabiyoti rivojida o'ziga xos bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Uning ijodiy faoliyati an'anaviy Sharq she'riyati elementlari hamda G'arb modernistik tafakkurining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllangan. Quyida shoira she'riyatining yetakchi mavzuviy qatlamlari ilmiy va tizimli tarzda tahlil etilgan.

Shoira ijodini o'rgangan tadqiqotchilar (I. Haqqulov, Q. Yo'ldoshev) uning she'riyatida lirik qahramonning "men" konsepsiyasi va borliqni idrok etish usuli quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishda aks etishini qayd etadilar: Ishqning falsafiy va tasavvufiy sharhi. Zebo Mirzo uchun ishq oddiy tuyg'u emas, balki ruhiy kamolotning oliy darajasidir. Uning she'rlarida ishqiy holatlar ko'pincha insoniy muhabbatdan ilohiy idrok sari bosqichma-bosqich yuksalish jarayonini ifodalaydi. Ishq hijron va iztirob orqali ruhiy poklanish vositasi sifatida talqin qilinadi. Uning she'rlaridagi obrazlar: olov, kul, sham, kosa, may kabi timsollar mumtoz adabiyotdagi ma'nolarini saqlagan holda, shoira ijodida yangicha ruhiy-psixologik mazmun bilan boyitilgan. [Haqqulov I. Ishqqa sadoqat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – B. 45.]

Ayol ruhiyati va individual "Men" (Psixologizm)

Shoira o'zbek ayolining ichki dunyosini "tashqi ijtimoiy qoliplar"dan xoli tarzda tasvirlaydi. Uning lirik qahramoni o'z erki, dardlari va sog'inchlari bilan yolg'iz qolgan ayoldir.

Tahlil: Zebo Mirzo she'riyatidagi ayol — ojiza emas, balki o'z tuyg'ulariga sodiq, isyonkor va ayni paytda nihoyatda nozik xilqat. Undagi yolg'izlik tuyg'usi tushkunlik emas, balki o'zlikni anglash sukunatidir [Jo'raqulov U. Nazm va nazzora. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2011. – B. 89-94.].

Yakuniy xulosa qilib, Zebo Mirzo — zamonaviy o'zbek she'riyatining "Tun malagi" va "Nur elchisi" sifatida namoyon bo'ladi. Uning she'rlari o'quvchini tashqi borliqdan ajratib, o'z qalbining ichki olamiga nazar tashlashga undaydi. Uning ijodi — borliqning qattiqligini yumshata oladigan nozik "Nur kukunlari" singari bo'lib, kitobxon qalbiga sekin, ammo chuqur singib boradi. Uning asarlarida ko'tarilgan barcha mavzular oxir-oqibat bitta haqiqatga — Inson ruhining abadiy va cheksiz erkinligiga olib keladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqqulov, I. Ishqqa sadoqat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – B. 45.
2. Hamdamova, M. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida ayol ruhiyati talqini. (Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 10-jild. – Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 212.
4. Jo‘raqulov, U. Nazm va nazzora. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 89.
5. "O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati" gazetasi, 2022-yil 26-avgust soni.
6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 10-jild. – Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 212.



MAKTABGACHA TA'LIMNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Miryusupova Nargiza Shavkatovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

"Maktabgacha ta'lim menejmenti" kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda kuzatilayotgan zamonaviy tendensiyalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, raqamli transformatsiya, inson resurslarini strategik boshqarish, sifat menejmenti, inklyuzivlik va xalqaro tajribaning integratsiyasi kabi yo'nalishlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish omillari sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshqaruv, strategik menejment, raqamli transformatsiya, inson resurslari, sifat menejmenti, inklyuziv ta'lim.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida har bir bolaning hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga zamonaviy globallashtirish sharoitida maktabgacha ta'lim tizimi nafaqat pedagogik, balki boshqaruv jihatdan ham tubdan yangilanishni talab etmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida yuritilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ham aynan sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlab berishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarish bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ular uchun sifatli va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish hamda inson kapitalini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruvning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy tendensiyalar deganda biz nimani tushunishimiz kerak? Tendensiya (lot. tendo — yo'naltiraman, intilaman, talablar) — bu ma'lum bir sohadagi rivojlanishning asosiy yo'nalishi yoki biror hodisaning barqaror ravishda ma'lum bir tomonga o'zgarishi. Oddiyroq qilib aytganda, tendensiya — bu "jarayon qayoqqa qarab ketyapti?", bugunning talablari" degan savolga javob berishdir. Bugungi kunda maktabgacha ta'limni boshqarishda ham bir qator tendensiyalar kuzatilmoqda. Ular quyidagi ustuvor yo'nalishlar orqali ifodalanadi:

so'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy vositasiga aylandi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-



tadbirlari to'g'risida" 848-son Qarori qabul qilindi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda qo'llanilayotgan turli elektron boshqaruv platformalari (masalan, "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi, Edo.ijro.uz, elektron kundaliklar, ma'lumotlar bazalari) qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, shaffoflikni ta'minlaydi va boshqaruvning analitik asoslarini mustahkamlaydi.

An'anaviy operativ boshqaruvdan strategik boshqaruvga o'tish zamonaviy tendensiyalardan biridir. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishini ishlab chiqiladi, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsiyalar joriy yetiladi, tashkilot missiyasi shakllantiriladi, har bir yo'nalishni rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilib, amalga oshirilgan ishlarning strategik monitoringi o'tkaziladi. MTTning zamonaviy menejeri nafaqat tashkilotchi, balki sohada bo'layotgan har qanday o'zgarishlarga, turbulent holatlarda "Labbay" deb javob beruvchi, o'zgarishlarga tezlik bilan moslashuvchan, innovatsiyalar tashabbuskori bo'lishi lozim. Zamonaviy fikrlovchi rahbar SWOT-tahlil, Ansoff matritsasi, risk-menejment kabi vositalar asosida uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari ishlab chiqish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim, bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy boshqaruvda inson resurslari asosiy kapital sifatida qaralmoqda. Pedagog va xodimlarning kompetensiyalarini rivojlantirish, KPI asosida baholash, motivatsiya tizimlarini joriy etish orqali mehnat unumdorligi oshiriladi. Direktorning HR-menejer sifatidagi roli kuchayib bormoqda. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining HR-menejer sifatida bajarishi lozim bo'lgan bir qator funksiyalar mavjud bo'lib, bu funksiyalarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitib borish orqali ularning bilimlari boyitilib, jamoani ma'muriy boshqaruvchisidan jamoani qo'llab-quvvatlovchi, ularni rivojlantiruvchi asosiy shaxs sifatida gavdalanmoqda.

Ta'lim sifatini ta'minlashda xalqaro standartlar (masalan, Total Quality Management – TQM tamoyillari) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijaga yo'naltirilgan boshqaruv modeli asosida monitoring va baholash tizimlari takomillashtirilmoqda.

Sog'lom jamiyatda har bir bolaga bir xil munosabatni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Zamonaviy ta'lim siyosatida barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Shu bois boshqaruv tizimi inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar bilan boyitilmoqda. Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limni joriy etilganligi davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan qo'llab-quvvatlanmoqda, shu bilan birga alohida ta'limga ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash, oson moslashishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.



Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va milliy tizimga moslashtirish boshqaruvni modernizatsiya qilishning muhim omili hisoblanadi. Bu jarayon innovatsion pedagogik va boshqaruv texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevralda qabul qilingan «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi 22-son Farmonida maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Mana shu maqsaddan kelib chiqqan holda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (DXSH va oilaviy)ni o'quv-metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim bilan qamrovni aholining demografik o'sish ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda amaldagi 78 foiz darajasida saqlab qolish asosiy ko'rsatkich sifatida belgilangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytshimiz mumkinki, bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish yangi bosqichga o'tilganligini yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy tendensiyalari tizimning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Raqamli transformatsiya, strategik menejment, inson resurslarini samarali boshqarish va inklyuziv yondashuv asosida tashkil etilgan boshqaruv modeli ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois mazkur yo'nalishlarni ilmiy asosda rivojlantirish va amaliyotga keng joriy etish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi 595-son Qonuni. –O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi 22-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 4312-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019.
4. Pardayev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot dunyosi, 2019.-292 bet.
5. Fayzullayeva N.S., Gulboyev K.R. Ta'lim tizimida strategik boshqaruvning amaliy jihatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, iyul, 2012-yil.
6. Kattakishiyev V., Mamayusupov I. Strategik menejment fanidan praktikum. - T., “Fan va texnologiya”, 2008, 232 bet



ORGANIZMLARDA ELEKTR TOKI: BIOFIZIK ASOSLAR, ION MEXANIZMLAR VA KLINIK INTEGRATSIYA

p.f.f.d, PhD, dotsent. Buzrukov To'liqin Omonovich

Email: tolqinbuzrukov5@gmail.com

Bahodirova Iroda

Abstract

Organizmlarda elektr toki bioelektrik hodisalar orqali hujayra faoliyatini, nerv impulslarini uzatishni va mushak qisqarishini boshqaruvchi asosiy mexanizmlardan biridir. Ushbu tadqiqotning maqsadi hujayra membranasidagi ion gradientlari, elektrokimyoviy potentsiallar va ion kanallari faoliyati asosida bioelektrik jarayonlarning shakllanishini chuqur tahlil qilishdan iborat. Natijalar shuni ko'rsatadiki, membrana potentsiali Na^+ , K^+ , Ca^{2+} va Cl^- ionlarining konsentratsiya gradientlari va selektiv o'tkazuvchanlik xususiyatlariga bog'liq holda yuzaga keladi. Harakat potentsiali depolyarizatsiya va repolyarizatsiya bosqichlari orqali shakllanib, nerv tolalari bo'ylab saltator yoki uzluksiz tarzda tarqaladi. Ushbu jarayonlarning buzilishi yurak aritmiyalari, epilepsiya, neyromushak kasalliklari va metabolik buzilishlar patogenezida muhim rol o'ynaydi. Bioelektrik hodisalar organizmning integrativ funksiyalarini ta'minlovchi universal mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Keywords

Bioelektrik tok, membrana potentsiali, harakat potentsiali, ion gradienti, Na^+/K^+ -ATFaza, depolyarizatsiya, repolyarizatsiya, kanalopatiya, elektrofiziologiya

Introduction

Tirik organizmlarda elektr toki mavjudligi biofizikaning fundamental tamoyillaridan biri bo'lib, u hujayra darajasidan tortib butun organizm tizimlarining funksional integratsiyasigacha bo'lgan jarayonlarni boshqaradi. Bioelektrik hodisalar hujayra membranasini orqali ionlarning selektiv o'tishi natijasida yuzaga keladi va bu jarayon elektrokimyoviy gradientlarga asoslanadi.

Hujayra membranasini yarim o'tkazuvchan tuzilma bo'lib, ionlar uchun selektiv o'tkazuvchanlikka ega. Na^+/K^+ -ATFaza nasosi yordamida Na^+ ionlari hujayradan tashqariga chiqarilib, K^+ ionlari ichkariga olib kiriladi. Natijada hujayra ichida manfiy zaryad ustunligi yuzaga keladi va bu holat tinchlik membrana potentsialini shakllantiradi.

Elektr hodisalari ayniqsa qo'zg'aluvchan to'qimalarda — nerv va mushak hujayralarida — muhim ahamiyatga ega. Bu hujayralarda elektr potentsialining tez o'zgarishi natijasida harakat potentsiali yuzaga keladi va bu signal uzatishning asosiy shakli hisoblanadi.

Materials and Methods



Mazkur tadqiqot zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida tizimli tahlil usulida amalga oshirildi. PubMed, Scopus va Web of Science bazalarida chop etilgan elektrofiziologiya, biofizika va klinik nevrologiya sohasidagi maqolalar o'rganildi.

Bioelektrik jarayonlarni o'rganishda quyidagi usullar asosiy hisoblanadi:

- Patch-clamp texnikasi orqali ion kanallari oqimini o'lchash
- Elektrokardiografiya (EKG) orqali yurak bioelektrik faoliyatini tahlil qilish
- Elektroensefalografiya (EEG) orqali miya impulslerini yozib olish
- Elektromiografiya (EMG) orqali mushak faolligini baholash

Ion oqimlari va membrana potensialini aniqlashda Nernst va Goldman tenglamalari asosiy nazariy asos sifatida qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash va analitik tahlil usullari orqali umumlashtirildi.

Results

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, organizmlarda elektr toki hosil bo'lishining asosiy manbai ionlarning elektrokimyoviy gradient asosida membrana orqali harakatlanishidir. Tinchlik holatida hujayra membranasi potentsiali odatda -70 mV atrofida bo'ladi va bu asosan K^+ ionlarining chiqishi bilan belgilanadi.

Harakat potentsiali paytida Na^+ kanallari ochilib, Na^+ ionlari hujayra ichiga tez kiradi, natijada depolyarizatsiya yuzaga keladi. Keyinchalik K^+ kanallari ochilib, K^+ ionlari tashqariga chiqadi va repolyarizatsiya sodir bo'ladi. Ushbu jarayon vaqt bo'yicha juda qisqa — millisekundlar darajasida amalga oshadi.

Miyelinli nerv tolalarida impuls saltator tarzda, ya'ni Ranvye tugunlari orasida "sakrab" tarqaladi, bu esa signal tezligini keskin oshiradi. Miyelinsiz tolalarda esa impuls uzluksiz tarqaladi.

Ca^{2+} ionlari ayniqsa yurak mushagi va sinaptik uzatishda muhim rol o'ynaydi. Ular mediator ajralishini va mushak qisqarishini boshqaradi.

Discussion

Bioelektrik jarayonlar organizmning barcha tizimlarida muhim integrativ rol o'ynaydi. Nerv tizimida elektr impulslar yuqori tezlikda axborot uzatishni ta'minlaydi. Mushak tizimida esa elektr signal mexanik energiyaga aylantiriladi.

Yurakda bioelektrik hodisalar ritmik faoliyatni ta'minlaydi. Sinoatrial tugun avtomatizm xususiyatiga ega bo'lib, u yurak ritmini belgilaydi. Ion kanallarining disfunktsiyasi yurak aritmiyalariga olib keladi.

Epilepsiyada neyronlarning giperqo'zg'aluvchanligi ortiqcha elektr impulslar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Neyromushak kasalliklarida esa impuls uzatilishi buziladi.



Bioelektrik hodisalar diagnostik vosita sifatida ham muhim. EKG, EEG va EMG klinik amaliyotda keng qo'llaniladi va kasalliklarni aniqlashda asosiy rol o'ynaydi.

Conclusion

Organizmlarda elektr toki hujayra darajasidagi ion almashinuvi asosida shakllanadi va organizmning barcha funksional tizimlarini boshqaradi. Membrana potentsiali va harakat potentsiali bioelektrik jarayonlarning asosini tashkil etadi. Ushbu jarayonlarning buzilishi ko'plab patologik holatlarning rivojlanishiga olib keladi. Bioelektrik mexanizmlarni chuqur o'rganish klinik diagnostika va davolashni takomillashtirish imkonini beradi.

References

1. Hille B. (2001). Ion Channels of Excitable Membranes.
2. Kandel E.R. et al. (2021). Principles of Neural Science.
3. Guyton A.C., Hall J.E. (2020). Medical Physiology.
4. Purves D. (2018). Neuroscience.
5. Bers D.M. (2002). Cardiac excitation-contraction coupling. *Nature*
6. Hodgkin A.L., Huxley A.F. (1952). Membrane current studies. *Journal of Physiology*
7. Johnston D. (1995). Cellular Neurophysiology
8. Bear M.F. (2016). Neuroscience



ZAMONAVIY KIMYO TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISHI VA SANOATGA TA'SIRI.

Bo'riyeva Muhabbat Mamayusuf qizi

Termiz Davlat Universiteti

Annotatsiya. Zamonaviy kimyo texnologiyalari sanoatning turli tarmoqlarida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada kimyo texnologiyalarining so'nggi yillarda rivojlanishi, yangi yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va ularning sanoatga ta'siri tahlil qilinadi. Kimyo sanoati texnologik rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib, yangi materiallar, ekologik toza ishlab chiqarish usullari, energiya tejash texnologiyalari va qayta ishlash tizimlarini ishlab chiqish orqali global muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada kimyo sanoatidagi rivojlanishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy kimyo texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, kimyo sanoati, ekologik toza texnologiyalar, energiya tejash, materialshunoslik.

Kirish. Kimyo texnologiyalari insoniyatning tarixiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. 19-asrning oxiridan boshlab kimyo sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib, hozirda uning asosiy tarmoqlari energiya, materiallar ishlab chiqarish, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni himoya qilishga yo'naltirilgan. Zamonaviy kimyo texnologiyalari, ayniqsa, ekologik xavfsizlik, resurslarni tejash, yangi materiallar yaratish va energiya samaradorligini oshirish masalalariga e'tibor qaratadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat sanoat jarayonlarining samaradorligini oshirishga, balki atrof-muhitni himoya qilishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy kimyo texnologiyalarining rivojlanishi ham yangi materiallar, metodlar va jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular sanoatning ko'plab sohalarida yangiliklar yaratmoqda. Kimyo texnologiyalarining rivojlanishi sanoatni yanada ekologik xavfsizroq va samarali qilishga qaratilgan. Bu texnologiyalar nafaqat sanoat, balki kundalik hayotda ham ijobiy o'zgarishlar yaratadi, chunki ular resurslarni samarali ishlatish va chiqindilarni kamaytirishda yordam beradi.

Metodologiya. Ushbu maqolada kimyo texnologiyalarining rivojlanishi va sanoatga ta'siri tahlil qilish uchun ilmiy maqolalar, sanoat tahlillari, texnologik yangiliklar va amaliy tajribalarga asoslangan manbalar to'plandi. Yangi texnologiyalar, ularning ishlab chiqarish jarayonlariga qo'llanilishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlari haqida mavjud ma'lumotlar



to'plandi. Tahlilning asosiy yo'nalishlari kimyo texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ekologik xavfsizlik, energiya tejash va sanoatdagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar.

Natijalar. Kimyo texnologiyalarining rivojlanishi va innovatsion yondashuvlar. Kimyo sanoatidagi zamonaviy texnologiyalar ko'plab innovatsion yondashuvlarni taqdim etadi. Ushbu texnologiyalarni ishlab chiqishda, birinchi navbatda, ekologik xavfsizlik va energiya samaradorligi masalalari ko'rilmoqda. Misol uchun, zamonaviy katalizatorlar yordamida kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirish, chiqindilarni kamaytirish va chiqindilardan qayta foydalanish texnologiyalari ishlab chiqilgan. Bunday texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishga, balki atrof-muhitni ifloslanishidan saqlashga ham yordam beradi.

Kimyo texnologiyalari rivojlanishida energiya tejash texnologiyalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Kimyo sanoatida energiya iste'moli yuqori bo'lishi sababli, yangi texnologiyalar energiya sarfini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni ta'minlaydi. Misol sifatida, bioyoqilg'ilarni ishlab chiqarish texnologiyalari va quyosh energiyasi asosida ishlaydigan kimyo jarayonlari keltiriladi. Bu texnologiyalar kimyo sanoatining ekologik ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Yangi materiallar va sanoatdagi qo'llanilishi. Kimyo sanoatidagi yangi materiallar ishlab chiqarish texnologiyalari tez rivojlanmoqda. Zamonaviy materiallar, masalan, nano-materiallar, kompozit materiallar, bioyolg'ilar va biologik parchalanadigan plastiklar sanoatda keng qo'llanilmoqda. Ushbu materiallar yuqori sifatli va engil bo'lib, energiya samaradorligini oshiradi va atrof-muhitga kam ta'sir qiladi. Kimyo texnologiyalarining rivojlanishi yangi materiallar yaratishda muhim ahamiyatga ega, chunki ular ishlab chiqarishning samaradorligini oshiradi, mahsulotlar sifatini yaxshilaydi va ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtiradi.

Sanoatning ekologik xavfsizligi va chiqindilarni boshqarish. Zamonaviy kimyo texnologiyalari ekologik xavfsizlikka katta e'tibor qaratadi. Kimyo sanoatining bir nechta tarmog'ida chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish orqali ekologik ta'sirni kamaytirish mumkin. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash va biotexnologiyalarga asoslangan texnologiyalar sanoatdagi chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlashni samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Yangi texnologiyalar chiqindilardan to'g'ri foydalanish va ular bilan ishlashni ekologik xavfsiz usulda bajarishga yordam beradi.



Muhokama. Zamonaviy kimyo texnologiyalarining rivojlanishi sanoatning ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali qilish va chiqindilarni kamaytirishda yordam beradi. Biroq, bu texnologiyalarni keng miqyosda qo'llashda ekologik xavfsizlikka e'tibor qaratish muhimdir, chunki noto'g'ri texnologiyalarning qo'llanishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, kimyo texnologiyalarini ishlab chiqishda ilmiy tadqiqotlar va sinovlar muhim ahamiyatga ega.

Kimyo sanoati texnologik rivojlanishning markaziy omillaridan biridir, va uning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik xavfsizlikni ham ta'minlaydi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, sanoatni yanada ekologik toza va samarali qilishda asosiy rol o'ynaydi.

Xulosa. Zamonaviy kimyo texnologiyalarining rivojlanishi sanoatni yanada samarali va ekologik xavfsiz qilishga yordam beradi. Yangi materiallar, energiya tejash texnologiyalari va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari sanoatning turli sohalarida qo'llanilmoqda. Kimyo sanoatining rivojlanishi iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, kimyo texnologiyalarining rivojlanishi nafaqat sanoat, balki atrof-muhit va jamiyat uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Kimyo sanoatidagi zamonaviy texnologiyalar* (O'zbekiston, 2022).
2. *Ekologik xavfsizlik va kimyo texnologiyalari* (O'zbekiston, 2021).
3. *Kimyo texnologiyalarining rivojlanishi* (Sciencedirect, 2020).
4. *Energiyani tejash texnologiyalari* (Elsevier, 2019).
5. *Zamonaviy materiallar va kimyo texnologiyalari* (Springer, 2021).



ZAMONAVIY QUROLLI MOJARO SHAROITIDA IJTIMOYIY ONG DEFORMATSIYASI

Bo'riyeva Muhabbat Mamayusuf qizi

Termiz Davlat Universiteti

Ilmiy rahbar: Bo'riyev Fazliddin Fahriddinovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy qurolli mojarolar sharoitida ijtimoiy ongda yuz beradigan deformatsion jarayonlar tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor qo'rquvning ommaviylashuvi, "dushman obrazi"ning kuchayishi, zo'ravonlikning odatiy holga aylanishi, dezinformatsiya va nafrat nutqining kengayishi, shuningdek, ta'lim va jamoaviy ishonchning zaiflashuviga qaratiladi. Maqolada qurolli mojarolar faqat harbiy yoki siyosiy hodisa emas, balki insonlarning fikrlashi, qadriyatlarini, muomala madaniyati va jamiyatdagi munosabatlar tizimini o'zgartirib yuboradigan ijtimoiy-psixologik omil ekanini asoslanadi. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari ham bu muammoning qanchalik jiddiy ekanini ko'rsatadi: 2024-yil oxirida dunyo bo'yicha majburiy ko'chirilganlar soni 123,2 millionga yetgan, 2025-yil aprel oyi oxiriga kelib esa 122,1 million kishi urush, zo'ravonlik va ta'qib sababli o'z uyini tark etishga majbur bo'lgan. WHO ma'lumotiga ko'ra, urush yoki mojaroni boshdan kechirgan odamlarning taxminan 22 foizida depressiya, xavotir, PTSD yoki boshqa ruhiy buzilishlar kuzatiladi. Shu jihatdan qaraganda, qurolli mojarolar sharoitida ijtimoiy ong deformatsiyasi nafaqat individual psixika, balki butun jamiyatning axloqiy va ma'naviy muhitiga ta'sir qiluvchi murakkab jarayondir.

Kalit so'zlar: qurolli mojarolar, ijtimoiy ong, deformatsiya, dezinformatsiya, nafrat nutqi, qo'rquv, migratsiya, ijtimoiy ishonch, yoshlar, media.

Kirish

Zamonaviy qurolli mojarolar oldingi davrlardagi urushlardan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Bugungi mojarolar faqat front chizig'ida kechmaydi. U axborot maydoni, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy kommunikatsiya, jamoatchilik kayfiyati va kundalik hayotga ham kirib kelgan. Shu sababli hozirgi mojarolar sharoitida zarba faqat moddiy infratuzilmaga emas, balki insonning ichki dunyosiga, uning atrofdagi voqelikka munosabatiga va jamiyatning umumiy ongiga ham beriladi. Ijtimoiy ong deformatsiyasi deganda jamiyat a'zolarining voqelikni sog'lom va muvozanatli baholash qobiliyatining buzilishi, zo'ravonlikka nisbatan sezgirlikning pasayishi, boshqalarga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishi, hissiy reaksiyalarning keskinlashuvi va axloqiy mezonlarning siljishi tushuniladi.

Bu hodisa ayniqsa zamonaviy mojarolar sharoitida kuchli namoyon bo'ladi, chunki urush endi faqat jang maydonidagi to'qnashuv emas, balki onglar uchun kurashga ham aylangan. Odamlarga ta'sir ko'rsatish uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, propaganda,



turli narrativlar va manipulyativ xabarlar faol ishlatiladi. UNESCO ta'kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlar nafrat, dezinformatsiya, noto'g'ri ma'lumot va propaganda tarqatishning muhim vositasiga aylanib bormoqda, bu esa mojaro dinamikasi va tinchlik jarayoniga bevosita ta'sir qiladi.

Shu nuqtai nazardan, qurolli mojaro sharoitida ijtimoiy ong deformatsiyasini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki jamiyatdagi deformatsiya faqat urush davomida emas, undan keyin ham uzoq yillar saqlanib qolishi mumkin. Urush tugashi bilan bino va yo'llarni qayta tiklash mumkin, lekin odamlarning buzilgan ishonchi, kuchaygan qo'rquvi, qotib qolgan dushman stereotiplari va zo'ravonlikka moslashib qolgan tafakkurini tiklash ancha murakkab bo'ladi.

Asosiy qism

Ijtimoiy ong deformatsiyasining birinchi ko'rinishi - bu qo'rquv va xavotirning ommaviylashuvidir. Mojaro hududida yoki mojaro axboroti kuchli tarqalgan jamiyatda odamlar doimiy xavf hissi bilan yashay boshlaydi. Bu holat ularning qaror qabul qilish uslubiga, boshqalarga bo'lgan munosabatiga va hatto kundalik muloqotiga ta'sir qiladi. WHO va BMT ma'lumotlariga ko'ra, urush yoki mojaroni so'nggi o'n yil ichida boshdan kechirgan odamlarning qariyb 22 foizida depressiya, xavotir, travmadan keyingi stress buzilishi, bipolyar buzilish yoki shizofreniya kabi ruhiy muammolar uchraydi. Bu raqam oddiy statistika emas; bu mojaro sharoitida ruhiy bosim jamiyat tafakkuriga qanday chuqur kirib borayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchi muhim belgi - "dushman obrazi"ning keskin kuchayishi. Qurolli mojaro sharoitida odamlar murakkab siyosiy va tarixiy sabablardan ko'ra soddalashtirilgan tasavvurlarga ko'proq suyanadi. Natijada "biz" va "ular" degan qarama-qarshi tasniflar kuchayadi. Bunday vaziyatda boshqa tomonni tushunishga intilish kamayadi, murosa va muloqot zaiflashadi, radikal fikrlar esa legitimlashadi. Odamlar ko'pincha shaxsni emas, butun guruhni yomonlik manbai sifatida tasavvur qila boshlaydi. Bu esa ijtimoiy ongdagi muvozanatni buzadi, chunki real hayotdagi murakkablik o'rnini hissiyotga asoslangan stereotiplar egallaydi. Uchinchi muhim omil - dezinformatsiya va nafrat nutqi. Zamonaviy mojaro axborot urushi bilan chambarchas bog'langan. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan tekshirilmagan xabarlar, manipulyativ videolar, montaj qilingan tasvirlar, biryoqlama sharhlar va dushmanlikni kuchaytiruvchi chaqiriqlar jamiyatdagi ruhiy tanglikni yanada oshiradi. UNESCOning "Social Media 4 Peace" tashabbusi aynan shu muammoni ko'rsatadi: ijtimoiy tarmoqlar nafrat va propagandani tarqatib, tinchlik emas, zo'ravonlikni rag'batlantiruvchi kayfiyatni kuchaytirishi mumkin. 2026-yilda UNESCO Livan yoshlari haqida e'lon qilgan materialda ham mojaro va inqiroz davrida dezinformatsiya hamda nafrat nutqi odamlarning qarashlarini shakllantirib, jamiyatdagi bo'linishni kuchaytirishi va ijtimoiy birdamlikka tahdid solishi qayd etilgan.



To'rtinchi ko'rinish - zo'ravonlikning odatiy holga aylanishi. Mojarro uzoq davom etgan sari odamlar zo'ravonlik xabarlariga, agressiv nutqqa va qattiq tasvirlarga psixologik jihatdan ko'nikib boradi. Dastlab odamni larzaga solgan hodisa keyinchalik "oddiy yangilik" sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa juda xavfli. Chunki bunday moslashuv insondagi hamdardlik hissini pasaytiradi, zo'ravonlikni inkor etish emas, unga o'rganib qolish holatini yuzaga keltiradi. ICRC 2025-yilda zamonaviy qurolli mojarolar bo'yicha qayd etganidek, turli hududlarda shifoxonalar vayron bo'lmoqda, tez yordam mashinalari hujumga uchramoqda, jurnalistlar rekord darajada halok bo'lmoqda, tinch aholi esa to'g'ridan to'g'ri o't ostida qolmoqda. Bunday sharoitda odamlar ongida "zo'ravonlik - bu hayotning bir qismi" degan xavfli tasavvur shakllanishi mumkin.

Beshinchi muhim jihat -majburiy ko'chish va ijtimoiy aloqalarning uzilishi. UNHCR ma'lumotiga ko'ra, 2024-yil oxirida dunyoda 123,2 million kishi majburiy ko'chishga uchragan, 2025-yil aprel oyi oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 122,1 millionni tashkil etgan. Bu raqamlar millionlab oilalarning yashash joyi, tanish muhiti, qo'shnichilik munosabatlari va ijtimoiy tayanchidan ajralganini anglatadi. Uyidan, maktabidan, mahallasidan va ishidan ayrilgan insonning ijtimoiy ongida beqarorlik kuchayadi. U o'zini begona, himoyasiz va ishonchsiz his qiladi. Shu tariqa jamiyat ichidagi birdamlik zaiflashadi, o'rnini xavfsizlikka haddan tashqari ehtiyoj, o'z guruhini ortiqcha ideallashtirish va boshqalarga nisbatan gumonsirash egallaydi.

Oltinchi ko'rinish - ta'lim va yoshlar ongidagi buzilishdir. Mojarro sharoitida maktab va universitetlar faoliyati izdan chiqsa, yoshlarning tafakkurida bo'shliq paydo bo'ladi. UNESCO 2024-yilda e'lon qilgan ma'lumotga ko'ra, 2022–2023-yillarda dunyo bo'yicha o'quvchilar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalariga qarshi 6 mingta hujum qayd etilgan, bu kuniga o'rtacha 8 ta hujum degani; 10 mingdan ortiq o'quvchi va pedagog jabrlangan deb baholangan. Bunday sharoitda yoshlar faqat bilimdan emas, balki normal ijtimoiylashuv muhiti, muloqot madaniyati va kelajak rejasidan ham ayriladi. Natijada ularda befarqlik, radikallik, tajovuzkorlik yoki umidsizlik kuchayishi mumkin.

Yettinchi jihat - til va muomala madaniyatining qo'pollashuvidir. Mojarro davrida ishlatiladigan so'zlar asta-sekin kundalik nutqqa kirib keladi: "yo'q qilish", "jazolash", "dushman", "xoin", "tozalash" kabi iboralar odatiylashadi. Tilning o'zi inson tafakkuriga ta'sir qilgani uchun bunday qo'pollashuv ijtimoiy ongdagi deformatsiyani yanada chuqurlashtiradi. Odamlar muammoni muloqot orqali emas, qarama-qarshilik va bosim orqali hal qilishga ko'proq moyil bo'lib boradi. Bu esa urush tugagandan keyin ham tinch hayotga moslashishni qiyinlashtiradi.

Shu o'rinda aytish kerakki, ijtimoiy ong deformatsiyasi bir xil darajada hamma qatlamda kechmaydi. Kimdadir u qo'rquv va sukut shaklida namoyon bo'lsa, boshqalarda tajovuzkorlik,



radikallashuv yoki hissiy sovuqlik sifatida ko‘rinadi. Ba‘zi insonlar esa aksincha, mojaro fonida yanada hushyor, ehtiyotkor va tinchlik tarafdori bo‘lib qolishi mumkin. Demak, qurolli mojaro ta’siri avtomatik emas, lekin uning xavfi ommaviy va chuqurdir.

Masalani kamaytirish yo‘llari

Ijtimoiy ong deformatsiyasining oldini olish uchun birinchi navbatda axborot gigiyenasini kuchaytirish kerak. Mojaro paytida har qanday xabarni haqiqat deb qabul qilish emas, manbani tekshirish, qarama-qarshi nuqtai nazarni ko‘rish va hissiyot bilan emas, aql bilan baholash zarur. Ayniqsa yoshlar orasida media savodxonlikni kuchaytirish juda muhim. UNESCOning amaliy ishlari ham aynan shuni ko‘rsatmoqda: media va axborot savodxonligi dezinformatsiya hamda nafrat nutqining ijtimoiy ongga zararini kamaytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchli bo‘lishi kerak. Mojaro sharoitida inson faqat oziq-ovqat yoki boshpana bilan emas, psixologik yordam bilan ham ta’minlanishi lozim. WHO favqulodda vaziyatlarda deyarli har bir odam ruhiy stressni boshdan kechirishini, lekin ayrim qatlamlarda bu muammo chuqurlashib, klinik darajaga yetishini ko‘rsatadi. Shuning uchun psixologik xizmatlar, maslahatlar va ijtimoiy moslashuv dasturlari tinchlikni tiklashning muhim qismi hisoblanadi.

Uchinchidan, ta’lim tizimini saqlab qolish kerak. Maktab va universitet faqat bilim beradigan joy emas, balki ijtimoiy me’yor va umidni saqlab turadigan makondir. Agar ta’lim uzilib qolsa, yoshlarning ongida bo‘shliq hosil bo‘ladi va bu bo‘shliqni radikal fikrlar yoki nafrat to‘ldirishi mumkin. Shu sabab ta’limni himoya qilish, masofaviy o‘qitish imkoniyatlarini yaratish va yoshlarni konstruktiv faoliyatga jalb etish juda muhim. UNESCO ham mojarolar paytida ta’lim uzluksizligini ta’minlash va psixososial qo‘llab-quvvatlash zarurligini alohida ta’kidlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy qurolli mojaro sharoitida ijtimoiy ong deformatsiyasi murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. U faqat urushning bevosita oqibati emas, balki qo‘rquv, dezinformatsiya, nafrat nutqi, migratsiya, ta’limdagi uzilishlar va zo‘ravonlikka moslashish kabi omillarning yig‘indisi sifatida shakllanadi. Bunday deformatsiya jamiyatdagi ishonchni zaiflashtiradi, odamlarda “dushman” obrazini kuchaytiradi, muomala madaniyatini qo‘pollashtiradi va kelajak haqida sog‘lom tasavvur hosil qilishni qiyinlashtiradi.

Eng muhim masala shundaki, qurolli mojaro tugashi bilan ijtimoiy ongdagi deformatsiya darrov yo‘qolmaydi. U uzoq vaqt davomida jamiyat xotirasida, tilida, madaniyatida va kundalik munosabatlarida saqlanib qolishi mumkin. Shu bois bu muammoga faqat harbiy yoki siyosiy masala sifatida emas, balki ijtimoiy, ma’naviy va psixologik muammo sifatida ham qarash zarur. Tinchlik faqat o‘q uzilmasligi bilan o‘lchanmaydi. Haqiqiy tinchlik jamiyat ongida



qo'rquv o'rnini ishonch, nafrat o'rnini muloqot, befarqlik o'rnini hamdardlik egallaganida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi. **“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi Qonun.** 12.12.2002, № 439-II.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **O'zbekiston Respublikasi Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida.** 17.10.2017, № 838.
3. Lutfullayev, A. **Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta'siri hamda axborot xurujlari.** 2021.
4. Urazaliyeva, M.Y.Q. **Yangi O'zbekistonda media ta'lim.** 2024.
5. Muqimov, B.A. **Yangi O'zbekiston yoshlarida ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari.** 2023.
6. Bozorova, G. **“Ommaviy madaniyat”ning salbiy ta'siri va uning oldini olish yo'llari.** 2022.
7. Narqulova, M.U.B. **Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish.** 2022.



TASHKILOTNING TASHQI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISH

Nazirov Xusanjon

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Bugungi globallashuv, raqobat kuchayishi va axborot oqimining keskin ortib borishi sharoitida tashkilot faoliyatining muvaffaqiyati nafaqat ichki boshqaruv samaradorligiga, balki uning tashqi auditoriya bilan qanday va qay darajada samarali muloqot olib borishiga ham bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, tashkilotning tashqi kommunikatsiya strategiyasini shakllantirish va uni izchil amalga oshirish zamonaviy boshqaruv tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: marketing, bozor mavqei, tashqi kommunikatsiya strategiyasi, tashkilotning tashqi muhiti.

Kirish:

Tashqi kommunikatsiya strategiyasi — bu tashkilotning jamiyat, iste'molchilar, hamkorlar, investorlar, ommaviy axborot vositalari, davlat organlari hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan maqsadli, tizimli va rejalashtirilgan axborot almashinuvini yo'lga qo'yishga qaratilgan boshqaruv mexanizmidir (Argenti, 2015). Mazkur strategiya tashkilotning ijobiy imijini shakllantirish, uning obro'sini mustahkamlash va bozor mavqeini oshirishga xizmat qiladi (Doorley & Garcia, 2015).

Tashqi kommunikatsiya strategiyasini samarali shakllantirish tashkilotning missiyasi, maqsadlari va qadriyatlarini aniq belgilashni talab etadi (Smith, 2017). Strategiya ishlab chiqish jarayonida maqsadli auditoriyani segmentatsiya qilish, ularning ehtiyojlari va xulq-atvorini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega (Kotler & Keller, 2016).

Shuningdek, tashkilotning tashqi muhitini — bozor kon'yunkturasi, raqobatchilar faoliyati va media maydonni tahlil qilish zarur (Fill, 2013). Chunki kommunikatsiya tasodifiy emas, balki rejalashtirilgan va natijaga yo'naltirilgan faoliyatdir (Grunig & Hunt, 1984).



Tashqi kommunikatsiya strategiyasini amalga oshirishda korporativ imidj va reputatsiyani boshqarish muhim o'rin tutadi (Doorley & Garcia, 2015). Tashkilot o'z faoliyati haqida aniq va tezkor axborot berish orqali ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantiradi (Argenti, 2015).

Bunda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning o'rni alohida ahamiyatga ega (Kaplan & Haenlein, 2010). Zamonaviy sharoitda tashkilotning internetdagi faolligi uning ochiqligi va innovatsionligini ko'rsatadi (Breakenridge, 2012).

Shu bilan birga, kommunikatsiya strategiyasining muvaffaqiyati axborotning aniqligi va izchilligiga bog'liq (Cornelissen, 2020). Turli platformalarda qarama-qarshi axborot berilishi tashkilot reputatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Argenti, 2015).

Krizisli vaziyatlarda esa tezkor va ochiq kommunikatsiya olib borish muhimdir (Grunig & Hunt, 1984). Antikrizis kommunikatsiya rejalarini oldindan ishlab chiqish tashkilot barqarorligini ta'minlaydi (Smith, 2017).

Tashqi kommunikatsiya strategiyasining samaradorligini baholash uchun auditoriya qamrovi, media faollik va jamoatchilik fikri tahlil qilinadi (Fill, 2013). Bu esa strategiyani takomillashtirish imkonini beradi (Kotler & Keller, 2016).

Xulosa:

qilib aytganda, tashkilotning tashqi kommunikatsiya strategiyasi uning raqobatbardoshligi va ijtimoiy ishonchini ta'minlovchi muhim boshqaruv vositasidir (Cornelissen, 2020). Mazkur strategiya tashkilotning ijobiy imijini shakllantirish va manfaatdor tomonlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaydi (Argenti, 2015).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kotler, P., Keller, K. L. (2016). *Marketing Management*. Pearson Education Limited.
2. Cornelissen, J. (2020). *Corporate Communication: A Guide to Theory and Practice*. Sage Publications.
3. Argenti, P. A. (2015). *Corporate Communication*. McGraw-Hill Education.
4. Grunig, J. E., Hunt, T. (1984). *Managing Public Relations*. Holt, Rinehart & Winston.
5. Fill, C. (2013). *Marketing Communications: Brands, Experiences and Participation*. Pearson.
6. Doorley, J., Garcia, H. F. (2015). *Reputation Management: The Key to Successful Public Relations and Corporate Communication*. Routledge.
7. Smith, R. D. (2017). *Strategic Planning for Public Relations*. Routledge.



8. Kaplan, A. M., Haenlein, M. (2010). Users of the world, unite! *Business Horizons*, 53(1), 59–68.
9. Breakenridge, D. (2012). *Social Media and Public Relations: Eight New Practices for the PR Professional*. FT Press.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарорлари ва ахборот сиёсатида оид меъёрий ҳужжатлар (rasmiy manbalar).



Навоий вилояти аҳолисига 2022–2024 йилларда кўрсатилган аллергология хизматининг таҳлилий баҳоси

Очилов Фархад Эшмаматович

Навоий давлат университети табиий фанлар ва тиббиёт факультети клиник
фанлар кафедраси аллергология фани ўқитувчиси. *Ўзбекистан, Навоий шаҳри, 210100*

Аннотация

Мазкур ишда Навоий вилояти аҳолисига 2022–2024 йилларда кўрсатилган аллергология хизматининг статистик ва таҳлилий кўрсаткичлари ўрганилди. Аллергик касалликлар динамикаси, нозологик таркиби, ҳудудий, демографик ва экологик омиллар таъсири баҳоланди. Таҳлил натижасида аллергик патологиялар ўсиш тенденциясига эга эканлиги аниқланди ва ҳудудга мос ташкилий, диагностик ҳамда профилактик чора-тадбирлар таклиф этилди.

Калит сўзлар: аллергик ринит, бронхиал астма, дерматит, поллиноз, эпидемиология, профилактика, атроф-муҳит.

Кириш

Аллергик касалликлар замонавий тиббиётнинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб, уларнинг тарқалиши сўнгги йилларда сезиларли даражада ортиб бормоқда. Бу ҳолат экологик вазиятнинг ёмонлашуви, иқлим ўзгариши, урбанизация ва саноатлашув жараёнлари билан боғлиқ.

Навоий вилояти катта ҳудудга эга бўлиб, аҳоли зичлиги паст, аммо саноат корхоналари юқори даражада жойлашган. Атмосфера ҳавосининг ифлосланиши аллергик касалликлар ривожланишига муҳим омил сифатида таъсир кўрсатади. Шу сабабли ҳудудда аллергология хизматини таҳлил қилиш ва такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқот мақсади. Навоий вилояти аҳолисига 2022–2024 йилларда кўрсатилган аллергология хизматини таҳлил қилиш ва уни такомиллаштириш бўйича амалий таклифлар ишлаб чиқиш.

Материал ва усуллар. Тадқиқотда 2022–2024 йилларда биринчи марта аниқланган аллергик касалликлар бўйича статистик маълумотлар таҳлил қилинди. Қуйидаги нозологиялар ўрганилди: бронхиал астма, аллергик ринит, поллиноз, крапивница, аллергик дерматит, овқат аллергияси, инсект аллергия. Шунингдек, демографик ва экологик омиллар ҳисобга олинди.

Натижалар

1. Умумий динамика

Таҳлил натижаларига кўра, аллергик касалликлар сони йилдан-йилга ортиб бормоқда:



- 2022 йил — 5984 нафар
- 2023 йил — 6573 нафар
- 2024 йил — 7959 нафар

Уч йил ичида ўсиш қарийб **33%** ни ташкил қилди. Бу аллергия патологиялар кенгайиб бораётганлигини кўрсатади.

2. Нозологик таркиб

2024 йилда энг кўп учраган касалликлар:

- аллергия ринит — 2345 ҳолат
- крапивница — 1729 ҳолат
- аллергия дерматит — 1679 ҳолат
- бронхиал астма — 499 ҳолат

Энг юқори ўсиш аллергия ринит ва овқат аллергиясида кузатилди.

3. Ҳудудий таҳлил

Энг юқори кўрсаткичлар саноатлашган ҳудудларда:

- Навоий шаҳри
- Кармана тумани
- саноат корхоналари жойлашган ҳудудлар

Қишлоқ жойларда умумий кўрсаткич пастроқ бўлса-да, поллиноз ҳолатлари кўпроқ учрайди.

4. Демографик хусусиятлар

Аҳоли сони — 1 028 352 нафар.

Ёш таркиби:

- 0–14 ёш — 37,9%
- 15–17 ёш — 6,8%
- 18+ — 55,3%

Аҳолининг 44,7% қисми болалар ва ўсмирлардан иборат бўлиб, бу педиатрик аллергиялогия аҳамияти юқори эканини кўрсатади.

Болаларда:

- атопик дерматит
- овқат аллергияси

Ўсмирларда:

- поллиноз
- аллергия ринит

Катталарда:

- аллергия ринит
- бронхиал астма



кўпроқ учрайди.

Муҳокама

Аллергик касалликлар ўсишининг асосий сабаблари куйидагилардан иборат:

- атмосфера ҳавосининг ифлосланиши
- иқлим ўзгариши
- урбанизация
- нотўғри овқатланиш
- ирсий мойиллик

Саноат чиқиндилари ва майда заррачалар (PM2.5, PM10) нафас йўлларида яллиғланишни кучайтириб, аллергия касалликлар ривожланишига сабаб бўлади.

Ҳозирги кунда аллергология хизматида қатор муаммолар мавжуд:

- барча туманларда аллергологлар етишмайди
- диагностик имкониятлар чекланган
- аллерген-специфик иммунотерапия (ASIT) кенг жорий этилмаган

Хулоса

1. Навоий вилоятида аллергия касалликлар барқарор ўсиш тенденциясига эга.
2. Энг кўп тарқалган касаллик — аллергия ринит.
3. Саноатлашган ҳудудларда касалланиш юқори.
4. Экологик ва иқлим омиллари асосий таъсир қилувчи фактор ҳисобланади.
5. Аллергология хизмати янада такомиллаштиришни талаб қилади.

Амалий таклифлар

1. Ташкилий чоралар

- барча туманларда аллерголог лавозимини жорий этиш
- ягона электрон реестр яратиш

2. Диагностика

- аллерготест лабораторияларини ташкил қилиш
- FeNO ва спирометрияни жорий этиш

3. Даволаш

- ASIT дастурини кенгайтириш
- биологик терапияни жорий этиш

4. Профилактика

- экологик назоратни кучайтириш
- аҳоли ўртасида тарғибот ишлари

5. Илмий йўналиш

- ҳудудий тадқиқотларни кенгайтириш
- климат ва аллергия боғлиқлигини ўрганиш



Якуний хулоса

Навоий вилоятида аллергик касалликлар ўсиши ҳудуднинг экологик ва иқлим шароити билан бевосита боғлиқ. Аллергология хизматини модернизация қилиш, эрта диагностика ва профилактик чораларни кучайтириш орқали касалликлар тарқалишини камайтириш мумкин.



TIBBIYOTDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI VA KELAJAKDAGI FOYDALARI.

Mahmudova E'zoza Jasur qizi, O'ralova Aziza Faridovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Unversiteti Termiz Filiali 1-kurs talabasi

ezozamaxmudova1007@gmail.com

auralova942@gmail.com

Ashurova Sarvinoz Fahriddinovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Unversiteti Termiz filiali

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedراسi assistenti

abbosbek9494.94@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy tibbiyot tizimiga integratsiyasi, ularning diagnostika aniqligini oshirish, shaxsiylashtirilgan davolash protokollarini ishlab chiqish hamda sog'liqni saqlash tizimi boshqaruvini fundamental ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, Suniy intellekt texnologiyalarini joriy etishda yuzaga keladigan ma'lumotlar maxfiyligini yani har bemor va shaxsning ma'lumotlari sir saqlanishi ko'zda tutildi. Mazkur tahlil tibbiyot xodimlarining texnologik savodxonligini oshirish va kelajak tibbiyotini insoniylik hamda sun'iy intellekt uyg'unligida rivojlantirish uchun nazariy-amaliy manba vazifasini o'taydi.

Kirish: Bugungi kunda tibbiyot fani insoniyat tarixidagi eng katta axborot hajmi bilan to'qnash keldi. Genomika, murakkab tasviriy diagnostika (MRT, KT, PET-skaner) va elektron tibbiy yozuvlar shifokorlardan nafaqat yuqori klinik tajriba, balki ulkan ma'lumotlar oqimini lahzalik tahlil qilish qobiliyatini talab qilmoqda. Professor N. Ahmedov ta'kidlaganidek, inson miyasi cheklangan vaqt ichida millionlab hujayraviy va klinik ko'rsatkichlarni bir vaqtda qayta ishlay olmaydi, bu esa sun'iy intellekt kabi yordamchi vositalarni tibbiyotning ajralmas qismiga aylantirdi. Sun'iy intellekt shunchaki dasturiy ta'minot emas, balki tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini o'zgartiruvchi yangi dastur tizimidir. Diagnostika va Tibbiy Tasvirlashning Yangi Cho'qqilari. Sun'iy intellekt tibbiyotda eng katta muvaffaqiyatlarga ayniqsa radiologiya, gistopatologiya va dermatologiya sohalarida erishmoqda. Radiologiya bo'limida SI algoritmlari rentgen, KT va MRT tasvirlarini tahlil qilishda inson ko'zi ilg'amaydigan o'simta belgilari, qon



tomir patologiyalari yoki mikro-sinishlarni aniqlashda misli ko'rilmagan aniqlik ko'rsatmoqda. Shaxsiylashtirilgan Tibbiyot va Farmakologik Inqilob An'anaviy tibbiyot "hamma uchun bir xil" (one-size-fits-all) yondashuviga asoslangan bo'lsa, SI tibbiyotni "shaxsiylashtirilgan" (precision medicine) formatga o'tkazmoqda.

Asosiy qism: Hozirda ayrim xususiy klinikalar va davlat shifoxonalarida tashxislash, bemor kuzatuv va rehabilitatsiya jarayonlariga sun'iy intellekt sinov tariqasida tatbiq etilmoqda. Bu yangi texnologiyaning mahalliy sharoitga moslashuvi, bemor ma'lumotlarini himoya qilish va javobgarlik masalalarini kun tartibiga chiqaradi. Kun.uz muxbiri ayni mavzuda xalqaro kompaniyada dasturchi sifatida faoliyat yuritayotgan va tibbiyotda tahlil natijalariga ko'ra tashxislashni osonlashtirishga qaratilgan startup ustida ishlayotgan yosh tadqiqotchi Dildora G'aniyeva bilan suhbatlashdi. Sun'iy intellekt tibbiyot va texnologiya rivojlangan mamlakatlarda kasalliklarni prognoz qilish, retsept yozish va hatto dori vositalarini ishlab chiqishda qo'llanyapti. Sog'liqni saqlash vazirligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil boshidan Dermatovenerologiya va kosmetologiya markazida kasalliklarni SI yordamida tashxislash yo'lga qo'yilgan. Bu o'zi qanchalik samarali va SI tibbiyotdagi aynan qaysi jarayonlarda nimalarni o'zgartiradi?

Sun'iy intellekt tibbiyotda eng ko'p foyda berayotgan yo'nalishlardan biri bu — tashxis qo'yish. Negaki aqlli texnologiya minglab ma'lumotlarni bir zumda tahlil qilib, inson ko'zi ilg'amaydigan kasallik belgilarini aniqlay oladi. Masalan, u rentgen yoki MRT suratlaridagi juda kichik o'zgarishlarni ham topish qobiliyatiga ega. Mazkur jihat shifokorlarga kasallikni erta bosqichda bilish va davolashni o'z vaqtida boshlash imkonini beradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt tibbiyotda faqat tashxis bilan cheklanmayapti. U kasallik xavfini oldindan prognoz qilish, bemorga mos retsept tuzish, hatto yangi dorilar ishlab chiqishda ham faol ishtirok etmoqda. Ilgari laboratoriyalarda yillab davom etgan tajribalar endi bir necha oy, hatto haftalar ichida amalga oshirilishiga erishilyapti. Bemorni kuzatish va rehabilitatsiya bosqichida ham sun'iy intellekt texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Masalan, aqlli bilaguzuklar yoki mobil ilovalar yordamida bemorning yurak urishi, qon bosimi, qand miqdori, uyqu sifati kabi ko'rsatkichlarini doimiy ravishda o'lchab borish imkoniyati mavjud. Bu qurilmalarda to'plangan ma'lumotlar sun'iy intellekt orqali tahlil qilinadi va agar o'zgarish yoki xavfli belgi aniqlansa, shifokorga avtomatik signal yuboriladi. Shu yo'l bilan yurak xurujlari, insult yoki boshqa og'ir holatlarning oldini olish mumkin bo'ladi. Bunday tizimlar, ayniqsa, surunkali kasalliklarga chalingan, uyda davolanayotgan yoki rehabilitatsiya bosqichida bo'lgan bemorlar uchun juda foydali. Yana bir muhim yo'nalish — tibbiy hujjatlarni avtomatlashtirish. Sun'iy intellekt bu borada shifokorlarga katta yordam bermoqda. U tovushni matnga aylantiradi, bemorning tarixini tartiblaydi, tahlil natijalarini joylashtiradi va statistik ma'lumotlarni



avtomatik tayyorlaydi. Shifokor endi har bir tashxisni qo'lda yozib chiqishga vaqt sarflamaydi: tizim hammasini o'zi to'ldiradi, mutaxassis esa faqat tekshirib, tasdiqlaydi. Bu tibbiyot xodimiga bemor bilan ko'proq vaqt o'tkazish, muloqotni yaxshilash va insoniy yondashuvni kuchaytirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt o'z bazasida mavjud ma'lumotlar asosida so'rovlarga javob beradi. O'zbek tilida esa raqamli baza yetishmovchiligi masalasi bor. Mazkur holat sun'iy intellektning tashxisni to'g'ri qo'yish va tibbiy masalalarda asosli maslahat berish qobiliyatiga aks ta'sir ko'rsatmaydimi? Sun'iy ong bergan ma'lumotlarga qay darajada ishonsa bo'ladi? — Mazkur texnologiyaning ishonchliligi, ayniqsa, o'zbek tili kabi raqamli resursi cheklangan tillarda hali ham muhokamada. Boisi sun'iy intellektning "aql" darajasi bevosita unga yuklangan ma'lumotlar bazasiga bog'liq, qanchalik ko'p, to'liq va sifatli manba bo'lsa, natija shunchalik aniq chiqadi.

Bugungi kunda ingliz, xitoy yoki ispan tillarida tibbiy ma'lumotlar bazasi nihoyatda boy, shuning uchun sun'iy intellekt ushbu tillarda bemor belgilarini aniqroq tahlil qiladi, statistik xulosalar chiqaradi va ehtimoliy tashxislarni yaxshiroq beradi. Ammo o'zbek tilida bu imkoniyat hali to'liq shakllanmagan. Ma'lumotlar bazasining cheklanganligi, terminologik nomuvofiqliklar, tibbiy hujjatlarning yagona elektron tizimda saqlanmasligi kabi omillar natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Agar texnologiyani o'qitishda ishlatilgan ma'lumotlar inglizcha yoki boshqa tillarga asoslangan bo'lsa, o'zbekcha tibbiy so'rov (prompt) kiritilganda sun'iy intellekt mahalliy atamalar, klinik yozuv uslubi yoki madaniy kontekstni noto'g'ri tushinishi mumkin. Tizim avtomatik tarjima orqali ishlasa, klinik ma'no yo'qoladi. Masalan, "qand" va "glyukoza" kabi so'zlar aralashib, noaniq javob chiqishi ehtimoli mavjud. Oqibatda, u tibbiy yozuvlarni noto'g'ri tarjima yoki talqin qiladi. Belgilarni yanglish baholab, xato tavsiya berishi ehtimoli oshadi. Mahalliy kasalliklar, diagnostika protokollari yoki dori nomlarini tanimasligi mumkin.

Texnik jihatdan qaraganda, SI ishonchliligi bir necha omillarga bog'liq: ma'lumotlar to'plamining sifati va hajmi, modelni o'rgatishdagi tarafkashlik (bias), natijani izohlash qobiliyati, shuningdek yangi virus yoki genetik o'zgarishlarga moslashish darajasi. Agar model eski ma'lumotlar asosida ishlasa, u yangi holatlarda xatoga yo'l qo'yadi.

Shuning uchun shifokorlar orasida ham bu tizimdan faqat yordamchi vosita sifatida foydalanish fikri kuchli, ya'ni sun'iy intellekt tashxis qo'yishda emas, balki mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, o'xshash holatlar bilan solishtirish va ehtimoliy tavsiyalar berishda ishonchliroq natija ko'rsatadi. O'zbek tilida ham tibbiy ma'lumotlar bazasini boyitish, terminlarni yagona standartga keltirish va sun'iy intellekt modellarini shu tilga moslashtirish ustida ish olib borilsa, natijalar sifat jihatidan yuqoriga ko'tariladi. Hozircha tibbiyotda u bergan ma'lumotlarga to'liq tayanib bo'lmaydi.



Sun'iy intellekt qaysi kasalliklarni aniqlashda yaxshiroq samara bermoqda? SI tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda ya'ni rentgen, KT, MRT, dermatoskopiya va oftalmologik suratlarda yaxshiroq natija ko'rsatadi. Chunki bu sohada raqamli, aniq va bir xil formatdagi ma'lumotlar ko'p. Sun'iy intellekt yuz minglab suratlarni solishtirib, inson ko'zi ilg'amaydigan darajada kichik o'zgarishlarni aniqlay oladi. Misol uchun, o'pka nodullari, mammogrammada boshlang'ich o'simtlar, diabetik retinopatiyaning dastlabki belgilarini erta bosqichda topa oladi. Shu bilan bir qatorda, patologik slaydlarni tahlil qilishda ham SI mikroskop ostidagi mikroorganizmlarni o'rganib, saraton hujayralari mavjudligi va ularning bosqichini aniqlashda yordam beradi. Kardiologiya yo'nalishida SI yurak faoliyatini kuzatish bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratdi. U EKG yoki yurak monitorlaridan olingan ma'lumotlar orqali aritmiyalar, yurak o'tkazuvchanligi buzilishlari, hatto "simptomsiz" ishemiyani erta bosqichda aniqlay oladi. Bunga qo'shimcha ravishda, doimiy monitoring qurilmalari, masalan, aqlli bilaguzuklar yoki Holter apparatlari yordamida yurakdagi o'zgarishlar tahlil qilinib, xavfli holatlar haqida shifokorga avtomatik ogohlantirish yuboriladi. Laboratoriya va genomika sohasida SI kasallik xavfini oldindan bashorat qilishda foydali. U DNK yoki RNK ma'lumotlarini tahlil etib, ma'lum genetik variantlar bilan bog'liq kasalliklar xavfini aniqlaydi. Ayniqsa, saraton turlarining genetik subtiplarini ajratishda bu texnologiyadan foydalanish qo'l keladi. Shu bilan birga, surunkali kasalliklarni kuzatishda ham SI o'ziga xos ahamiyatga ega. Misol uchun, diabet, gipertoniya yoki yurak yetishmovchiligi bilan og'rikan bemorlarda sensorlardan olinadigan ma'lumotlar doimiy tahlil qilinadi va o'zgarishlar yuz bersa, tizim shifokorni ogohlantiradi. Bu esa og'ir holatlarning oldini olishga ko'maklashadi.

Biroq, tibbiyotdagi hamma sohada ham sun'iy intellekt mukammal emas. U hali psixiatriya va ruhiy kasalliklarni aniqlashda ancha noaniq. Chunki ruhiy holatni baholash aksar hollarda subyektiv, madaniy va shaxsiy omillarga bog'liq. SI ba'zi nutq yoki mimika o'zgarishlarini tahlil qilishi mumkin, ammo to'liq tashxis uchun jonli psixiatrning bahosi zarur. Shuningdek, noyob va kam uchraydigan kasalliklarda ma'lumotlar yetarli bo'lmagani sababli SI ularni o'rganolmaydi yoki noto'g'ri taxmin qiladi. Bunday holatlar sun'iy intellekt uchun murakkablik qiladi. Masalan, fibromialgiya yoki autoimmun kasalliklar singari turli belgilar bilan kechadigan xastaliklarda model yagona xulosa chiqara olmaydi. Shuningdek, SI bemorning jismoniy ko'rikdagi holatini, masalan, palpatsiya paytida aniqlanadigan o'zgarishlarni his qilolmaydi: bunday tashxislarda shifokor sezgisi va tajribasi hal qiluvchi kuchini saqlab qoladi.

Xulosa: Sun'iy intellekt tibbiyotni yanada aniqroq, samaraliroq va shaxsiylashtirilgan holatga keltirmoqda. U shifokorni almashtirish uchun emas, balki shifokorning klinik imkoniyatlarini kengaytirish va yangi cho'qqilarga olib chiqish uchun yaratilgan qudratli



vositadir. Kelajak tibbiyoti — bu insoniy empatiya, tajriba hamda sun'iy intellektning yuqori tezlikdagi tahlil qobiliyatining uyg'unligidir. Tibbiyot xodimlarining SI bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va etik me'yorlarni ishlab chiqish esa zamonaviy tibbiy ta'limning eng muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov, R. R. va boshqalar. "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik).
2. PubMed (nih.gov): "AI in medicine"
3. Agah, A. (2017). Medical Applications of Artificial Intelligence. CRC Press.
4. Ammari, M. (2020). Machine Learning and AI in Healthcare. Springer.
4. Ijtimoiy tarmoqlar internet manbalari.



M.PORTERNING RAQOBATNING BESH KUCHI NAZARIYASI

Xoliqulov Anvar Nematovich – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasi mudiri, i.f.n., professor

Ta'sirchan va rag'batlantiruvchi, erkin iqtisodiy raqobatni rivojlantirish evaziga ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar ustidan xaridorlarning hukmronligi o'rnatilib, bu bozor munosabatlarining mohiyatini belgilovchi sharoit hisoblanadi¹. Raqobatning faqat erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida to'laqonli amal qilishi hamda o'z mohiyatini to'liq namoyon eta olishini quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin (1.-jadval).

“Raqobat”ning turli iqtisodiy sharoitlardagi qiyosiy tavsifnomasi

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida	Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida
<ul style="list-style-type: none"> • Raqobat «sotsialistik musobaqa» bilan almashtirilib kelindi. «Raqobat» so'zini ishlatish taqiqlanar edi. • Musobaqa kim o'zish, kim yaxshi natijalarga erishish uchun bo'lgan qalbaki bellashuv edi. Chunki erishilmagan yutuq va bajarilmagan ko'rsatkichlarga erishilishi «raqamlar»da ta'minlanardi. • Sotsialistik musobaqadagi majburiy safarbarlik usuli: <ul style="list-style-type: none"> - tashabbuskorlik ruxini sundirardi; -sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish imkonini bermas edi; - «yalpi mahsulot» mafkurasi hukmronligida musobaqa 	<ul style="list-style-type: none"> • Raqobat rag'batlantiruvchi iqtisodiyotni harakatga soluvchi kuchdir. Shu sababli u bozor iqtisodiyoti mexanizmida asosiy o'rin oladi. • Raqobat rejalashtirilmaydi va qattiq nazorat ostiga olinmaydi. Raqobatchilikni bozordagi: <ul style="list-style-type: none"> - talab va taklif; - narx-navo; - oligopoliya va monopoliya darajasi; - davlatning antimonopol siyosati belgilaydi; - Raqobatda majburiy safarbarlik bo'lmaydi. Bu yerda halol va erkin iqtisodiy raqobatni rivojlantirish evaziga ishlab chiqaruvchilar ustidan xaridorlarning hukmronligi o'rnatiladi.

¹ Абдуллаев Ё. Бозор иктисодиёти асослари: 100 савол ва жавоб. - Т.: «Мехнат», 1997, 57-58-6



ko'rsatkichlari miqdoriy ko'rsatkichlarga qarab bajarilar edi	ko'pincha
---	-----------

Taniqli amerikalik olim M.Ye.Porterning tadqiqotlariga ko'ra, alohida bozordagi raqobatning holatini beshta raqobat kuchi orqali tavsiflash mumkin:

1. Raqobatlashuvchi sotuvchilar o'rtasidagi bellashuv (har bir firma raqobat afzalliklaridan foyda olish va

qulay mavqega ega bo'lish uchun o'zining shaxsiy raqobat strategiyasiga amal kiladi).

2. Bir-birini o'rnini bosuvchi va narx nuqtai nazaridan raqobatbardosh bo'lgan tovarlar o'rtasidagi raqobat (o'rnini bosuvchi tovarlar tomonidan yuzaga kelgan xavf tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

3. Yangi raqobatchilarning paydo bo'lish xavfi (yangi raqobatchilar paydo bo'lishi xavfi tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

4. Mol yetkazib beruvchilarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari (mol yetkazib beruvchilarning imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

5. Xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari (xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).²

Porter nazariyasiga ko'ra tarmoq raqobatini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tarmoqda raqobat kuchlarining aniqligi va samaradorligini aniqlashga;

2. Kompaniyaning raqobat kuchlari ta'siridan maksimal himoyalaniish pozitsiyasiga ega bo'lishga;

3. Raqobat kuchlariga qarshi ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Raqobat 5 kuchi nazariyasining oltin qoidasi quyidagilardan iborat.

Raqobat kuchlarining ta'siri naqadar zaif bo'lsa, tarmoqda kompaniya ko'proq foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladi, va aksincha;

Raqobat kuchlarining ta'siri naqadar kuchli bo'lsa, tarmoqda kompaniya kamroq foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Rivojlangan G'arb mamlakatlarida, xususan, Jahon iqtisodiy forumida muntazam markaziy o'rin egallaydigan Raqobat ustunligi nazariyasi bugungi kunda O'zbekiston misolida

² Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с англ. – Международные отношения, 1993, с.224.



qayta-qayta o'z tasdig'ini topmoqda. Raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra (M.Porter, Dj.Saks, P.Krugman) xalqaro bozorda kompaniyaning raqobatbardoshligi mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan ustunroq ta'minlanganligi emas, balki ushbu kompaniya uchun davlat qanday iqtisodiy institutlar va mexanizmlar orqali imkoniyat yaratayotganligi bilan baholanadi.

5 kuch modeli ko'proq strategik boshqarishda va marketingda quyidagi yo'nalishlarida qo'llaniladi:

- Kompaniyada SWOT analiz o'tkazishda
- -Kengaytirilgan raqobat tahlili va bozor tahlilini tuzishda ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 104 b.
3. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet bet. T.:
4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo'shib olish. O'quv qo'llanma Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monogpafiya. Samarqand, SamDCHTI nashrmatbaa markazi, 2020 yil – 126 bet
6. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
7. Xoliqulov A.N. Xizmat ko'rsatish korxonalarini samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet
8. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. Samarqand, Turonnashr nashriyoti, 2021 y. – 210 bet.



KORXONA (FIRMADA) SWOT ANALIZINI QO'LLASH SXEMASI VA "MCKINSEY 7S" TAHLIL MODELI

*Xoliqulov Anvar Nematovich – SamISI "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasini mudiri, i.f.n.,
professor*

SWOT analizi bosqichlari

SWOT analiz 1-bosqichi vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tovarlar patentbardoshligi;
- Tovarlar narxi;
- Texnologiyaning progressivligi;
- Kadrlar malakasi;
- Resurslar narxi;
- Asosiy fondlar yoshi (yangi, eskiligi);
- Firmaning geografik joylashuvi;
- Infrastruktura;
- Marketing va menejment tizimi;
- Tizimga kirish va chikishda raqobat kuchi darajasi kabilar o'rganiladi.

<i>Strength (Ko'chlar)</i>	<i>Weakness (zaiflik)</i>
Zaiflikni ko'chga va tahdidni imkoniyatga aylantirish	uchun barcha kuchni sarflash
<i>Opportunities (Imkoniyatlar)</i>	<i>Threat (Tahdidlar)</i>
Firmaning kushli tomonlarini uning cheklangan imkoniyatlari	asosida rivojlantirish

SWOT analiz 2-bosqichi vazifalari quyidagilardan iborat:


- Firmaning kuchsiz tomonlari o'rganiladi. Ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligi barcha bozorlar bo'yicha o'rganiladi. Konkret tovarlar raqobatbardoshligining kompleks ko'rsatkichlari, foydali effekt (integral sifat ko'rsatkichi),



jami xarajatlar, tovardan foydalanish shartlari, firmaning raqobat ustunligi bo'yicha 1 bosqichdagi ko'rsatkichlar zaifligi aniqlanadi.

- 3-bosqich. Firmaga strategik va taktik tahdidilarni prognozlash va o'z vaqtida xarajatlarni kamaytirish maqsadida firmaning makro muhit omillari o'rganiladi. (siyosiy, iqtisodiy, texnologik, bozor va boshqalar).
- 4-bosqich. Firmaning tahdidni bartaraf etish, kuchlarni o'sishi va zaiflikni pasaytirish uchun zarur bo'lgan strategik va taktik imkoniyatlari (kapital aktiv va boshqalar) o'rganiladi.
- 5-bosqich. Firma strategiyasining aloxida bo'limlari proektini shakllantirish maqsadida kuchlar va imkoniyatlar muvofiqlashtiriladi.

Ta'minotchilar tovarning bozordagi raqobatbardoshligiga xom ashyo yetkazib beruvchi sifatida ta'sir ko'rsatadi. Xom ashyo narxlarining ko'tarilishi ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishiga va shu asosda tayyor mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Agar tovarlarning chakana narxlarini ko'tarish imkoni bo'lmasa, xom ashyo narxlarining ko'tarilishi hisobidan tarmoqda tovar va xizmatlarni sotishdan keladigan foyda xajmi kamayib ketadi.



1-rasm. "McKinsey 7S" tahlil modeli

McKinsey 7S Framework — bu tashkilotning ichki tuzilmasi va samaradorligini tahlil qilish uchun ishlatiladigan **strategik boshqaruv modeli**. Model **McKinsey & Company** konsalting kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Modelga ko'ra, tashkilot muvaffaqiyatli ishlashi uchun **7 ta o'zaro bog'liq element** bir-biriga mos va muvozanatda bo'lishi kerak.

McKinsey 7S modeli elementlari

1. Strategy (Strategiya)



Tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari va raqobatda ustunlikka erishish rejasi.
Masalan: yangi bozorga kirish, innovatsiyalar, narx strategiyasi.

2. Structure (Tuzilma)

Kompaniya ichidagi tashkiliy tuzilma.
Kim kimga bo'ysunadi, bo'limlar qanday tashkil etilgan.

3. Systems (Tizimlar)

Kundalik ish jarayonlarini boshqaradigan protseduralar va jarayonlar.
Masalan: moliyaviy nazorat, HR tizimi, axborot tizimlari.

4. Shared Values (Umumiy qadriyatlar)

Tashkilot madaniyatining markazi.
Xodimlar amal qiladigan asosiy qadriyatlar va prinsiplar.

5. Style (Boshqaruv uslubi)

Rahbariyatning boshqaruv uslubi va tashkilotdagi liderlik madaniyati.

6. Staff (Kadrlar)

Kompaniyada ishlayotgan xodimlar va ularning rivojlanishi.

7. Skills (Ko'nikmalar)

Tashkilotning asosiy kompetensiyalari va professional qobiliyatlari.

7S modelining tuzilishi

Model 2 guruhga bo'linadi:

“Hard elements” (qattiq elementlar)

- Strategy
- Structure
- Systems

“Soft elements” (yumshoq elementlar)

- Shared Values
- Style
- Staff
- Skills

Soft elementlar odatda madaniyat va inson omiliga bog'liq.

Modelning asosiy g'oyasi

Agar bir element o'zgarsa, qolgan elementlar ham moslashtirilishi kerak.
Masalan: yangi strategiya → yangi tuzilma → yangi ko'nikmalar talab qiladi.

Qo'llanishi:

- strategik rejalashtirish
- tashkilotni qayta tashkil qilish



- kompaniya samaradorligini oshirish
- o'zgarishlarni boshqarish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 104 b.
3. Parдав M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet bet. T.:
4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo'shib olish. O'quv qo'llanma Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. Samarqand, SamDCHTI nashrmatbaa markazi, 2020 yil – 126 bet
6. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
7. Xoliqulov A.N. Xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet
8. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. Samarqand, Turonnashr nashriyoti, 2021 y. – 210 bet.



FIRMANING STRATEGIK HOLATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI

Xoliqulov Anvar Nematovich – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasida mudiri, i.f.n., professor

Korxonalar (firmaning) ma'lum bir davr mobaynida strategik holatini baholash quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanadi:

1. Korxonalar (firmaning) nisbiy o'lchami;
2. Korxonalar (firmaning) o'sishi;
3. Bozordagi tovar va xizmatlarni sotishdagi ulushi;
4. Bozordagi pozitsiyasi;
5. Korxonalar (firmaning) solishtirma rentabelligi;
6. Sof daromadi;
7. Korxonalar (firmaning) texnologik holat;
8. Tashqi ko'rinishi;
9. Rahbariyat va shaxsiy (kadrlar).

Korxonalar (firma)ning **ma'lum bir davr mobaynida strategik holatini baholash** — bu korxonaning bozordagi o'rni, rivojlanish darajasi va kelajakdagi imkoniyatlarini aniqlash jarayonidir. Bunda quyidagi ko'rsatkichlar asosiy ahamiyatga ega:

1. Korxonaning nisbiy o'lchami

Bu ko'rsatkich korxonaning boshqa raqobatchilar bilan solishtirganda qanchalik katta yoki kichik ekanligini bildiradi. Nisbiy o'lcham ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, aktivlar hajmi yoki bozor ulushi orqali baholanadi.

2. Korxonaning o'sishi

Korxonaning ma'lum vaqt davomida rivojlanish darajasi o'sish ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Bu ishlab chiqarish hajmi, savdo daromadi, foyda yoki bozor ulushining ortishi bilan ifodalanadi.

3. Bozordagi tovar va xizmatlarni sotishdagi ulushi

Bu ko'rsatkich korxonaning umumiy bozor hajmiga nisbatan qancha mahsulot yoki xizmat sotayotganini bildiradi. Bozor ulushi qanchalik katta bo'lsa, korxonaning raqobatbardoshligi shunchalik yuqori bo'ladi.

4. Bozordagi pozitsiyasi

Korxonaning bozordagi o'rni, ya'ni u **yetakchi, o'rtacha yoki kichik ishtirokchi** ekanligini bildiradi. Bu raqobatchilar soni, mahsulot sifati va marketing strategiyasi bilan belgilanadi.



5. Korxonaning solishtirma rentabelligi

Rentabellik korxonaning resurslardan qanchalik samarali foydalanayotganini ko'rsatadi. U foydaning xarajatlar yoki kapitalga nisbati orqali aniqlanadi.

6. Sof daromadi

Sof daromad — barcha xarajatlar, soliqlar va majburiy to'lovlar chiqarib tashlangandan keyin korxonaga qo'lida qoladigan foydadir. Bu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy barqarorligini ko'rsatadi.

7. Korxonaning texnologik holati

Korxonada qo'llanilayotgan texnologiya darajasi, zamonaviy uskunalar va innovatsiyalar mavjudligi bilan belgilanadi. Texnologik rivojlanish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

8. Tashqi ko'rinishi

Korxonaning tashqi imiji — bino va ofislarning holati, mahsulot dizayni, brend imiji va mijozlar oldidagi obro'sini bildiradi.

9. Rahbariyat va personal (kadrlar)

Korxonaga rahbariyati va xodimlarning malakasi, tajribasi hamda boshqaruv uslubi korxonaning muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Malakali kadrlar korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Ushbu ko'rsatkichlar orqali korxonaning strategik holati, raqobatbardoshligi va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlari baholanadi.

Differentsiatsiya kuchayib borgan sari har bir sotuvchi absolyut (mo'tloq) monopoliyaga ega bo'ladi, ammo shu bilan birga, o'rnini bosa oladigan boshqa mahsulot ishlab chiqaruvchining nomukammal raqobatiga uchraydi. Shundan kelib chiqib, barcha sotuvchilar «raqobatchi monopolistlar» bo'lib, «monopolistik raqobat» kuchlari ta'siri sharoitida ish yuritadilar.

Sotuvchi -monopolist qo'shimcha harajatlarni qilish yo'li bilan sotilayotgan mahsulot hajmini oshirishi (bunda tovar bahosi pasayishi) mumkin. Boshqa xuddi shunday tovar sotuvchilar esa bu shuni darhol amalga oshira olmaydi deb raqobatdosh tovar markasi bahosini pasaytirish yoki yangisini i.ch. davomida, xuddi shunday choralar boshqa raqobatchi tomonidan qo'llanilishi mumkinligidan behavotir bo'ladi.

Raqobatning baholanmaydigan omillari qatoriga tovarlar sifati va reklama kiradi va ular individual yoki alohida xususiyatlarga egadir. Differentsiatsiya mahsulotning o'z ma'lum xususiyatlari asosida shakllanishi, masalan, *alohida xususiyatlar* - firma markasi, firma nomi, qadoqlash yoki tara (agar ular bo'lsa) bo'yicha yoki sifat, shakl, rang, stil asosida *individual xususiyatlari* bilan belgilanadi.



Differenziatsiyalashgan mahsulot baho muammosi raqobatli talab va harajat egri chiziqlari doirasiga kiritilishi mumkin emas, bu avvaldan xulosalardagi xatolarga olib keladi; baho haddan tashqari past, ishlab chiqarish masshtabi - juda katta, korxonalar soni - juda kichik bo'lib chiqadi. Bundan tashqari raqobatning yana ikkita jihati: differenziatsiya va sotish harajatlari bo'tunlay tushib qoladi. Shu sababli baholarni to'la bilmaslik mahsulotga talab elastikligi (qayshiqoqlik)ni pasaytiradi, bu esa reklama talabning elastikligini oshirishi, baholar raqobatini esa ancha keng qilishiga o'xshaydi va baholar yordamida talab etiladigan qo'shimcha harajatlarni qoplaydi.

Raqobat kurashi evolyusiyasi tovar sifatini oshiradi (buni patent, mualliflik huquqlari, firma himoya belgilari, firma alohida qadoqlash usuli, mahsulot sifatini yaxshilash maqsadida, firmaning qulay joylashuvi). Reklama esa, erkin raqobat sharoitidan farqli ravishda, bozorlar qo'shib ketishigayo'l qo'ymaydi.

Baholanmagan raqobat omillari firmani haridorlar talabini qondirish uchun yangi imkoniyatlar qidirishga undaydi, ularga «havasning pullik qoidalari» ni singdirib boradi.

Ishlab chiqarish va sotish harajatlari konsepsiyasida harajatlar fabrika doirasida tovarlarni ishlab chiqarishga ketgan sarflardangina (birinchi) emas deb qaraladi. Transport (tashish), sartirovka (ajratish), saqlash, uylarga yetkazish harajatlari (ikkinchi) mavjud bo'lib, ular talablarni qondirish uchun yanada yaxshi qulayliklar yaratadi. Ikki xil ko'rinishdagi harajat o'rtasida chegara o'tkazish (ishlab chiqarish harajatlari, sotish harajatlari) taklif va talab o'rtasidagi farq kabi qiymat nazariyasida fundamental ahamiyat kasb etadi. Sotish harajatlari maskur maxsulotga talabni oshiradi, ishlab chiqarish harajatlari uning taklifini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 104 b.
3. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet bet. T.:
4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo'shib olish. O'quv qo'llanma Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monogpafiya. Samapqand, SamDCHTI nashrmatbaa markazi, 2020 yil – 126 bet



6. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
7. Xoliqulov A.N. Xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet
8. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. Samarqand, Turonnashr nashriyoti, 2021 y. – 210 bet.



ZAMONAVIY O'ZBEK NASRIDA YOLG'IZLIK MATIVI INSON RUHIYATI
VA ICHKI KECHINMALAR TALQINI (NAZAR ESHONQUL VA ULUG'BEK
HAMDAM ASARLARI ASOSIDA)

Qahramonova Shahnoza Fazliddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrida inson ruhiyati va ichki kechinmalarning badiiy talqini tahlil qilinadi. Xususan, Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam asarlari misolida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, yolg'izlik hissi hamda individual ong kechinmalari yoritiladi. Mualliflar ijodida psixologizmning o'rni, inson ruhiyatini chuqur ochib berishdagi badiiy vositalar, shuningdek, zamon va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlar ilmiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida zamonaviy nasrda insonning ichki olamini ifodalashda yangi badiiy izlanishlar va uslublar shakllanayotgani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'zbek nasri, inson ruhiyati, ichki kechinmalar, psixologik tasvir, badiiy tafakkur, ruhiy tahlil, individual ong, badiiy obraz, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, yolg'izlik motivi, zamon va shaxs munosabati.

Annotation. This article analyzes the artistic interpretation of the human psyche and inner experiences in modern Uzbek prose. In particular, based on the works of Nazar Eshonqul and Ulug'bek Hamdam, the inner world of characters, their psychological sufferings, the feeling of loneliness, and individual consciousness are examined. The study also explores the role of psychologism in the authors' works, the artistic means of revealing the human psyche, and the complex relationship between time and the individual through scientific analysis. As a result of the research, it is determined that new artistic approaches and methods are emerging in modern prose for expressing the inner world of a person.

Keywords: Modern Uzbek prose, human psyche, inner experiences, psychological depiction, artistic thinking, psychological analysis, individual consciousness, artistic image, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, motif of loneliness, relationship between time and individual.



Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация человеческой психики и внутренних переживаний в современной узбекской прозе. В частности, на основе произведений Nazar Eshonqul и Ulug‘bek Hamdam рассматриваются внутренний мир персонажей, их психологические страдания, чувство одиночества и проявления индивидуального сознания. Также исследуется роль психологизма в творчестве авторов, художественные средства раскрытия человеческой психики, а также сложные взаимоотношения времени и личности на основе научного анализа. В результате исследования выявляется, что в современной прозе формируются новые художественные подходы и методы выражения внутреннего мира человека.

Ключевые слова: Современная узбекская проза, человеческая психика, внутренние переживания, психологическое изображение, художественное мышление, психологический анализ, индивидуальное сознание, художественный образ, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, мотив одиночества, соотношение времени и личности.

Yolg‘izlik motivi jahon adabiyotida abadiy va abadiy mavzu bo‘lib, inson hayotining tabiati, ichki ma‘naviy tajribalar, ijtimoiy munosabatlar va metafizik tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu motivning kelib chiqishini o‘rganish inson tafakkurining turli bosqichlarida yolg‘izlik motivining ma‘naviy, ilohiy, falsafiy va estetik talqinlarini o‘rganishni taqozo etadi. Zamonaviy o‘zbek nasrida yolg‘izlik motivining chuqur va murakkab tasviri bu azaliy ma‘naviy va madaniy meros bilan uzviy bog‘liqdir. Qadimgi ilohiy va falsafiy matnlarda yolg‘izlik asosan shaxsning Yaratguvchi bilan aloqasi kontekstida tushuniladi. Islom adabiyotida, xususan, hadislar va tasavvufiy talqinlarda yolg‘izlik ikki xil ma‘noda tushuniladi. Yolg‘izlikning adabiy element sifatida tasvirlanishi, Navoiydan yoki boshqa mualliflardan olingan bo‘lsin, tasavvufiy ma‘nosiz talqin qilinishi mumkin emas. Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” asari ko‘pincha tasavvuf haqidagi munozaralar bilan bog‘liq. Najmiddin Komilov shunday deydi: “Dunyodan butunlay voz kechish mavjudlikka zid keladi va shaxsni o‘z ixtiyori, kasbi va nuqtai nazaridan mahrum qiladi”. Dunyoviylik ham shaxsni ilohiylik va ma‘naviyatdan uzoqlashtiradi, uni moddiylik va dunyoviy ishlarga bo‘ysundiradi.(1).

Eshonqul yolg‘izlikni ifodalash uchun ramziy tasvirlardan asosiy ijodiy usul sifatida foydalanadi. Uning yozuvlaridagi ramzlar kamdan-kam hollarda statik bo‘ladi; ular qahramonlarning psixologik holatlari bilan birga rivojlanadigan dinamik ma‘no tomirlari bo‘lib xizmat qiladi. “Maymun yetaklagan odam”da maymun tasviri ko‘p qirrali timsol vazifasini bajaradi. Yuzaki qaraganda, bu odatiy bo‘lmagan hikoya qilish usuli kabi ko‘rinishi mumkin; (2). Shunga qaramay, bu qahramonning ajralib ketgan shaxsiyati va faoliyatining pasayishini chuqur aks ettiradi. Yetakchilik va yetaklanish rollari noaniq bo‘lib qoladi, bu esa shaxsning o‘z taqdirini nazorat qila olmasligidan dalolat beradi. Bu ramziy inversiya ekzistensial izolyatsiya



tuygʻusini kuchaytiradi, bunda inson jamiyatdan ham, oʻzidan ham begonalashgandek his qiladi. “Ogʻriq lazzati” da ogʻriqning oʻzi shunchaki jismoniy azob-uqubatlardan tashqari ramziy konstruksiyaga aylanadi. Sarlavhada “ogʻriq” va “zavq” ning qarama-qarshi yonmayon qoʻyilishi inson tajribasining mohiyatini chuqur falsafiy tadqiq qilishni koʻrsatadi. Yolgʻizlik nafaqat sheriklikning yoʻqligi, balki ongning ajralmas holati sifatida ham namoyon boʻladi. Qahramonning ogʻriq bilan toʻqnashuvi oʻziga xos introspektiv yolgʻizlikni tasvirlaydi, bunda azob-uqubatlar oʻzini anglash mexanizmi boʻlib xizmat qiladi. Ogʻriqni badiiy va ekzistensial toifaga aylantirish metaforik til va introspektiv hikoya orqali amalga oshiriladi, bu esa tashqi voqelik va ichki tajriba oʻrtasidagi farqlarni yashiradi.(3).

Zamonaviy oʻzbek adabiyotida yolgʻizlik gʻoyasi nafaqat tematik element sifatida, balki shaxsning mavjudlikdagi qiyin ahvolini qamrab oluvchi muhim ijodiy va falsafiy kategoriya sifatida ham namoyon boʻladi. Nazar Eshonqulning rasmlari bu tushunchani hikoya tuzilishi, ramziylik, tasvirlar, psixologik murakkablik va stilistik innovatsiyalarni oʻz ichiga olgan murakkab ijodiy texnikalar toʻplami orqali yetkazadi. Uning “Maymun yetaklagan odam”, “Ogʻriq lazzati”, “Muolaja” va “Goʻroʻgʻli yohud hayot suvi” kabi hikoyalari va qissalari yolgʻizlikni ham ichki, ham tashqi tajriba sifatida tasvirlashda oʻziga xos metodologiyani namoyish etadi.

Yolgʻizlik motivining poetik xususiyatlari. Yolgʻizlik motivi adabiyot tarixidagi eng qadimgi, eng murakkab va eng nozik tushunchalar qatoriga kiradi. U nafaqat shaxsning ijtimoiy izolyatsiyasini, balki uning maʼnaviy, falsafiy va ontologik holatini ham ifodalaydi. Yolgʻizlik motivi poetikadagi keng maʼnolarni qamrab oladi, ular syujet, kompozitsiya, tasvirlar, til, simbolizm va badiiy metodologiyalar orqali namoyon boʻladi. Yolgʻizlik asosan ichki olamning poetikasidir. Qahramon asosan tashqi voqelikda emas, balki ichki olamida mavjud(4).. Uning suhbatlari tashqi shaxslar bilan emas, balki ichki “men” bilan sodir boʻladi. Bu holda, ichki monolog, aqliy tasvirlar, ong oqimi va fikr oqimi kabi badiiy texnikalar muhim rol oʻynaydi. Yolgʻizlik motivini aks ettiruvchi hikoyalarda rivojlanish koʻpincha tashqi harakatlardan emas, balki ichki kognitiv jarayonlardan kelib chiqadi. Yolgʻizlik poetikasi koʻpincha sukunat poetikasi bilan chambarchas bogʻliq. Bu kontekstda jimlik nutqni almashtiradi, oʻzini tahlil qilish dialogni tutadi va maʼnaviy aks sado tashqi faoliyatdan ustun turadi. Qahramonning sukuti badiiy ifoda shakli boʻlib xizmat qiladi. Bu sukunat orqali muallif qahramonning mavjudlik iztirobi, chuqur boʻshliq va maʼnaviy begonalashuvini yoritib beradi. Makon va vaqtning ramziy jihati yolgʻizlik motivining muhim poetik koʻrsatkichidir. Bunday asarlarda makon odatda tor, yopiq va cheklangan tarzda tasvirlanadi. Xona, choʻl, qorongʻu yoʻl, kimsasiz manzara va boʻsh uy kabi muhit qahramonning ichki holatini aks ettiruvchi metafora boʻlib xizmat qiladi. (5). Vaqt sekinlashgan, choʻzilgan yoki butunlay toʻxtagan holda tasvirlanadi. Bu



yolg'izlik tuyg'usini kuchaytiradi. Yolg'izlik ko'pincha kontrast yordamida yoritiladi. Qahramon jamiyatda bo'lishiga qaramay, u undan uzoqlashadi. Boshqalar bilan o'ralganiga qaramay, u yolg'iz qoladi. Shovqin orasidagi sukunat, olomon ichidagi yolg'izlik va qorong'ulik va yorqinlik kabi yonma-yon tasvirlar yolg'izlik motivining kuchli adabiy tasvirini yaratadi. Yolg'izlik motivi poetikasida ism, tashqi ko'rinish va xatti-harakatlar ramziy ahamiyatga ega. Qahramon ko'pincha o'ziga xos bo'lmagan, kamtarin shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning soddaligi uning ma'naviy murakkabligini yonma-yon qo'yadi. Yolg'izlik g'oyasini o'z ichiga olgan kompozitsiyalar ochiq yakun, noaniqlik va doimiy psixologik holat bilan belgilanadi. Asar noaniq yakunlanadi va qahramonning yolg'izligi davom etayotganini his qiladi. Yolg'izlik poetikasida tovush, balandlik va sukunatning o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega. Ba'zan qo'ng'iroqning jiringlashi yoki shamolning g'uvillashi kabi uzoq tovush qahramonning psixologik holatini yoritish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Yolg'izlik motivi poetikasi shaxs va jamiyat o'rtasidagi masofani badiiy ravishda kuchaytiradi. Bu bo'shliq ham jismoniy, ham ma'naviy yoki ruhiy ajralish sifatida ifodalanadi. Yolg'izlik poetikasining yana bir muhim elementi - bu o'zini kuzatish holatini bildiruvchi aks ettirishdir. Qahramon o'z holatini tashqi nuqtai nazardan o'rganib, o'zini o'zi tahlil qiladi. Bu badiiy bilishni kuchaytirishga yordam beradi. (6).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek nasrida yolg'izlik motivi inson ruhiyatini ochib beruvchi muhim badiiy va falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu motiv nafaqat ijtimoiy ajralish holatini, balki insonning o'z-o'zi bilan bo'lgan murakkab ichki dialogini, mavjudlik mazmunini anglash jarayonini ham ifodalaydi. Yolg'izlikning ildizlari qadimgi diniy va falsafiy qarashlarga borib taqalib, u turli davrlarda turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, zamonaviy adabiyotda u yanada chuqur psixologik mazmun kasb etgan. Nazar Eshonqul ijodida yolg'izlik ramziy obrazlar, psixologik tahlil va badiiy eksperimentlar orqali ifodalanib, qahramonlarning ichki inqirozi va o'zlikni anglash jarayoni bilan uzviy bog'lanadi. Ayniqsa, ramzlarning dinamik xarakterga ega bo'lishi, voqelik va ichki kechinmalar o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishi orqali yozuvchi inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beradi. Uning asarlarida yolg'izlik nafaqat ruhiy holat, balki ekzistensial muammo sifatida talqin qilinadi. Umuman olganda, zamonaviy o'zbek nasrida yolg'izlik motivi badiiy tafakkurning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u insonning ichki olamini anglash, ruhiy ziddiyatlarni yoritish va hayot mazmunini izlash jarayonida muhim vosita vazifasini bajaradi. Bu esa adabiyotning inson ruhiyatini tadqiq etishdagi beqiyos ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarov, A. Adabiy tafakkur va zamonaviylik masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 198 b.
2. Ashurova, D. Badiiy matn va psixologik tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 176 b.
3. Nazarov, U. Adabiyot va inson ruhiyati. – Toshkent: Fan, 2023. – 210 b.
4. Mirzayev, S. Adabiy jarayon va estetik qarashlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – 200 b.



RAQOBATBARDOSHLIK DARAJALARI VA TOVAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH BOSQICHLARI

*Xoliqulov Anvar Nematovich – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasini mudiri, i.f.n.,
professor*

Har qanday mamlakatda ichki bozorda raqobatning mavjudligi bozor xo‘jaligi muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi, jahonning ko‘plab mamlakatlarida, shu jumladan, o‘tish iqtisodiyotyga ega bo‘lgan mamlakatlarda raqobat to‘g‘risida qonunlarning qabul qilinganligi va mazkur masalalar bilan shug‘ullanuvchi milliy tashkilotlarning tashkil etilganligi ushbu holatni tasdiqlab turibdi. Xususan O‘zbekistonda Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (Monopoliyaga qarshi qo‘mita) tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati respublika iqtisodiyotida raqobat muhitini yaratish, mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va firmalar, shu jumladan, mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va firmalar xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun teng raqobat imkoniyatlarini barpo etishga yo‘naltirilgan.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – bu iqtisodiyotning muxim ko‘rsatkichlari holatini tashqi parametrlarga nisbatan yalpi baholashni o‘zida mujassam etgan qiyosiy tavsif hisoblanadi, shu sababli milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi xalqaro raqobatda namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi namoyon bo‘lishning ko‘p darajali shakllariga ega:

- tovarning raqobatbardoshligi;
- xodimning raqobatbardoshligi;
- tovar ishlab chiqaruvchisining raqobatbardoshligi;
- tarmoqning raqobatbardoshligi;
- mamlakatning raqobatbardoshligi (yoki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi).

Bunda raqobatbardoshlikning barcha darajalari o‘rtasida jips ichki va tashqi o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Mamlakat va tarmoqning raqobatbardoshligi pirovardida muayyan tovar ishlab chiqaruvchining raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish qobiliyatiga bog‘liq. Milliy iqtisodiyotning "Barqaror strategiya, tuzilma va raqobatchilik" sifatida belgilangan raqobat jihatdan ustunligini shakllantirishning eng muxim omilini ko‘rib chiqamiz. Demak, mamlakatda kompaniyani tashkil etish va boshqarish tendensiyalariga ta‘sir ko‘rsatuvchi ma‘lum sharoitlarning mavjudligi ham ichki raqobatning xususiyatini belgilab beradi.

Ta‘kidlash joizki, raqobat jihatdan ustunliklarni shakllantirish uchun mehnatga va xodimlarning kasbiy ko‘nikmalarini oshirishga shaxsiy qiziqtirish ham muxim rol o‘ynaydi. So‘nggi o‘n



yilliklar iqtisodiy amaliyoti shuni isbotlamoqdaki, buyuk iqtidor va qobiliyat sohiblari millat uchun eng katta va ahamiyatli resurs hisoblanadi, chunki mamlakat erishayotgan yutuqlar ko'p jihatdan ushbu iqtidor sohiblari tanlaydigan ta'limning darajasi va xiliga, qaerda ishlashni afzal ko'rishiga, ularning ishlashiga va harakat qilishiga bog'liq. Shuning uchun mamlakatlar insonlar nuqtai nazaridan nufuzli yoki undan milliy qahramonlar yetishib chiqadigan iqtisodiy faoliyatni raqobatbardosh qilishga intiladi.

Tovar raqobatbardoshligini baxolash asosan uch boskichdan iborat. bular quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich — bozorni tahlil etish va qiyos tarzida foydalanish uchun eng raqobatbardosh namuna-tovarni tanlash. Namunani tanlash raqobatbardoshlikni taxlil kilishning eng mas'uliyatli vazifalaridan biri xisoblanadi. By boskichda xatolarga yo'l ko'yish jami ish natijalarini yo'kka chikarishi mumkin. Namuna taxlil kilinadigan tovar mansub bo'lgan tovarlar guruxidan, shu bozorga xos, keng doirada xaridorlar xurmatini kozongan bo'lishi lozim.

Ikkinchi bosqich - ikkala tovarda qiyoslanadigan tomonlar majmuini belgilash. Shuni ta'kidlash lozimki, bozorga chiqarish muljallanayotgan (loyihalanayotgan) tovar bilan bozorda bo'lgan tovarning parametrlari shunchaki oddiy qiyoslanadigan bo'lsa, raqobatchi tovarlar xaridorlar extiyojlarini qay darajada qondira olishi hamda xaridorlarning kelajakdagi talablariga qay darajada javob bera olishi masalasi e'tibordan chetda qoladi. Shu sababli har qanday loyiha eng mukammal ma'noda iste'molchilarning ehtiyojlarini aniq-ravshan ifodalashdan boshlanmog'i lozim.

Uchinchi bosqich - tashkiliy parametrlar- yetkazib berish shartlari, yetkazib berishning butligi, kafolat muddatlari, shartlari va boshkalar.

Tovarning iste'mol parametrlari majmuini aniklash — uning raqobatbardoshligini taxlil kilishdagi eng muxim ish xisoblanadi. Shundan keyin bu parametrlarning ierarxiyasi belgilanadi, bunda istemolchi uchun eng muxim bo'lgan tomonlar birinchi o'ringa ko'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 104 b.
3. Parдав M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet bet. T.:



4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo‘shib olish. O‘quv qo‘llanma Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. Samarqand, SamDCHTI nashrmatbaa markazi, 2020 yil – 126 bet
6. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
7. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet
8. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, Turonnashr nashriyoti, 2021 y. – 210 bet.



RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING M. PORTER MODELI (MILLIY ROMB)

Xoliqulov Anvar Nematovich – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasini mudiri, i.f.n.,
professor

M. Porter konsepsiyasiga asoslangan zamonaviy model mamlakatning umumiy xususiyatga ega bo'lgan va unda ishlab chiqaruvchilar raqobatlashadigan raqobat muhitini shakllantiruvchi 4 ta xususiyatdan iborat. Ushbu muhit raqobat ustunliklarini shakllantirishga ko'maklashishi ham yoki unga to'sqinlik qilishi ham mumkin.



Mamlakatning raqobat ustunliklari determinantlari

“Omillar uchun shart-sharoitlar” determinanti

Ishlab chiqarish omillari nazariyasi buyicha tovar aylanishining okimi ishlab chikarishning mexnat, yer, tabiiy resurslar, sarmoya, infratuzilma kabi omillarini belgilab beradi. Mamlakatda ishlab chikarish omillarining mavjudligi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun xal kiluvchi rol uynamaydi. Ishlab chikarish omillarini shakllantirish va yangilashning tezligi va samaradorligi xamda iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlarida kullash muximdir. ijtimoiy ishlab chikarish jarayonida kishilar bilan tabiat urtasidagi boglanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan elementlar tizimidan iborat.

Umuman olganda, hududiy omilning roli nafaqat muhim, balki universal hamdir. Shu munosabat bilan M.Porterning nuqtai nazari g'oyat muhim bo'lib, uning qat'iy ta'kidlashiga ko'ra, mintaqaning geografik o'rni raqobatchilik uchun fundamental ahamiyat kasb etadi, “...jahon iqtisodiyoti sharoitida raqobatdagi barqaror ustunliklar ko'proq hollarda va ko'proq darajada mahalliy ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajada ixtisoslashgan kasbiy malakalar va bilimlar, institutlar, raqiblar, o'zaro bog'langan iqtisodiy faoliyat turlari, shuningdek muayyan mamlakat yoki mintaqadagi ko'pni ko'rgan va tajribali iste'molchilarning bir yerda



to'planishidan yuzaga keladi. Geografik, madaniy va tashkiliy jihatdan yaqinlik axborotdan maxsus foydalanish imkoniyati, alohida munosabatlar, axborotga to'liq ega bo'lish, qudratli rag'batlantiruvchi omillarning yuzaga kelishi, shuningdek masofadan turib ega bo'lish qiyinchilik tug'diradigan ishlab chiqarishdagi boshqa afzalliklarni ta'minlab beradi... . Geografik holat, avvalgi o'n yilliklardagidan boshqacharoq ma'noda bo'lsa-da, XXI asr chegarasida ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda”.

Bunda muayyan hududga aniq “bog'langan” “hayot sifati” deb ataluvchi sintetik tushuncha raqobatbardoshlikning eng muhim jihati bo'lib qoladiki, bu tushuncha har xil ko'lamdagi turli-tuman hodisalarni o'z ichiga oladi: bandlik masshtablari va xarakteri hamda mehnat sharoiti, ta'lim va savodxonlik darajasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik va uning qulayligi, ijtimoiy ta'minot tizimi, ekologik yashash sharoitlari va h.k.

Bularning hammasi esa hududiy jihatdan lokal (turg'un) joylashgan bozor potensialini, innovatsion va investitsion iqlimni, o'z ixtiyoridagi barqaror iqtisodiy takror ishlab chiqarishning ham, iste'molchilik standartlari, texnologiyalar, tovarlar, xizmatlar va kapitallarni boshqa minrtaqalarga “olg'a siljitish”ning ham imkoniyatlarini avvaldan belgilab beradi.

Turdosh va kullab-kuvvatlovchi tarmoklar determinanti kuyidagi kursatkichlar orkali ifodalanadi:

- Mamlakat siyosiy va xukukiy tizimining barkarorligi;
- Insonni rivojlantirishga (ta'lim, sog'likni saklash, ijtimoiy extiyojlarga) katta kuyilmalar;
- Axoli xayot kechirishining uzokligi;
- Ishchi kuchi resurslarining rakobatbardoshligi;
- Mamlakat axolisi ta'lim darajasining yukoriligi.

Michael E. Porter modeli (Milliy romb modeli) — bu mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligini tushuntiradigan iqtisodiy modeldir. U 1990-yilda The Competitive Advantage of Nations kitobida taqdim etilgan.

Modelga ko'ra, bir davlatning ayrim sohalarda global muvaffaqiyatga erishishi to'rtta asosiy omil bilan belgilanadi. Bu omillar romb (diamond) shaklida tasvirlanadi.

1. Ishlab chiqarish omillari (Factor Conditions)

Bu mamlakatdagi resurslar va imkoniyatlarni anglatadi:

- malakali ishchi kuchi
- tabiiy resurslar
- infratuzilma (transport, aloqa)
- ilm-fan va texnologiya



Masalan, yuqori malakali muhandislar mavjud bo'lsa, mamlakat texnologik sohalarda ustunlikka ega bo'lishi mumkin.

2. Ichki talab sharoiti (Demand Conditions)

Mamlakat ichidagi iste'molchilar talabi qanchalik rivojlangan va talabchan ekanligi muhim.

- talabchan mijozlar kompaniyalarni innovatsiyaga majbur qiladi
- ichki bozor katta va rivojlangan bo'lsa, kompaniyalar tez rivojlanadi

Masalan, texnologiyaga talab yuqori bo'lgan davlatlarda IT kompaniyalar tez rivojlanadi.

3. Yondosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar (Related and Supporting Industries)

Bir sohaning rivojlanishi uchun unga bog'liq tarmoqlar ham rivojlangan bo'lishi kerak.

Masalan:

- avtomobil sanoati uchun metallurgiya
- IT uchun elektronika va telekommunikatsiya

Bu tarmoqlar bir-birini qo'llab-quvvatlab, klaster hosil qiladi.

4. Firma strategiyasi, tuzilmasi va raqobati (Firm Strategy, Structure and Rivalry)

Mamlakat ichidagi raqobat darajasi juda muhim.

- kuchli ichki raqobat
- samarali boshqaruv tizimi
- strategik qarorlar

Ichki raqobat kuchli bo'lsa, kompaniyalar global bozorda ham kuchli bo'ladi.

Qo'shimcha 2 omil

Porter keyinchalik modelga yana 2 ta tashqi omilni qo'shgan:

1. Hukumat (Government) – siyosat, qonunlar, soliq tizimi
2. Tasodifiy hodisalar (Chance) – urushlar, texnologik kashfiyotlar, global krizislar

Xulosa: Porterning milliy romb modeli mamlakatlar nima sababdan ayrim sanoat tarmoqlarida global ustunlikka ega bo'lishini tushuntiradi. Model davlatlar va kompaniyalarga raqobat strategiyasini ishlab chiqishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 104 b.



3. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet bet. T.:
4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo‘shib olish. O‘quv qo‘llanma Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. Samarqand, SamDCHTI nashrmatbaa markazi, 2020 yil – 126 bet
6. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
7. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet
8. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, Turonnashr nashriyoti, 2021 y. – 210 bet.



RAQOBATNING IQTISODIY MAZMUNI VA SHAKLLANISHINING ASOSIY TAMOYILLARI VA RAQOBAT NAZARIYALARI

A.N.Xoliqulov – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasini mudiri, i.f.n., professor,
“Ipak yo‘li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Xalqaro biznes va kreativ
iqtisodiyot” kafedrasini professori

Raqobat - iqtisodiy kategoriya sifatida bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo‘jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi, bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o‘zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat’iy nazar raqobatning mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o‘z shakllarini o‘zgartirib boradi.

Raqobat tushunchasi shu qadar serqirradi, uni qandaydir yagona umumiy ta’rif bilan qamrab olish mumkin emas. «Raqobat» tushunchasini aniqlashtirishning ba’zi bir nuqtai nazarlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqobat tushunchasi turli izohli lug‘at va ma’lumotnomalarda turlicha ta’riflanadi. Jumladan, «Yazyk biznesa» nomli lug‘atda: «Raqobat (lotincha concurrere – to‘qnashuv; inglizcha competition, rivalry) – bozorda ishtirok etayotgan korxonalar o‘rtasidagi o‘z mahsulotlarini sotishning eng qulay imkoniyatlarini ta’minlash, xaridorlarning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi o‘zaro ta’sir, o‘zaro aloqa va kurash iqtisodiy jarayonidir.

Raqobatning mohiyatini belgilab beruvchi asosiy jihatlar





Rasm 1.1. Raqobatning mohiyatini belgilab beruvchi asosiy jihatlar

Raqobat va monopoliya dialektik birlikni tashkil etib, doimo bozorda bir-birlariga qarama-qarshi turadilar», deb ifodalangan. Bundan ko‘rinadiki, raqobatni nafaqat kurash, balki o‘zaro ta‘sir va aloqa jarayoni sifatida ham talqin etilgan. Raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari haqida dastlabki to‘laqonli nazariy qoidalar faqat XVIII asrning o‘rtalariga kelib paydo bo‘lgan.

Har bir bozor o‘zining xususiyatlariga ega bo‘lishiga qaramay, raqobatning mohiyati uning tabiati va intensivligini ochib berish va baholash imkonini beruvchi yagona konsepsiya orqali ifodalanishi mumkin.

Raqobat –bozor sub‘ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

Raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari haqida dastlabki to‘laqonli nazariy qoidalar faqat XVIII asrning o‘rtalariga kelib paydo bo‘lgan. Bunda klassik siyosiy iqtisod vakillari sanalgan A.Smit va D.Rikardoning xizmatlari kattadir. Keyingi davrlarda F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leontev, Y.Shumpeter, P.Sraffa, M.Porter, F.Kotler va boshqalarning mehnatlari tufayli raqobat nazariyasi yanada rivoj topdi. Raqobat mohiyatiga to‘xtalar ekanmiz, uni asosan uch xil yondashuvga bo‘lish mumkin. Jumladan, xulq-atvor yondashuvi, strukturali yondashuv va funksional yondashuv.

Raqobatning xulq-atvor yondashuviga A.Smitning qarashlarini kiritish mumkin. U raqobatni bozor sub‘ektlari o‘rtasida tovarlar xarid qilish va sotish borasida qulayroq sharoitlar uchun olib boriladigan, to‘g‘ri, halol, til biriktirishlarsiz kurash, musobaqa bilan bog‘lagan. U raqobat kurashining asosiy usuli deb narx o‘zgarishlarini bilgan. Bunda u jamoa irodasi (ixtiyori) bilan boshqarilmaydigan, umumiy mo‘ljallarga ega bo‘lmagan bozorda qat‘iy xulq-atvor qoidalariga amal qilishini qayd etgan. Demak, raqobat–bozor qatnashchilari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi aynan o‘sha «ko‘rinmas qo‘l»dir.

F.Perru raqobatni doimiy tahdidli harakat sifatida tushuntiradi. Inson o‘z manfaatini ko‘zlab qimmatroq sotib, arzon xarid qilishga intiladi. Shuning uchun raqobat bilan doimiy to‘qashishga to‘g‘ri keladi.

Strukturali yondashuvda asosiy e‘tibor raqobatchilarning o‘zaro kurashidan bozor strukturasi, unda hukmronlik qiluvchi shart-sharoitlar tahliliga ko‘chib o‘tadi. Masalan, K.R. Makkonnell va S.L. Bryuning asarlarida aytib o‘tilishicha, raqobat bozorda ko‘p sonli mustaqil xaridor va sotuvchilar mavjudligi, xaridor va sotuvchilar uchun bozorga erkin kirish va undan chiqish imkoniyatidir.



Raqobat mohiyatini aniqlashga uchinchi yondashuvni funksional yondashuv sifatida tavsiflash mumkin. U raqobatning iqtisodiyotda o'ynaydigan rolini ko'rib chiqadi. Xususan, Y.Shumpeter iqtisodiy rivojlanish nazariyasi doirasida raqobatni eskilikning yangilik bilan raqiblik kurashi sifatida ta'riflagan. Yangiliklar kiritish bozor tomonidan shubha bilan qabul qilinadi, biroq agar novator ularni amalga oshirishning uddasidan chiqsa, raqobat mexanizmi eskirgan texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalarni bozordan siqib chiqaradi.

Bugungi kunda raqobat tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Jumladan, Sh.Shodmonov, U.G'afurovlar tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida raqobatga berilgan ta'rifda asosan ikki jihat: 1) uning iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvidan iborat ekanligi; 2) yuqori foyda va naflikka ega bo'lish uchun kurash ilgari suriladi, ya'ni: **raqobat – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.** Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar uchun, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 104 b.
3. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet bet. T.:
4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo'shib olish. O'quv qo'llanma Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monogpafiya. Samarqand, SamDCHTI nashrmatbaa markazi, 2020 yil – 126 bet
6. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
7. Xoliqulov A.N. Xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet

¹ Xodiyev B.Y., SHodmonov SH.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Barkamol Fayz media», 2017, 159-6.



8. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. Samarqand, Turonnashr nashriyoti, 2021 y. – 210 bet.



RAQOBAT STRATEGIYASI, BOSQICHLARI, RAQOBATNING ASOSIY VAZIFALARI, TURLARI VA USULLARI

A.N.Xoliqulov – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasini mudiri, i.f.n., professor,
“Ipak yo‘li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Xalqaro biznes va kreativ
iqtisodiyot” kafedrasini professori

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko‘rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo‘ladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Raqobatning vazifalari:

1. Tartibga solish vazifasi
2. Resurslarni joylashtirish vazifasi
3. Innovatsion vazifa
4. Moslashtirish vazifasi
5. Taqsimlash vazifasi
6. Nazorat qilish vazifasi

Raqobat kurashining mazmuni to‘g‘risida to‘laroq tushunchaga ega bo‘lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko‘rib chiqish zarur. O‘z miqyosiga ko‘ra raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo‘linadi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, qo‘shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalarini o‘rtasida boradi. Har bir tarmoqdagi mavjud korxonalarining texnika bilan ta‘minlanish va mehnat unumdorligi darajalari turlicha bo‘lganligi sababli, ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo‘lmaydi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo‘lib ishlab chiqaruvchilarning o‘z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo‘llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo‘ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo‘lib, mazkur tovar narxini pasaytirish imkonini beradi. Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – demping



narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsuloti narxini pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday harakat qilishiga olib keladi. Natijada firmalarning bozordagi mavqei o'zgarmay, faqat tarmoq bo'yicha foyda hajmini kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi

Bozor iqtisodiyotining ilk belgilari paydo bulishi bilan unga xos raqobat xam yuzaga keladi. Iqtisodiyot rivojiga mos xolda raqobatchilik munosabatlari xam takomillashib boradi. Bozor raqobati tarixan 4 bosqichdan utadi.

Birinci bosqich - bu natural xo'jalikdan bozor iqtisodiyotining dastlabki shakllariga o'tish bo'lib, bu davrda raqobat mayda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida boradi. Bu bosqichda raqobat maxalliy bozorlar doirasida borasida, u bir turdagi tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida bo'ladi. Raqobatda golib chiqish vositasi tajriba to'plab, mehnat mahoratini oshirish hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich - bu kapitalistik erkin raqobat bosqichidir. Bu bosqich tovar xo'jaligining ommaviy tus olishi bilan, mayda tovar ishlab chiqarish o'rniga yirik mashinalar tizimiga va yollangan mehnatga tayangan tovar ishlab chiqarishning kelishi bilan karakterlanadi. Raqobatni cheklashlar bo'lmaydi, u erkin kurashga aylanadi, bu kurash mahalliy bozorlar doirasidan chiqib, milliy bozor miqyosida yuz beradi. Raqobat shiddatli boradi, uning ishtirokchilari ko'pchilikdan iborat bo'ladi. Raqobatda golib chiqishning sharti yangi texnikani joriy etib, mehnat unumdorligini ustirish, yangi tovarlarni ishlab chiqarish bo'ladi.

Uchinchi bosqich - bu monopol raqobat bosqichi bo'lib, u yakka xokimlikka intiluvchi yirik korxonalarining kurashidir. Raqobat iqtisodni monopollashgan va monopollashmagan sohalarida alohida boradi, ammo bu sohalar o'rtasida ham kurash ketadi. Raqobatda yengib chiqish shartlari ikkinchi bosqichdagidek bo'ladi, ammo o'zaro kurashda bozorni egallab olish, siyosiy xokimiyatdan foydalanish kabilar keng qo'llanadi. Bu bosqichda monopol raqobat



yetakchi bo'lsa-da, erkin raqobat yo'qolib ketmaydi, u ikkinchi qatorga suriladi. Iqtisodiyotda monopol raqobat sohasi va erkin raqobat sohalariga ajralish bo'ladi.

To'rtinchi bosqich - yangicha erkin raqobat bosqichi bo'lib, u aralash iqtisodiyotga xosdir. Bu bosqichda raqobatchilar g'oyat ko'pchilik bo'lib, ular yirik korporatsiyalar, o'rtacha, mayda va o'ta mayda korxonalaridan iborat bo'ladi. Raqobat doirasi kengayib, u ishlab chiqarishdan tashqari, xizmat ko'rsatish sohasida ham faollashadi, u moliya bozoriga shiddat bilan kirib boradi, hatto sayohat biznesi, shou (tomosha) biznes, sport biznesi, harbiy biznes kabilarni xam o'z domiga tortadi. Raqobatlashuv baynalmilallashib, xalqaro bozor doirasida ham yuz beradi. Eng yangi texnika-texnologiyani qo'llash, boshqarishni kompyuterlashtirish, tovar tarkibini zudlik bilan yangilash, eng malakali ish kuchiga ega bo'lish, informatsiyadan foydalanish va, nihoyat, zamonaviy marketing xizmatini uyushtirish raqobatda yengib chiqish shartiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 104 b.
3. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 410 bet bet. T.:
4. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo'shib olish. O'quv qo'llanma Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet
5. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monogpafiya. Samapqand, SamDCHTI nashr-matbaa markazi, 2020 yil – 126 bet
6. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
7. Xoliqulov A.N. Xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet
8. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. Samarqand, Turonnashr nashriyoti, 2021 y. – 210 bet.



SULTON SAODAT MAJMUASINING TARIXIY-ME'MORIY AHAMIYATI VA ZIYORAT TURIZMIDAGI O'RNI

Abdumóminova Dilafruz Davlatgeldiyevna
Termiz shahar 2-son texnikumi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda Surxondaryo viloyatining Termiz hududida joylashgan Sulton Saodat majmuasining tarixiy shakllanishi, me'moriy tuzilishi, diniy-ma'naviy ahamiyati hamda ziyorat turizmini rivojlantirishdagi o'rni IMRAD talablari asosida tahlil qilinadi. Sulton Saodat majmuasi Termiz sayyidlari bilan bog'liq muqaddas maskan bo'lib, u X–XVII asrlar oraliq'ida bosqichma-bosqich shakllangan yirik me'moriy ansambl sifatida baholanadi. Majmua maqbaralar, masjid, xonaqoh va hovli atrofida joylashgan diniy inshootlar tizimidan iborat bo'lib, uning me'moriy yechimida mahalliy Termiz maktabi, Xuroson me'morchiligi an'analari va islomiy ziyorat madaniyati o'zaro uyg'unlashgan. Tadqiqotda tarixiy-manbashunoslik, tavsifiy tahlil, me'moriy-kompozitsion yondashuv va madaniy merosni baholash usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Sulton Saodat majmuasi faqatgina qadimiy maqbaralar majmui emas, balki Termizning diniy-ma'naviy xotirasi, sayyidlar sulolasining tarixiy izlari va hududiy turizm salohiyatini kuchaytiruvchi muhim madaniy obyekt hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Sulton Saodat, Termiz, Surxondaryo, sayyidlar, maqbara, ziyorat turizmi, me'moriy meros, madaniy xotira, Xuroson me'morchiligi, tarixiy ansambl.

KIRISH

O'zbekiston hududi qadimdan Sharq va G'arb sivilizatsiyalari tutashgan, turli diniy, madaniy va ilmiy an'analar shakllangan yirik tarixiy makonlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Surxondaryo vohasi va Termiz shahri qadimgi Baqtriya, Kushon davlati, islomiy ilm-fan, tasavvuf va ziyorat madaniyati rivojida alohida o'rin tutgan. Termizning tarixiy qiyofasini shakllantirgan yodgorliklar orasida Hakim at-Termiziy maqbarasi, Qoratepa, Fayoztepa, Qirq qiz qal'asi, Kokildor ota xonaqohi va Sulton Saodat majmuasi muhim ahamiyatga ega. UNESCOning "Ancient Termiz" nomli taxminiy ro'yxat ma'lumotida Sulton Saodat majmuasi qadimgi Termiz merosini tashkil etuvchi yodgorliklar qatorida tilga olinadi. Bu holat majmuaning nafaqat mahalliy, balki xalqaro madaniy meros nuqtayi nazaridan ham e'tiborga loyiq ekanini ko'rsatadi.

Sulton Saodat majmuasi Termiz shahridan taxminan 3 kilometr uzoqlikda, Surxondaryo sohiliga yaqin hududda joylashgan bo'lib, u qadimgi sayyidlar oilasi vakillarining oilaviy xilxonasi sifatida shakllangan. Uzbekistan.travel ma'lumotlariga ko'ra, "Sulton Saodat" nomi arabcha mazmunda "sayyidlar hukmronligi" yoki "sayyidlar sultoni" ma'nosini anglatadi;



Termiz sayyidlari esa musulmon an'analarida Payg'ambar Muhammad avlodlari sifatida e'zozlangan. Shu sababli majmua nafaqat me'moriy obyekt, balki diniy e'tiqod, nasab xotirasi va ziyorat an'analarini mujassamlashtirgan tarixiy maskandir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda madaniy meros obyektlarini asrash, ularni ilmiy asosda o'rganish va turizm salohiyatiga uyg'un tarzda kiritish O'zbekistonning muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sulton Saodat majmuasi bu borada katta imkoniyatga ega, ammo obyektning tarixiy mohiyati, me'moriy tuzilishi va ziyorat turizmidagi o'rni ko'pincha umumiy tavsif darajasida yoritiladi. Asl muammo shundaki, majmua faqat "ziyoratgoh" sifatida emas, balki ko'p asrlik me'moriy evolyutsiya, diniy-sulolaviy xotira va hududiy identitet markazi sifatida tahlil qilinishi kerak. Aks holda uning ilmiy, tarbiyaviy va turistik qiymati yuzaki talqin qilinadi.

Ushbu tezisning maqsadi Sulton Saodat majmuasining tarixiy shakllanish bosqichlari, me'moriy-kompozitsion xususiyatlari va zamonaviy ziyorat turizmidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari majmuaning tarixiy manbalardagi o'rnini yoritish, arxitektura tuzilmasini tahlil qilish, diniy-ma'naviy mazmunini ochib berish hamda uni madaniy turizm nuqtayi nazaridan baholashdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda bir necha ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy usul Sulton Saodat majmuasining shakllanish davrlari, Termiz sayyidlari bilan bog'liqligi va hududiy tarixdagi o'rnini izohlashga xizmat qildi. Me'moriy-kompozitsion tahlil orqali majmuaning hovli atrofida joylashgan maqbaralar, masjid va xonaqoh kabi inshootlardan iborat ansambl sifatidagi tuzilishi o'rganildi. Tavsifiy metod majmuaning tashqi ko'rinishi, gumbazli maqbaralar tizimi, peshtoq, ravoq, hovli va pishiq g'isht asosidagi qurilish an'analarini yoritishga imkon berdi.

Shuningdek, tadqiqotda madaniy merosni baholash yondashuvi qo'llanildi. Bu yondashuv orqali obyektning faqat tarixiy yoki diniy emas, balki ijtimoiy, tarbiyaviy va turistik ahamiyati ham tahlil qilindi. Manba sifatida UNESCOning Ancient Termiz bo'yicha ma'lumotlari, Uzbekistan.travel portali, Meros.uz platformasi va tarixiy-me'moriy yodgorliklar haqidagi ochiq ma'lumotlardan foydalanildi. Meros.uz ma'lumotlarida Sulton Saodat majmuasi Surxondaryo viloyatidagi me'morchilik inshooti va diniy obyekt sifatida ko'rsatiladi. Bu ma'lumot majmuaning madaniy meros obyektlari tizimidagi rasmiy tasnifini aniqlashda muhimdir.

Metodologik jihatdan tadqiqotda bir muhim cheklov mavjud: Sulton Saodat majmuasi bo'yicha ayrim manbalarda sanalar turlicha beriladi. Ba'zi manbalarda majmuaning shakllanishi X–XVII asrlar bilan, boshqalarida XI–XVII asrlar bilan bog'lanadi. Bu tafovut majmuaning bir davrda to'liq qurilmaganligi, balki turli asrlarda bosqichma-bosqich



kengayganligi bilan izohlanadi. Shu sababli tezisda majmua qat'iy bitta sana bilan emas, balki uzoq tarixiy jarayon mahsuli sifatida talqin qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Sulton Saodat majmuasining uch asosiy jihatini ko'rsatadi: tarixiy-sulolaviy ahamiyat, me'moriy-ansambl xususiyati va ziyorat turizmidagi salohiyat.

Birinchi natija shuki, Sulton Saodat majmuasi Termiz sayyidlari tarixining moddiy ifodasi hisoblanadi. Majmua sayyidlar, ya'ni islomiy an'anaga ko'ra Payg'ambar avlodlari deb e'tirof etilgan sulola vakillari bilan bog'liq. Bu holat majmuaning diniy maqomini kuchaytiradi. Oddiy maqbaradan farqli ravishda, Sulton Saodat avlod, nasab, e'tiqod va mahalliy tarixni birlashtirgan xotira makoni sifatida shakllangan. Uzbekistan.travel portalida majmua qadimgi sayyidlar oilasi vakillarining oilaviy xilxonasi sifatida tavsiflanadi. Demak, majmuaning asosiy mazmuni faqat dafn marosimi bilan emas, balki avlodlar davomiyligi va diniy hurmat madaniyati bilan bog'liq.

Ikkinchi natija majmuaning me'moriy tuzilishiga tegishli. Sulton Saodat bir nechta alohida binolarning mexanik yig'indisi emas, balki vaqt o'tishi bilan shakllangan yaxlit ansamblidir. Uzbek-travel ma'lumotlariga ko'ra, majmua XI–XVII asrlarda Termiz sayyidlari qabrlari atrofida rivojlangan bo'lib, uning tarkibiga maqbaralar, masjid va xonaqoh kabi diniy inshootlar kiradi; ular cho'zilgan hovli perimetri bo'ylab joylashgan. Bunday kompozitsiya ziyoratchining harakat yo'nalishini, ichki hovli muhitini va maqbaralar orasidagi ruhiy bog'liqlikni tashkil qiladi. Gumbazli maqbaralar, pishiq g'ishtdan foydalanish, ravoqli kirish qismlari va bezakdagi vazminlik majmuaning me'moriy ko'rinishini belgilaydi.

Uchinchi natija shundan iboratki, Sulton Saodat majmuasi Termiz me'morchilik maktabining Xuroson an'analari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Advantour ma'lumotida Termiz vohasi yodgorliklari, jumladan Sulton Saodat majmuasi, geografik va tarixiy xususiyatlariga ko'ra Xuroson me'morchiligi bilan aloqador holda baholanadi. Bu fikr muhim, chunki Termiz tarixan Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Eron va Hindiston yo'nalishlari bilan bog'langan madaniy chorraha bo'lgan. Majmua me'morchiligidagi soddalik, g'isht naqshlari, gumbazli hajm va ichki hovli tamoyili shu madaniy almashinuvning natijasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

To'rtinchi natija ziyorat turizmi bilan bog'liq. Sulton Saodat majmuasi bugungi kunda Surxondaryo viloyatida diniy-ma'rifiy turizm yo'nalishlarini rivojlantirish uchun muhim obyektlardan biridir. U Termizdagi boshqa yodgorliklar bilan birgalikda yagona tarixiy-marshrut tizimiga kiritilishi mumkin. Bunda majmua Hakim at-Termiziy maqbarasi, Qoratepa, Fayoztepa, Qirq qiz va Kokildor ota kabi obyektlar bilan mazmunan bog'lanadi. UNESCOning Ancient Termiz bo'yicha ro'yxatida mazkur obyektlarning bir hududiy meros tizimi sifatida ko'rsatilgani bunday yondashuvni asoslaydi.



Sulton Saodat majmuasining asosiy ahamiyatini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Tahlil yo'nalishi	Asosiy mazmuni	Ilmiy ahamiyati
Tarixiy ahamiyat	Termiz sayyidlari sulolasi bilan bog'liq	Mahalliy tarix va nasab xotirasini yoritadi
Me'moriy ahamiyat	Maqbara, masjid, xonaqoh va hovli ansambli	Termiz-Xuroson me'moriy an'alarini ko'rsatadi
Diniy-ma'naviy ahamiyat	Ziyoratgoh va muqaddas xotira maskani	E'tiqod, hurmat va tarbiya madaniyatini shakllantiradi
Turistik ahamiyat	Ziyorat va madaniy turizm obyekti	Surxondaryo turizm salohiyatini oshiradi
Tarbiyaviy ahamiyat	Yosh avlodni merosga hurmat ruhida tarbiyalaydi	Milliy identitet va tarixiy ongni mustahkamlaydi

MUHOKAMA

Sulton Saodat majmuasini baholashda eng muhim masala uning ko'p qatlamli mazmunini to'g'ri anglashdir. Agar majmua faqat qadimiy maqbaralar majmui sifatida qaralsa, uning ijtimoiy, diniy va madaniy funksiyasi cheklanib qoladi. Aslida esa u tarixiy xotira, sulolaviy maqom, me'moriy tajriba va ziyorat madaniyatining tutashgan nuqtasidir. Bu jihatdan Sulton Saodat majmuasi Termiz tarixini o'rganishda mustaqil tadqiqot obyekti bo'lishga loyiq.

Majmuaning kuchli tomoni uning tarixiy uzluksizligidadir. X–XVII asrlar davomida shakllangan ansambl bir necha siyosiy, madaniy va diniy davrlarni boshdan kechirgan. Bu esa uning oddiy qurilish inshooti emas, balki asrlar davomida muqaddas deb qabul qilingan makon bo'lganini anglatadi. Biroq aynan shu jihat tadqiqotda muammo ham tug'diradi: turli asrlarda qurilgan qismlar bir butun majmua sifatida qabul qilinsa-da, ularning har biri alohida davr me'moriy didi va texnikasini aks ettiradi. Shu sababli kelgusida majmuaning har bir qismi alohida arxeologik, epigrafik va restavratsion tadqiqot asosida o'rganilishi kerak.

Yana bir muhim masala — turizm va muqaddaslik o'rtasidagi muvozanatdir. Ziyorat turizmini rivojlantirish obyektni ommalashtiradi, hudud iqtisodiyotiga foyda keltiradi, mahalliy aholining xizmat ko'rsatish sohasidagi imkoniyatlarini kengaytiradi. Ammo haddan tashqari tijoratlashtirish majmuaning ruhiy-ma'naviy muhitiga zarar yetkazishi mumkin. Bu yerda eng to'g'ri yondashuv "ehtiyotkor turizm" modelidir. Ya'ni, ziyoratchilar va sayyohlar oqimini oshirish bilan birga, yodgorlikning tarixiy qiyofasi, sokin muhit va diniy odob normalari saqlanishi kerak.

Majmuaning yana bir zaif jihati — ommaviy axborot va ilmiy targ'ibotda yetarlicha chuqur yoritilmasligidir. Ko'plab sayyohlik materiallarida Sulton Saodat haqida qisqa tavsiflar



beriladi, lekin uning me'moriy evolyutsiyasi, Termiz sayyidlari tarixi, Xuroson me'morchiligi bilan bog'liqligi va mahalliy identitetdagi o'rni yetarlicha ochilmaydi. Bu esa obyektning yuzaki "ko'rib ketiladigan joy"ga aylantirib qo'yish xavfini tug'diradi. Eng kichik, ammo real yechim — majmuada ko'p tilli axborot stendlari, QR-kodli raqamli gid, qisqa ilmiy katalog va maktab o'quvchilar uchun moslashtirilgan ma'rifiy materiallar yaratishdir.

Sulton Saodat majmuasining ta'limiy imkoniyati ham katta. U tarix, dinshunoslik, me'morchilik, madaniyatshunoslik va turizm fanlari uchun amaliy o'quv obyekti bo'la oladi. Ayniqsa, yosh avlodga tarixiy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash va madaniy yodgorliklarga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda bunday obyektlarning roli muhim. Lekin bu jarayonda faqat "faxrlanish" bilan cheklanib qolish yetarli emas. O'quvchi va talaba obyektning qachon, nima sababdan, qanday me'moriy usulda va qanday ijtimoiy ehtiyoj asosida shakllanganini tushunishi kerak. Shundagina madaniy meros haqiqiy bilim manbasiga aylanadi.

XULOSA

Sulton Saodat majmuasi Surxondaryo viloyati va Termiz tarixining eng muhim diniy-me'moriy yodgorliklaridan biridir. U Termiz sayyidlari sulolasi bilan bog'liq bo'lgan oilaviy xilxona sifatida shakllanib, asrlar davomida ziyoratgoh, xotira maskani va me'moriy ansambl vazifasini bajargan. Majmuaning X–XVII asrlar oralig'ida bosqichma-bosqich rivojlangani uning tarixiy qatlamdorligini ko'rsatadi. Maqbaralar, masjid, xonaqoh va hovli atrofida shakllangan kompozitsiya esa Sulton Saodatni oddiy dafn inshootidan ko'ra kengroq ma'noga ega yodgorlik sifatida namoyon qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, majmuaning ahamiyati to'rt asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: tarixiy xotirani saqlash, islomiy ziyorat madaniyatini ifodalash, Termiz-Xuroson me'moriy an'alarini aks ettirish va hududiy turizm salohiyatini kuchaytirish. Shu bilan birga, obyektning asrash va targ'ib qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Turizm rivoji majmuaning ma'naviy muhitiga zarar bermasligi, restavratsiya ishlari tarixiy qiyofani buzmasligi, targ'ibot esa yuzaki emas, ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

Amaliy taklif sifatida Sulton Saodat majmuasi bo'yicha ilmiy-ommabop risola, ko'p tilli axborot lavhalari, raqamli ekskursiya tizimi va ta'lim muassasalari uchun maxsus o'quv-marshrut dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shuningdek, majmua Termizdagi boshqa tarixiy obyektlar bilan bog'langan yagona "Qadimgi Termiz merosi" yo'nalishiga kiritilsa, ziyorat turizmi va madaniy turizm samaradorligi oshadi. Eng muhimi, Sulton Saodat majmuasi o'tmish yodgorligi sifatida emas, balki bugungi avlodni tarixiy ong, ma'naviy mas'uliyat va madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalaydigan tirik ilmiy-ma'rifiy makon sifatida qaralishi lozim.



FOYDALANILGAN MANBALAR

1. UNESCO World Heritage Centre. “Ancient Termiz” taxminiy ro‘yxat ma’lumotlari.
2. Uzbekistan.travel. “Sulton Saodat majmuasi – sayidlarning sirli xilxonasi.”
3. Uzbek-travel.com. “Sultan Saodat Complex, Termez, Uzbekistan.”
4. Meros.uz. “Sulton Saodat majmuasi.”
5. Advantour. “Memorial Complexes of Termez.”



**"RAQAMLI JAMIYATDA ERKINLIK VA NAZORAT: BIO-HOKIMIYATNING
YANGI SHAKLLARI".**

Muhiddinova Jasmina Husniddinovna

dostonboxodirov@gmail.com

Sayqanova Hadicha Panji qizi

hadichasayxanova@gmail.com

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz Filiali 1-kurs talabalari

Mamatqulova Nilufar Xusanovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz Filiali

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası v.b, dotsent (PhD)

nilufarmamatqulova53@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola zamonaviy raqamli jamiyatda shaxsiy erkinlik va kuzatuv o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tanqidiy tahlil qiladi. Maqolada raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan kuchayib borayotgan kuzatuv mexanizmlari va ularning inson huquqlari, demokratik jarayonlar va shaxsiy avtonomiyaqa ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda davlatlar va korporatsiyalar tomonidan amalga oshiriladigan ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish jarayonlari, shuningdek, fuqarolarning raqamli huquqlari himoyasi masalalari yoritilgan. Maqola zamonaviy kuzatuv tizimlarining ijtimoiy, siyosiy va huquqiy oqibatlarini falsafiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: raqamli kuzatuv, shaxsiy erkinlik, ma'lumotlarni himoya qilish, algoritmik boshqaruv, raqamli huquqlar, kuzatuv kapitalizmi, ma'lumotlar ekologiyasi, kibererkinlik, raqamli avtonomiya.

Аннотация: Эта научная статья критически анализирует сложную взаимосвязь между личной свободой и наблюдением в современном цифровом обществе. В статье рассматриваются механизмы наблюдения, которые усиливаются с быстрым развитием цифровых технологий, и их влияние на права человека, демократические процессы и личную автономию. В исследовании освещены процессы сбора и анализа данных,



осуществляемые государствами и корпорациями, а также вопросы защиты цифровых прав граждан. Статья посвящена анализу социальных, политических и правовых последствий современных систем наблюдения с философской и практической точек зрения.

Ключевые слова: цифровое наблюдение, личная свобода, защита данных, алгоритмическое управление, цифровые права, надзорный капитализм, экология данных, киберсвобода, цифровая автономия.

Abstract: This scientific article provides a critical analysis of the complex relationship between personal freedom and observation in a modern digital society. The article examines the growing surveillance mechanisms with the rapid development of digital technologies and their impact on human rights, democratic processes, and personal autonomy. The study covers the processes of data collection and analysis carried out by states and corporations, as well as issues of protecting the digital rights of citizens. The article is aimed at analyzing the social, political, and legal consequences of modern surveillance systems from a philosophical and practical point of view.

Keywords: digital surveillance, personal freedom, data protection, algorithmic control, digital rights, surveillance capitalism, data ecology, cyberfreedom, digital autonomy.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi insoniyat oldiga yangi imkoniyatlar va bir vaqtning o'zida jiddiy muammolarni qo'ymoqda. Bugungi kunda inson faoliyatining deyarli barcha sohalari raqamlashtirilgan bo'lib, bu jarayon shaxsiy erkinlik va maxfiylik muammolarini keskinlashtirmoqda. Har birimiz har kuni o'z irodamizdan tashqari holda turli raqamli tizimlar tomonidan kuzatilishimizga guvoh bo'lamiz. Raqamli asrda erkinlik va kuzatuv o'rtasidagi murakkab munosabatlar nafaqat individual darajada, balki butun jamiyat tuzilishi va demokratik institutlar uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolaning asosiy maqsadi - raqamli kuzatuvning zamonaviy shakllari, ularning inson huquqlari va erkinliklariga ta'sirini chuqur o'rganish, shuningdek, ushbu muammolarga samarali yechimlarni taklif etishdan iborat.

Kuzatuv tushunchasi tarixan turli shakllarda mavjud bo'lgan. Frensis Bekonning "Bilish - bu kuch" printsipli zamonaviy kuzatuv tizimlarining falsafiy asoslaridan biridir. Biroq, XX asrning oxirlarida Mishel Fuko tomonidan ilgari surilgan "panoptikum" kontseptsiyasi raqamli kuzatuvni tushunishda alohida ahamiyatga ega. Fuko panoptikumda qamalanganlar doimiy



kuzatilayotganlik hissiga ega bo'lishlarini, natijada o'zlarini o'zlari nazorat qilishlarini ta'kidlaydi.

Zamonaviy raqamli jamiyatda bu kontseptsiya “raqamli panoptikum” shaklida namoyon bo'lmoqda. Devid Lyonning ta'kidlashicha, bugungi kuzatuv nafaqat cheklangan makonlarda, balki butun global miqyosda amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalar kuzatuvni “suvli kuzatuv” (liquid surveillance) shakliga aylantirdi, bu esa doimiy va har qanday joyda amalga oshirilishi mumkin. Zizek va Baudrillard kabi postmodern faylasuflarning ishlari orqali kuzatuvning simulyakrlar olamidagi o'rnini tushuniladi. Bugungi kunda kuzatuv nafaqat real shaxslarni, balki ularning raqamli ko'rinishlarini ham nazorat qilishga qaratilgan. Kuzatuvning ikki asosiy turi mavjud: 1. Vertikal kuzatuv (yuqoridan pastga - davlat va korporatsiyalar tomonidan). 2. Gorizontal kuzatuv (fuqarolar o'rtasida - ijtimoiy tarmoqlar orqali). Shoshana Zuboff “kuzatuv kapitalizmi” tushunchasini ilgari surib, bu yangiy iqtisodiy tuzumda shaxsiy ma'lumotlar yangi tijorat mahsulotiga aylanganligini ta'kidlaydi. Bu esa an'anaviy mulkchilik va erkinlik tushunchalarini tubdan o'zgartirmoqda.

Davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan raqamli kuzatuv “milliy xavfsizlik” va “jinoyatchilikka qarshi kurash” kabi legitimal maqsadlar bilan oqlanadi. Edvard Snovdenning ochiqliklari AQShning NSA va boshqa razvedka agentliklarining global miqyosdagi kuzatuv dasturlarini ochib berdi. PRISM, XKeyscore kabi dasturlar millionlab odamlarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va tahli qilish imkoniyatiga ega. Xitoyning “ijtimoiy ishonch balli” tizimi va boshqa mamlakatlarning “aqli shahar” loyihalari keng qamrovli kuzatuvning yangi shakllaridir. Bu tizimlar fuqarolarning harakatlari, xatti-harakatlari va hatto fikrlash uslublarini nazorat qilishga intiladi. Davlat kuzatuvining asosiy muammo - bu “xavfsizlik- erkinlik” paradoksidan ifodalanadi. Giorgio Agambenning “favqulodda holat” nazariyasiga ko'ra, zamonaviy davlatlar doimiy ravishda xavf muhitini saqlab, o'z kuzatuv vakolatlarini kengaytirishga intiladi.

Yevropa Ittifoqining Umumiy Ma'lumotlarni Himoya Qilish Qoidalarini (GDPR) kuzatuvni cheklashga qaratilgan eng rivojlangan huquqiy mexanizmlardan biridir. Biroq, ko'plab mamlakatlarda kuzatuv huquqiy normalar bilan emas, balki maxfiylik bilan amalga oshirilmoqda. Korporativ kuzatuv “kuzatuv kapitalizmi” ning asosiy vositasidir. Google, Facebook, Amazon kabi texnologik gigantlar foydalanuvchilar haqida millionlab ma'lumotlarni to'playdi va ularni reklama va marketing maqsadlarida foydalanadi. Bu kompaniyalar “ma'lumotlar - bu yangi neft” paradimasiga asoslanadi. Shoshana Zuboff ta'kidlashicha, kuzatuv kapitalizmi nafaqat ma'lumotlarni to'playdi, balki inson xatti-harakatlarini bashorat qilish va nazorat qilishga qaratilgan. Bu esa inson irodasi va erkinligiga bevosita tahdididir. Korporativ kuzatuvning asosiy xususiyatlari: Ma'lumotlarning to'planishi foydalanuvchining



roziligi bilan amalga oshiriladi (lekin ko`pincha shaffof bo`lmagan shartnomalar asosida); ma`lumotlar behavioral targeting va manipulyatsiya maqsadlarida ishlatiladi; algoritmik qaror qabul qilish insonning tanlov erkinligini cheklaydi.

Byung-Chul Han “shaffoflik jamiyati” tushunchasini tanqid qilib, doimiy kuzatuv shaxsning ichki dunyosini vayron qilishini ta`kidlaydi. Raqamli tizimlar biz nima qilayotganimizni nafaqat biladi, balki biz kim bo`lishimizni ham belgilaydi. Xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan Inson Huquqlari Umum deklaratsiyasi (1948) va Fuqarolik va Siyosiy Huquqlar to`g`risidagi Pakt (1966) shaxsiy hayotga aralashmaslik huquqini kafolatlaydi. Biroq, raqamli asrda bu huquqlarni amalda qo`llash qiyinlashmoqda. Yevropa Ittifoqining GDPR (2018) ma`lumotlarni himoya qilish bo`yicha eng rivojlangan qonunchilikdir. Unda quyidagi tamoyillar mavjud: ma`lumotlarni to`g`ridan-to`g`ri to`plash tamoyili; maqsadlar cheklanganligi; ma`lumotlarni saqlash muddatlarining chegaralanganligi.

O`zbekiston Respublikasining “Shaxsiy ma`lumotlar to`g`risida” gi Qonuni (2021) raqamli erkinlikni himoya qilishga qaratilgan muhim qonunchilik qadamidir. Qonunda shaxsiy ma`lumotlarni qayta ishlashning asosiy tamoyillari, ma`lumotlar sub`ektining huquqlari belgilangan. Lekin huquqiy himoya amalda bir qator muammolarga duch kelmoqda: texnologiyalarning qonunchilikdan oldin rivojlanishi; xalqaro ma`lumotlar oqimini nazorat qilish qiyinligi; huquqni qo`llash mexanizmlarining etarli emasligi. Muammoning yechimi ko`p qirrali yondashuvni talab qiladi: 1. Texnologik yechimlar: Kuchli shifrlash, maxfiylikni himoya qiluvchi texnologiyalar. 2. Huquqiy mexanizmlar: Ma`lumotlarni himoya qilish qonunlarini takomillashtirish. 3. Madaniy o`zgarishlar: Raqamli savodxonlikni oshirish. 4. Ijtimoiy faollik: Fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki.

Helen Nissenbaumning “kontekstual yaxlitlik” nazariyasiga ko`ra, ma`lumotlar muayyan kontekstdagi norozilik asosida tarqatilishi kerak. “Ma`lumotlar ekologiyasi” yondashuvi ma`lumotlarni tabiiy resurs sifatida ko`rib, ularning barqaror boshqarilishini ta`minlashni maqsad qiladi. Bu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi: ma`lumotlarning cheklangan tarqatilishi; shaffoflik va javobgarlik; ekotizim yondashuvi. Raqamli erkinlikni himoya qilishda “dizayn orqali maxfiylik” (privacy by design) konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyilga ko`ra, maxfiylik tizimlarning dastlabki loyihalash bosqichidanoq hisobga olinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Raqamli asrda erkinlik va kuzatuv o`rtasidagi muvozanatni topish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Quyidagi yo`nalishlarda ish olib borish tavsiya etiladi: 1. Qonunchilik darajasida: ma`lumotlarni himoya qilish qonunlarini takomillashtirish;



xalqaro hamkorlikni kuchaytirish; mustaqil nazorat organlarini yaratish. 2. Texnologik darajada: maxfiylikni himoya qiluvchi texnologiyalarni rivojlantirish; ochiq kodli dasturiy ta`minotni rag`batlantirish. 3. Jamiyat darajasida: raqamli savodoxonlikni oshirish; fuqarolik tashabbuslarini qo`llab-quvvatlash. Nihoyat, raqamli erkinlik nafaqat shaxsiy, balki jamoat manfaatlarini himoya qilish vositasi ekanligini anglash muhimdir. Raqamli jamiyatda haqiqiy erkinlik - bu nafaqat kuzatilmaslik, balki o`z taqdirini o`zi belgilash huquqidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. PublicAffairs.
2. Lyon, D. (2018). The Culture of Surveillance: Watching as a Way of Life. Polity Press.
3. Greenwald, G. (2014). No Place to Hide: Edward Snowden, the NSA, and the U.S. Surveillance State. Metropolitan Books.
7. Абдурасулов О. А. Человеческий фактор и ценность - главные направления наших реформ. // Лучшие интеллектуальные исследования. Часть-20, том-3. Май - 2024. <http://web-journal.ru/206-210> стр.
8. Abdurasulov O. A. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhandis-texnik ziyolilarning ijtimoiy roli. "Mineral xomashyolarni qazib olish, qayta ishlashning istiqbollari yoshlar nigohida" mavzusidagi "Olmaliq KMK" AJning 75 yilligiga bag`ishlangan Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari. TDTU OF 15-may 2024-y. 271-273 betlar.
10. Абдурасулов О.А. Философия техники в XXI веке. International Conference Industrial Technologies and Engineering ICITE - 2024. XI Международная ежегодная конференция «Промышленные технологии и инжиниринг - ICITE-2024», в честь Всемирного дня науки за мир и развитие. 14-15 ноября 2024. Шымкент, Казахстан. www.icite.ukgu.kz. стр. 122.
11. O`zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma`lumotlar to`g`risida" gi Qonuni 2021.



ОЦЕНКА ФАКТОРОВ РИСКА РАЗВИТИЯ ЦЕРВИКАЛЬНОЙ ИНТРАЭПИТЕЛИАЛЬНОЙ НЕОПЛАЗИИ РАЗЛИЧНОЙ СТЕПЕНИ ТЯЖЕСТИ

Хамидова Ш.Ш.

Бухарский медицинский институт имени Абу Али Ибн Сина. Узбекистан.

Резюме. У пациенток репродуктивного возраста, обратившихся в перинатальный центр в отделение гинекологии, Бухарской области, установлена высокая частота встречаемости предраковых и доброкачественных заболеваний шейки матки ассоциированных с ВПЧ (44%). Наиболее значимым фактором риска поражения эпителия шейки матки является большое число половых партнеров. Риск возникновения РШМ в 7,1 раза выше у женщин, имевших 4 половых партнера и более (ОР = 7,07, 95% ДИ 1,62–30,85). ВПЧ высокого канцерогенного риска (1-я группа) встречался в 88,4% случаев ВПЧ-носительства. Наиболее часто (66,1%) встречался ВПЧ группы А9.

Ключевые слова: фактор риска, ВПЧ-носительства, неоплазия.

Актуальность. В связи с имеющимися данными о распространенности рак шейки матки (РШМ) среди женского населения репродуктивного возраста актуальным является изучение значения молекулярных маркеров в диагностике цервикальных интраэпителиальных неоплазий и их прогнозировании [1,3,5,7,9,11,13]. Иммунологические изменения, характерные для канцерогенеза, могут стать основой тестовых систем для скрининга РШМ, а также выступать в качестве диагностических маркеров прогрессии CIN в РШМ.

На сегодняшний день основным скрининговым методом является цитологический. ВПЧ-тестирование помогает повысить чувствительность цитологического исследования для выявления группы риска по развитию РШМ. По данным исследования А. Piroozmand и соавт., у 117 женщин с РШМ наиболее часто встречался ВПЧ 18-го и 16-го типов. Реже всего у данных пациенток выявлялся ВПЧ типов 51 и 31 [2,4,6,8,10].

По данным ВОЗ, наиболее распространенные типы ВПЧ ВР у пациенток с РШМ – это 16, 18, 33, 45 и 31-й [3,12]. Так, из отобранных 428 образцов цитологии ВПЧ был обнаружен у 166 пациенток. Из них у 107 пациенток диагностирован хронический цервицит, у 19 – CIN I, у 9 – CIN II/III, у 31 – РШМ. Наиболее часто встречались ВПЧ типа 16 у 73 (44%) пациенток, типа 53 – у 48 (28,9%), типа 52 – у 42 (25,3%), типа 58 – у



37 (22,3%), типа 35 – у 29 (17,5%). У женщин с хроническим цервицитом достоверно чаще выявлялся ВПЧ типов 16, 53, 58 и 52. У женщин с CIN I наиболее часто встречался ВПЧ типов 16, 53, 52 и 58. При CIN II, III наиболее распространенным оказался ВПЧ типов 33 и 53, при РШМ превалировал ВПЧ типов 16, 52, и 58 [1,14,15].

В настоящее время данные по исследованию комплекса иммунологических маркеров при ВПЧ-ассоциированных заболеваниях шейки матки для точной дифференциальной диагностики степени тяжести поражения и раннего выявления рака шейки матки отсутствуют.

Цель исследования: Разработка тактики введения и мониторинга пациенток с интраэпителиальными неоплазиями различной степени тяжести с учетом изучения роли различных иммунологических маркеров для дифференциальной диагностики степени тяжести и прогнозирования прогрессии процесса.

Материал и методы исследования. В соответствии с заданными критериями включения и исключения в одномоментное проспективное исследование были включены 367 пациенток. В зависимости от результатов гистологического исследования биоптатов шейки матки было сформировано 4 группы: хронический цервицит в сочетании с ВПЧ (n=91), LSIL (CIN1) (n=91), HSIL (n=92) и РШМ (n=14), группа сравнения - цитологическое заключение NILM (n=94). В работе применяли общеклинические и специальные методы исследования. К специальным методам относились иммунологические методы – определение уровня CD4, CD8, FoxP3 и PD-L1, для оценки процессов ангиогенеза и ремоделирования стромы будем определять VEGF, MMP-9 и TGF- β в соскобах эпителия шейки матки при неоплазии низкой, и высокой степени (LSIL, HSIL) и РШМ.

Все пациентки подписали добровольное информированное согласие на участие в исследовании.

Результаты исследования. Нами была проведена оценка факторов риска развития HSIL различной степени тяжести. Учитывался риск развития HSIL у пациенток с малыми формами поражения, которые, согласно данным литературы, составляют 19%. В связи с этим нами были оценены факторы риска развития цервикальной интраэпителиальной неоплазии различной степени тяжести в целом и при РШМ. Мы оценивали такие факторы риска, как возраст, начало половой жизни, количество половых партнеров, наличие ИППП, ВПЧ-инфекция в анамнезе, использование КОК, наличие вредных привычек (курение). Для оценки факторов развития CIN различной степени тяжести было отобрано 136 пациенток, из них 54 – с NILM, 31 – с LSIL, 37 – с HSIL и 11 пациенток с РШМ. Все



они были разделены на 2 группы: 1-я группа – пациентки с гистологически верифицированным диагнозом CIN различной степени тяжести (LSIL/HSIL) и РШМ (n = 82); 2-я группа – группа сравнения, пациентки с нормальной цитологической картиной – NILM.

Полученные нами результаты показали, что наиболее значимым фактором риска развития цервикальной интраэпителиальной неоплазии различной степени тяжести и РШМ явились: большое количество половых партнеров ($p = 0,04$), ИППП в анамнезе ($p = 0,05$), ВПЧ в анамнезе ($p = 8 \times 10^{-7}$). Подобная тенденция также отмечается для раннего начала половой жизни ($p = 0,06$).

Учитывая достоверную значимость коэффициентов Спирмена между основными факторами риска развития цервикальной интраэпителиальной неоплазии, выявлена положительная корреляция между всеми тремя факторами. Высокая корреляционная связь ($>0,899$) выявлена между большим количеством половых партнеров и наличием ВПЧ в анамнезе. Также прямая корреляционная связь прослеживалась между наличием всех трех наиболее значимых факторов риска и цервикальной интраэпителиальной неоплазии, различной степени тяжести. Следовательно, пациентки с наличием одного из этих факторов относятся к группе риска по развитию цервикальной интраэпителиальной неоплазии.

Также нами проведена оценка относительного риска развития цервикальной интраэпителиальной неоплазии различной степени тяжести и РШМ в зависимости от наличия факторов риска. На следующем этапе был оценен относительный риск (ОР) развития LSIL, HSIL и РШМ в зависимости от наличия того или иного фактора. Так, относительный риск возникновения РШМ у женщин с ранним началом половой жизни составил 1,18 (95% ДИ 0,55–2,51). Наличие ИППП повышает риск поражения эпителия шейки матки. Нами получены данные о статистически значимом повышении риска ИППП в группах пациенток с хроническим цервицитом, LSIL (CIN I), HSIL (CIN II/III) (ОР = 2,64; 3,21; 3,41 соответственно), однако значимого риска в группе РШМ выявить не удалось, что связано с небольшой выборкой пациенток с РШМ.

Нами был рассчитан относительный риск по сравнению с группой здоровых женщин и соответствующий 95% доверительный интервал.

Анализ результатов исследования показал, что наиболее значимыми факторами риска поражения эпителия шейки матки являются: большое число половых партнеров (>4); ИППП в анамнезе; ВПЧ-инфекция в анамнезе. Относительный риск развития РШМ значительно выше у пациенток с большим количеством половых партнеров. Риск



возникновения РШМ в 7,1 раза выше у женщин, имевших 4 половых партнера и более (ОР = 7,07, 95% ДИ 1,62–30,85).

Вывод. При наличии LSIL и ВПЧ высокого, вероятного канцерогенного риска следует определять уровень экспрессии мРНК генов Ki67, p16 и рассчитывать риск развития неопластической трансформации эпителия. При выявлении риска рекомендуется сокращение сроков скрининга или проведение кольпоскопии и биопсии шейки матки (по показаниям).

BIBLIOGRAPHY

1. Torre LA, Bray F, Siegel RL et al. Global Cancer Statistics, 2012. *CA Cancer J Clin* 2015; 65: 87–108.
2. Прилепская В.Н., Коган Е.А., Трофимов Д.Ю. Возможности диагностики и лечения заболеваний шейки матки. *Акушерство и гинекология*. 2013; 9: 90–6.
3. Байрамова Г.Р., Файзуллин Л.З., Королькова А.И. и др. Скрининг рака шейки матки: что нового в мировой практике. *Акушерство и гинекология*. 2016; 7: 17–21.
4. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The state of nitric oxide in the blood serum of patients with cutaneous leishmaniasis // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2023. - № 5 (55). - P. 638-643.
5. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The value of ceruloplasmin and copper in the blood serum of women wearing copper-containing intrauterine devices // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2023. - № 6 (56). - P. 2-7.
6. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review)// *New Den Medicine*. - Bukhara, 2023. - № 8 (58). - P. 103-107.
7. Khamdamova M.T., Akramova D.E. Genetic aspects of genital prolapse in women of reproductive age // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2024. - № 2 (64). - P.420-426.
8. Khamdamova M.T., Akramova D.E. Immediate and long-term results of surgical treatment of genital prolapse in elderly women // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2025. - № 3 (77). - P. 201-207.
9. Khamdamova M.T., Akramova D.E. Efficiency of various methods of treatment of women with genital prolapse // *News of dermatovenerology and reproductive health*. - Tashkent, 2025. - № 2 (109). - P.30-33.
10. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. genetic mechanisms of development of endometrial hyperplastic processes in women in menopausal age)// *New Den Medicine*. - Bukhara, 2025. - № 3 (77). - P. 207-211.



11. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Морфологические изменения эндометрия при гиперплазии // Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья.-Ташкент.-2025.- № 2 (109). - P. 12-14.
12. Khamdamova M.T., Umidova N.N. Генитальный эндометриоз – болезнь активных и деловых женщин // Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья.-Ташкент.-2025.- № 2 (109). - P. 33-14.
13. Khamdamova M.T., Akramova D.E. Генетические аспекты генитального пролапса у женщин репродуктивного возраста) // New Den Medicine. - Bukhara, 2024. - № 2 (64). - P. 420-426.
14. Klaes R, Friedrich T, Spitkovsky D et al. Overexpression of p16(INK4A) as a specific marker for dysplastic and neoplastic epithelial cells of the cervix uteri. Int J Cancer 2017; 92: 276–84.
15. Kalof AN, Cooper K. Our approach to squamous intraepithelial lesions of the uterine cervix. J Clin Pathol 2017; 60: 449–55.



YANGI O'ZBEKISTONDA III RENESSANS POYDEVORINI YARATISHNING ZARURIYATI VA IJTIMOYIY-MA'NAVIY AHAMIYATI

Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li - Termiz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi Ma'naviyat asoslari yo'nalishi
E-mail: Choriyevmirjalol117@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda Yangi O'zbekistonda III Renessans poydevorini yaratishning tarixiy zaruriyati, ijtimoiy-ma'naviy mohiyati va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Mavzu O'zbekiston tarixida yuz bergan Birinchi va Ikkinchi Renessans tajribasi, bugungi islohotlar jarayoni, yoshlar tarbiyasi, ilm-fan, ta'lim, innovatsiya va milliy ma'naviyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda yoritiladi. Tezisdan III Renessans g'oyasi shunchaki tarixiy faxr yoki ramziy ibora emas, balki jamiyatni bilim, ma'rifat, kasbiy kompetensiya, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va inson qadriga asoslangan taraqqiyot bosqichiga olib chiqishga qaratilgan strategik maqsad sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, III Renessans, ma'naviyat, ilm-fan, ta'lim, yoshlar, milliy taraqqiyot, inson qadri, innovatsiya, ma'rifat.

KIRISH.

Yangi O'zbekistonda III Renessans poydevorini yaratish masalasi mamlakat taraqqiyotining ma'naviy, ilmiy va ijtimoiy asoslarini yangilash bilan bevosita bog'liqdir. Tarixan IX-XII asrlardagi Birinchi Renessans hamda XIV-XV asrlardagi Ikkinchi Renessans davrlarida ilm-fan, madaniyat, adabiyot, me'morchilik va tafakkur yuksak bosqichga ko'tarilgan. Bugungi davrda esa III Renessans g'oyasi yosh avlodni bilimli, vatanparvar, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy kasblarni egallagan shaxs sifatida tarbiyalash zaruratidan kelib chiqadi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ta'lim, ilm-fan, innovatsiya va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu sababli III Renessans nafaqat tarixiy orzu, balki jamiyatni ma'rifat, kasbiy salohiyat va ma'naviy yetuklik asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-ma'naviy jarayondir.

ASOSIY QISM

Yangi O'zbekistonda III Renessans poydevorini yaratish zaruriyati mamlakat taraqqiyotining bugungi bosqichi, jamiyatning ma'naviy yangilanish ehtiyoji va global raqobat sharoitida bilimga asoslangan rivojlanish talablaridan kelib chiqadi. O'zbekiston tarixida Birinchi Renessans IX-XII asrlarda Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi allomalar faoliyati orqali namoyon bo'lgan bo'lsa, Ikkinchi Renessans Temuriylar davrida Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy kabi



siymolar merosi bilan yuksak bosqichga ko'tarildi. Bu ikki tarixiy bosqichning umumiy xususiyati shundaki, ularda davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, adabiyot, axloqiy tafakkur va xalqaro ilmiy aloqalar bir-birini to'ldirib rivojlangan.

III Renessans g'oyasi ham aynan shunday kompleks yondashuvni talab qiladi. Uni faqat tarixiy merosni eslash, allomalar nomini ulug'lash yoki tadbirlarda shior sifatida ishlatish bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Bu g'oya real ta'lim sifati, ilmiy tafakkur, texnologik yangilanish, yoshlarning kasbiy salohiyati, ijtimoiy adolat, ma'naviy immunitet va jamiyatda bilimli insonning qadrlanishi orqali hayotga tatbiq etiladi. Prezident tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti konsepsiyasida inson qadrini yuksaltirish, xalqparvar davlat barpo etish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida "inson qadrini yuksaltirish" tamoyili alohida yo'nalish sifatida ko'rsatilgani III Renessansning ijtimoiy asosini tashkil etadi.

III Renessans poydevorini yaratishning eng muhim sharti ta'lim tizimini mazmunan yangilashdir. Chunki har qanday uyg'onish avvalo tafakkur uyg'onishidan boshlanadi. Maktab, kollej, texnikum va oliy ta'lim muassasalari faqat bilim beruvchi maskan bo'lib qolmasdan, mustaqil fikrlaydigan, muammo yechadigan, kasbiy jihatdan raqobatbardosh, ma'naviy barqaror shaxsni shakllantirishi kerak. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'limni modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish vazifalari belgilangan. Bu vazifalar III Renessansning amaliy poydevorini yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ilm-fan taraqqiyotisiz III Renessans haqida gapirish zaif bo'ladi. Tarixiy Renessanslar ham tasodifan yuz bermagan. Ularning ortida ilmiy maktablar, kutubxonalar, madrasalar, rasadxonalar, ustoz-shogird an'analari va ilm ahliga davlat homiyligi turgan. Bugungi sharoitda bu vazifani ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, innovatsion markazlar, texnoparklar, raqamli platformalar va xalqaro ilmiy hamkorlik bajarishi kerak. O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilingani bu borada muhim me'yoriy asosdir. Mazkur konsepsiyada ilm-fan sohasini rivojlantirish, maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar asosida boshqarish vazifalari belgilangan.

III Renessansning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati shundaki, u jamiyatni faqat iqtisodiy o'sishga emas, balki ma'rifatli, mas'uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk taraqqiyot modeliga yo'naltiradi. Agar jamiyatda ilm qadrlanmasa, yoshlar orasida kitobxonlik, tanqidiy fikrlash, kasbga sadoqat, halollik va vatanparvarlik yetarli darajada shakllanmasa, iqtisodiy islohotlarning ham barqaror natijasi bo'lmaydi. Ma'naviyatsiz modernizatsiya tashqi ko'rinishdagi yangilanish bo'lib qoladi. Shuning uchun III Renessans g'oyasi ma'naviy tarbiya, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, diniy bag'rikenglik, huquqiy madaniyat va ijtimoiy faollik bilan chambarchas bog'liq.



Yangi O'zbekistonda III Renessans poydevorini yaratishda yoshlarning o'rnini alohida. Chunki Renessansni tayyor holda berib bo'lmaydi, uni yangi avlod o'z bilimi, mehnati, intilishi va mas'uliyati bilan barpo etadi. Prezident nutqlarida ham yosh avlod III Renessans bunyodkori sifatida baholanadi. Bu fikr yoshlar siyosati, ta'lim, kasb-hunar, innovatsiya va ma'naviy tarbiyani yagona tizimda olib borish zarurligini ko'rsatadi.

III Renessans poydevorini yaratishning yana bir zaruriyati global raqobat bilan bog'liq. XXI asrda davlatlarning kuchi faqat tabiiy resurslar yoki hududiy imkoniyatlar bilan emas, balki inson kapitali, ilmiy salohiyat, texnologik yangilik, axborot xavfsizligi va kreativ iqtisodiyot bilan belgilanmoqda. Shu sababli Yangi O'zbekiston uchun zamonaviy ta'lim, raqamli savodxonlik, xorijiy tillarni bilish, ilmiy tadqiqot madaniyati va innovatsion fikrlash masalalari strategik ahamiyatga ega. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida avvalgi Taraqqiyot strategiyasida belgilangan va ahamiyatini yo'qotmagan maqsadlarni davom ettirish, dolzarb vazifalarni bajarish nazarda tutilgani III Renessans g'oyasining uzoq muddatli davlat siyosati bilan bog'langanini ko'rsatadi.

Bu jarayonda mavjud muammolarni ham ochiq ko'rish kerak. Eng katta xavf - III Renessans g'oyasining mazmunan chuqurlashmay, faqat tashqi targ'ibot darajasida qolib ketishidir. Agar ta'lim sifati oshmasa, ilmiy tadqiqotlar amaliyot bilan bog'lanmasa, yoshlar orasida kasbiy mas'uliyat kuchaymasa, tarixiy meros zamonaviy bilim bilan uyg'unlashtirilmasa, Renessans g'oyasi real ijtimoiy natija bermaydi. Shuning uchun bu g'oyani hayotga tatbiq etish uchun maktabdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan tizimda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, dalil bilan ishlash, loyihaviy ta'lim, ilmiy izlanish, axloqiy tarbiya va ijtimoiy faollikni kuchaytirish zarur.

III Renessansning ma'naviy mazmuni ajdodlar merosini zamonaviy hayotga bog'lashda namoyon bo'ladi. Xorazmiy merosi bugungi algoritmik tafakkur va raqamli texnologiyalar bilan, Beruniy merosi ilmiy metod va manbashunoslik bilan, Ibn Sino merosi tibbiy madaniyat va sog'lom turmush tarzi bilan, Imom Buxoriy merosi axloqiy poklik va ishonchli manba madaniyati bilan, Navoiy merosi til, adabiyot va insonparvarlik bilan bog'lab o'rgatilsa, tarixiy meros tirik tarbiyaviy kuchga aylanadi. Aks holda u faqat yod olinadigan ma'lumotlar yig'indisi bo'lib qoladi.

XULOSA

Yangi O'zbekistonda III Renessans poydevorini yaratish tarixiy zarurat, ijtimoiy ehtiyoj va ma'naviy mas'uliyatdir. Bu jarayon ilm-fan, ta'lim, innovatsiya, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar va inson qadriga asoslangan taraqqiyot modelini shakllantirishni talab etadi. III Renessans g'oyasi kuchli jamiyat, bilimli avlod, adolatli boshqaruv, ma'naviy barqarorlik va zamonaviy fikrlaydigan inson kapitalini yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Uning



muvaffaqiyati shiorlarda emas, balki ta'lim sifati, ilmiy natija, kasbiy mas'uliyat, ma'naviy yetuklik va yoshlarning real bunyodkorlik faoliyatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. - Toshkent: O'qituvchi, 2001.
6. Komilov N. Tasavvuf. - Toshkent: Movarounnahr, 2009.



ЦИФРОВОЙ РЕГУЛЯТОРНЫЙ ДИАЛОГ ГОСУДАРСТВА И БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ: КОНЦЕПЦИЯ И МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ

Бекмирзаев Фаррух Эркин угли

ведущий юрист, руководитель службы комплаенса, ТРЦ «Tashkent City Mall», Ташкент
| farruxbekmirzaev98@gmail.com

АННОТАЦИИ

Аннотация (рус.)

В тезисе рассматривается вопрос о том, как цифровые платформы взаимодействия государства и бизнеса (G2B) могут стать инструментом повышения качества нормотворчества, а не только каналом оказания услуг. Предложена классификация таких платформ по четырём группам (A–D), разработана модель «цифрового регуляторного диалога» и система KPI. На основе сравнения с Казахстаном и Азербайджаном выявлен конкретный пробел в узбекском регулировании.

Ключевые слова: цифровое взаимодействие G2B, электронное правительство, регуляторный диалог, Узбекистан, KPI, административные барьеры, бизнес-климат.

Annotatsiya (o'zb.)

Tezisdavlat va biznes o'rtasidagi raqamli platformalar (G2B) xizmatlar kanali sifatida emas, balki normativ ijod sifatini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Platformalar to'rt guruhga (A–D) tasniflanib, «raqamli tartibga solish dialogi» modeli va KPI tizimi taklif etilgan. Qozog'iston va Ozarbayjon bilan qiyos asosida O'zbekiston tartibga solishidagi aniq kamchilik aniqlab berilgan.

Kalit so'zlar: G2B raqamli o'zaro hamkorlik, elektron hukumat, tartibga solish dialogi, O'zbekiston, KPI, ma'muriy to'siqlar, biznes-muhit.

Abstract (Eng.)

The thesis examines how digital government-to-business (G2B) platforms can function as tools for improving regulatory quality, rather than merely service delivery channels. A four-group classification of such platforms (A–D) is proposed, a 'digital regulatory dialogue' model and KPI system are developed. A comparison with Kazakhstan and Azerbaijan identifies a specific regulatory gap in the Uzbek context.



Keywords: G2B digital interaction, e-government, regulatory dialogue, Uzbekistan, KPI, administrative barriers, business climate.

1. Постановка проблемы

Работая с платформами регуляторных уведомлений и государственными порталами, замечаешь одно устойчивое противоречие: цифровизация госуслуг в Узбекистане продвинулась далеко вперёд, тогда как возможности бизнеса реально влиять на разрабатываемые нормы через те же самые цифровые каналы остаются слабо развитыми. Разрыв между сервисной и диалоговой функциями — вот та проблема, которой посвящён настоящий тезис.

В политической науке это противоречие хорошо известно. Концепция «регуляторного государства» [1] давно указала: качество регулирования зависит не только от содержания норм, но и от того, как они разрабатываются — с чьим участием и с какой обратной связью. Перенос этого принципа в цифровое измерение означает, что онлайн-платформы G2B должны не только ускорять транзакции, но и обеспечивать содержательный диалог бизнеса с государством в нормотворчестве.

Узбекистан в последние годы активно движется в обоих направлениях. «Стратегия цифрового правительства — 2028» [2] задаёт амбициозные ориентиры, а реформы делового климата получили признание Всемирного банка [3]. Однако диалоговая составляющая цифрового G2B взаимодействия — как именно предприниматели участвуют в нормотворчестве онлайн и насколько это влияет на итоговые решения — систематически не описана и не измеряется. Именно этот пробел требует заполнения.

2. Цифровые платформы G2B: попытка классификации

В литературе по e-government G2B давно выделяется как самостоятельный тип цифровых взаимодействий наряду с G2C и G2G [4]. Но применительно к Узбекистану ни разу не была предложена типология, различающая сервисную и диалоговую функции таких платформ. Восполнить этот пробел — одна из задач данного тезиса.

Проанализировав нормативную базу [5–7] и функционал действующих порталов, я выделяю четыре группы платформ по двум критериям: выполняемая функция и характер взаимодействия с бизнесом.



Гр.	Тип	Платформы	Основная функция
A	Регуляторно-диалоговые	regulation.gov.uz, my.gov.uz	Публичные консультации по НПА, участие бизнеса в нормотворчестве
B	Отраслевые сервисные	soliq.uz, таможенный портал, litsenziya.gov.uz	Электронные налоговые, таможенные, лицензионные услуги
C	Инвестиционные / ГЧП	pppda.uz, invest.gov.uz	Отбор и сопровождение проектов ГЧП, привлечение инвесторов
D	Защитные (омбудсмен)	business.gov.uz, govcontrol.uz	Обращения предпринимателей, мониторинг проверок, защита прав

Таблица 1. Классификация цифровых платформ G2B в Узбекистане

Принципиальный момент: группу А я намеренно ставлю первой, а не рассматриваю как вспомогательную к группе В. Именно регуляторно-диалоговые платформы формируют основу того, что в документах ОЭСР называется *regulatory impact assessment* — оценкой регуляторного воздействия с участием заинтересованных сторон [8]. Остальные группы важны, но без работающей группы А они остаются лишь сервисным окном, а не инструментом влияния.

3. Модель диалога и показатели эффективности

На основе проведённого анализа я предлагаю рассматривать взаимодействие государства и бизнеса через цифровые платформы как единый цикл — от поступления предложения или обращения до публичной отчётности о том, что с ним стало. Этот цикл включает пять связанных элементов: каналы (платформы А–D как единая сеть), субъекты (бизнес, госорганы, посредники), регуляторные процессы, аналитику данных и обратную связь. Ключевое слово здесь — цикл: диалог без видимого результата быстро превращается в формальность.

Чтобы этого не происходило, нужны измеримые ориентиры. Ниже — минимальный набор КРІ, которые, на мой взгляд, отражают качество диалога, а не только объём транзакций:



	Показатель	Источник данных
A — диалог	Доля предложений бизнеса, учтённых в финальной редакции НПА (%)	Отчёт regulation.gov.uz
A — диалог	Средний срок реакции разработчика на замечания (дни)	Метаданные портала
B — услуги	Доля процедур, завершённых полностью онлайн (%)	Транзакции my.gov.uz
C — ГЧП	Доля ГЧП-проектов с онлайн-мониторингом реализации (%)	Данные pppda.uz
D — защита	Доля жалоб, по которым приняты реальные меры (%)	Доклад бизнес-омбудсмена

Таблица 2. Предлагаемые КРІ цифрового регуляторного диалога

Первый показатель — доля учтённых предложений бизнеса — принципиально важен. Без него платформа консультаций остаётся витриной: предприниматели видят форму для замечаний, но не знают, влияют ли их слова хоть на что-то. Именно здесь, как показывает сравнение с соседними странами, Узбекистан пока отстаёт.

4. Сравнительный контекст и практические выводы

Сравнение с Казахстаном и Азербайджаном даёт интересную картину. По инфраструктуре платформ Узбекистан не уступает: regulation.gov.uz, govcontrol.uz, single window — вполне сопоставимые инструменты с egov.kz или e-gov.az. По оценке ОЭСР, система онлайн-услуг для бизнеса в стране развита, но механизмы обратной связи с предпринимателями в нормотворческом процессе остаются слабым местом [9].

Главное конкретное отличие — казахстанский regulation.gov.kz обязывает публиковать, сколько именно предложений бизнеса вошло в финальную редакцию НПА. В Узбекистане такого требования нет. Это не техническая мелочь: именно этот показатель создаёт стимул участвовать в консультациях, а для государства — реально прислушиваться к замечаниям.

Вывод простой: не нужно создавать новые платформы. Достаточно трёх шагов — ввести обязательную отчётность о доле учтённых предложений на regulation.gov.uz; связать платформы А–D в единый аналитический контур; и двигаться к единому «Порталу предпринимателя», объединяющему все четыре функции. Всё это вписывается в уже



утверждённую «Стратегию цифрового правительства — 2028» и не требует дополнительной нормативной базы.

Примечания

1. Moran M. Review Article: Understanding the Regulatory State // British Journal of Political Science. 2002. Vol. 32, № 2. P. 391–413. DOI: 10.1017/S0007123402000169.
2. Стратегия «Цифровое правительство — 2028» Республики Узбекистан (утв. Указом Президента РУз № УП-308 от 14.09.2023). URL: <https://dgov.uz/en/egov-strategy/>
3. World Bank Group. Doing Business 2020. Washington, DC: World Bank, 2019. URL: <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020>
4. Jeong Chun Hai @ Ibrahim. Fundamental of Development Administration. Selangor: Scholar Press, 2007. ISBN 978-967-504-5080.
5. Закон РУз от 09.12.2015 № ЗРУ-395 «Об электронном правительстве».
6. Закон РУз от 29.08.2017 № ЗРУ-440 «О Бизнес-омбудсмене».
7. Закон РУз от 10.05.2019 № ЗРУ-537 «О государственно-частном партнёрстве».
8. OECD. Regulatory Impact Assessment. Paris: OECD Publishing, 2020. DOI: 10.1787/7a9638cb-en.
9. OECD. Insights on the Business Climate in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/317ce52e-en.

Раскрытие: Автор — практикующий юрист в коммерческой организации, пользующейся рассматриваемыми платформами. Исследование носит описательно-аналитический характер; конфликт интересов и финансирование отсутствуют.



CO(II) VA NI(II) IONLARINING 2,6-PIRIDINDIKARBON KISLOTASI BILAN [ME(L)₂]₃•3H₂O TARKIBLI KOMPLEKS BIRIKMALARINI OLIISH HAMDA ULARNING KRISTALL TUZILISHI

¹ S. Sh.Isroilova , ²X.X. Turayev, ³Y.E. Nazarov

¹Termiz davlat universiteti 4-kurs talabasi

²Termiz davlat universiteti, k.f.d., prof.

³Termiz davlat universiteti, k.f.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Co(II) va Ni(II) ionlarining 2,6-piridindikarbon kislotasi bilan kompleks birikmalarini olish jarayoni, eritma muhiti, kompleks birikmaning tuzilishini aniqlashda rentgen tuzilishi tahlili, uning molekulyar va kristall tuzilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: 3d- metallar, kompleks birikmalar, 2,6-piridindikarbon kislotasi, kristall tuzilish.

Kirish. Hozirgi zamon kimyo fanining muhim yo'nalishlaridan biri koordinatsion birikmalar kimyosi hisoblanadi. Koordinatsion birikmalar, ayniqsa, oraliq metallar asosidagi komplekslar turli sohalarda, jumladan, tibbiyotda bir qancha kasalliklarni davolashda, qishloq xo'jaligida fungitsidlar, gerbitsidlar va pestitsidlar sifatida, bundan tashqari biologiya, tibbiyot, kataliz va materialshunoslikda keng qo'llanilmoqda. Shu sababli ularning tuzilishi, xossalari va sintez usullarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi [1]. 2,6-piridindikarbon kislota (dipikolin kislota) azot va kislorod donor atomlariga ega bo'lgan muhim organik ligandlardan biridir [2,3]. Ushbu ligand o'zining tridentat xususiyati tufayli metall ionlari bilan mustahkam kelat komplekslar hosil qiladi. Ayniqsa, 3d-metallari bilan hosil qilgan komplekslari yuqori barqarorligi va turli fizik-kimyoviy xossalari bilan ajralib turadi. Bu borada, 3d-metallarning tarkibida azot va kislorod bo'lgan ligandlar, xususan, 2,6-piridindikarbon kislota bilan kompleks birikmalari sintezi, ularning tarkibi, kristall va molekulyar tuzilishlari, kvant-kimyoviy parametrlari, kristallaridagi molekulalararo ta'sirlashish energiyalari va boshqa fizik-kimyoviy xossalari aniqlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Azot donor atomlari metall ionlari bilan kuchli koordinatsion bog' hosil qiladi. Kislorod donor atomlari esa ko'proq ionli xarakterga ega bo'lgan bog' hosil qiladi. Shu sababli N, O-tip ligandlar (masalan, 2,6-piridindikarbon kislota) juda barqaror komplekslar hosil qiladi. Bunday ligandlar bilan hosil bo'lgan komplekslar oktaedrik (eng ko'p uchraydi), tetraedrik, kvadrat-planar kabi geometriyalarga ega bo'lishi mumkin. Co(II) va Ni(II) ionlari odatda oktaedrik komplekslar hosil qiladi. Bunda oltita koordinatsion o'rin ligandlar va suv molekulalari bilan to'ldiriladi. Ligand maydon nazariyasiga ko'ra, ligandlar metall ionining d-orbitalariga ta'sir qilib, ularning energiya darajalarini ajratadi. Bu esa komplekslarning rangini




va magnit xossalarini belgilaydi. Masalan, Co(II) komplekslari pushti rangda, Ni(II) komplekslari esa yashil rangda bo'ladi. Bundan tashqari, azot va kislorod donor atomlariga ega ligandlar bilan hosil bo'lgan kompleks birikmalarda kelat effekti muhim rol o'ynaydi. Ko'p tishli (polidentat) ligandlar metall ioniga bir nechta bog' orqali ulanib, halqasimon (xelat) tuzilma hosil qiladi. Bu esa kompleksning termodinamik va kinetik barqarorligini sezilarli darajada oshiradi[4]. Masalan, 2,6-piridindikarbon kislota uchta donor atom (bir azot va ikkita kislorod) orqali metallga ulanib, besh yoki olti a'zoli kelat halqalar hosil qiladi. Bunday tuzilma kompleksning parchalanishga chidamliligini oshiradi. 3d-metall komplekslarining muhim xususiyatlaridan biri ularning magnit xossalari hisoblanadi. Bu xossalar metall ionidagi juftlanmagan elektronlar soniga bog'liq. Co(II) (d^7) komplekslari odatda paramagnit bo'ladi. Ni(II) (d^8) komplekslari ham ko'pincha paramagnit xususiyatga ega. Magnit xossalarni o'rganish orqali kompleksning tuzilishi haqida muhim ma'lumotlar olinadi [5].

Kompleks birikma sintezi.

Co(II) ning 2,6-piridindikarbon kislotasi bilan $[Co(L)_2] \cdot 3H_2O$ kompleks birikmasi sintezi

Kobalt(II)atsetat kristallogidratidan $Co(CH_3COO)_2 \cdot 7H_2O$ 0.1535 gr (0.5 mmol), 0.167 gr (1 mmol) 2,6 -PDCA ni tegishlicha suvda eritib, 1;2 mol nisbatdagi eritmaları tayyorlandi. Umumiy 1;2 mol nisbatda eritmalar aralashtrildi. So'ngra magnitli aralashtrigich yordamida 60 °C da 30 minut davomida intensiv aralashtrildi. Eritma xona haroratida qoldirildi. Natijada 10 kundan so'ng idish tubida och yashil rangli kompleks birikma monokristali o'sganligi kuzatildi. RTT analizi uchun yaroqli kristallar ajratilib, tekshirilganda $[Co(2,6-PDCA)_2](H_2O)_3$ tarkibli ekanligi aniqlandi. Unumi 86 % $[Co(2,6-PDCA)_2](H_2O)_3$ ($Mr=443.096g/mol$) $CoC_{14}H_{12}N_2O_{11}$ tahlili nazariy jihatdan: C 37.91, H 2.73, N 6.32, O 39.72 % ni ko'rsatdi: ma'lum bo'ldiki C 37.56, H 2.64, N 6.21, O 39.29 %. Reaksiya tenglamasi quyidagicha (1-sxema).



1-sxema. $[Co(2,6-PDCA)_2](H_2O)_3$ kompleks birikmasi sintezi



(Ni (II) kompleksi hamushbu usulda olingan)

1-jadval.

Olingan kompleks birikmalar tarkibining element tahlili


Kompleks birikma	Unum %	Suy. tem p. °C	Hisoblangan %					Topilgan %					
			Rangiz	C	H	O	N	Me	C	H	O	N	Me
Ligand(2.6-DAPY)		128	qora	55.01	6.47	-	38.51	-	49.86	6.34	-	38.36	-
[Co(2,6-PDCA) ₂](H ₂ O) ₃	86	192	Och yashil	37.92	2.73	39.73	6.32	13.30	37.69	2.62	39.58	6.18	13.15
[Ni(2,6-PDCA) ₂](H ₂ O) ₃	86	193	Och yashil	37.94	2.73	39.75	6.32	13.26	37.79	2.61	39.61	6.17	13.09


2-jadval.

Olingan kompleks birikmalarning turli erituvchilarda eruvchanligi

No	Birikma	Suv	Etanol	Sirka kislota	DMS O	Xloro form	DMFA
1	Ligand(L) (2.6-PDCA)	E	EM	EM	E	EM	E
2	[Co(L) ₂](H ₂ O) ₃	E	EM	EM	E	EM	E
3	[Ni(L) ₂](H ₂ O) ₃	E	EM	EM	E	EM	E


1-rasm. [Co(L)₂](H₂O)₃ kompleksining molekulyar tuzilishi





2-rasm. $[\text{Ni}(\text{2,6-PDCA})_2] (\text{H}_2\text{O})_3$ kompleksining molekulyar tuzilishi

$[\text{Co}(\text{L})_2](\text{H}_2\text{O})_3$ kompleks birikma monoklinik singoniyaga ega, $P21/c$ fazoviy guruhga ega. $a = 13.6804(3)$, $b=10.0505(2)$, $c=13.7745(3)$ Å. Ikki tridentat dipik ligandlarning har biri karboksilik guruhning ikkita kislorod atomi va dipik ligandlarning piridil halqasining azot atomlari orqali tridentant holatda koordinatsiyalangan. $\text{Co}(\text{II})$ atrofidagi koordinatsiya geometriyasi buzilgan oktaedr bo'lib, har bir ikki valentli anion dipic ligand ekvatorial o'rinlarni ikkita kislorod atomi ($\text{Co}(1)-\text{O}(3) = 2,133(3)$ Å) va ($\text{Co}(1)-\text{O}(3) = 2,133(3)$ Å) va ($\text{Co}(1)$ ($\text{Ni}(2)$ Å²) ($\text{Co}(2) = 1$) egallaydi. Boshqa ekvatorial pozitsiyalarni boshqa dipik liganddan ikkita kislorod atomi ($\text{Co}(1)-\text{O}(7) = 2,136(3)$ Å va ($\text{Co}(1)-\text{O}(6) = 2,149(2)$ Å) egallaydi.





3-rasm. [Co(2,6-PDCA)₂](H₂O)₃ kompleksining kristall tahlilishi
(punktir chiziqlar orqali vodorod bog'lanish ifodalangan).

3-jadval

Ichki va molekulararo vodorod bog'lanish uzunligi (Å) va burchaklari (°)

D-H-A	D-H, Å	H···A, Å	D···A, Å	D-H···A, (°)
N3 -- H3A .. O8 ⁽ⁱ⁾	0.8900	1.9600	2.839(4)	172.00
N3 -- H3B .. O9	0.8900	2.4500	2.792(5)	103.00
N3 -- H3B .. O1 ⁽ⁱⁱ⁾	0.8900	2.1300	2.935(5)	149.00
N3 -- H3C .. O4	0.8900	1.8400	2.727(5)	175.00
N4 -- H4A .. O1 ⁽ⁱⁱⁱ⁾	0.8900	2.1600	2.923(5)	143.00
N4 -- H4A .. O10 ^(iv)	0.8900	2.4700	2.982(4)	117.00
N4 -- H4B .. O2 ^(v)	0.8900	1.9600	2.837(4)	168.00
N4 -- H4C .. O5 ^(vi)	0.8900	1.9400	2.780(4)	156.00
O9 -- H9A .. O6 ^(vii)	0.8200	1.9300	2.749(4)	178.00
O10 -- H10A .. O8	0.8200	1.9500	2.774(4)	178(4)
C2 -- H2 .. O9 ^(viii)	0.9300	2.3900	3.292(6)	164.00
C10 -- H10 .. O3 ^(ix)	0.9300	2.5700	3.118(5)	118.00
C16 -- H16A .. O5 ^(x)	0.9700	2.5300	3.444(6)	158.00

Symmetry codes: (i) x,-1+y,z,(ii) 1-x,1-y,1-z,(iii) -1+x,y,z,(iv) -x,2-y,1-z,(v) 1-x,2-y,1-z, (vi)-1+x,y,1+z (vii) -1+x,y,z,(viii) 1-x,1-y,1-z,(ix) 1-x,2-y,-z, (x) 1-x,1-y,-z

Xulosa. Co(II) va Ni(II) ionlarining 2,6-piridindikarbon kislota kislota bilan izostrukturali kompleks birikmalari olinib, monokristali o'stirildi. Ularning tuzilishi RTT (rentgen tuzilishi tahlili) yordamida aniqlandi. Kompleks birikmalarda markaziy atomning koordinatsion soni 6, sp³d² holatda gibridlanishga ega. 2,6-piridindikarbon kislota kislota ligandi markaziy atomga bidentant holatda koordinatsiyalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ilkimen H. et al. Synthesis and characterization of a novel proton salt of 2-amino-6-nitrobenzothiazole with 2, 6-pyridinedicarboxylic acid and its metal complexes and their antimicrobial and antifungal activity studies // Journal of Molecular Structure. – 2016. – T. 1120. – P. 25-33.

2. Khayit Kh. Turaev, Yusufjon E. Nazarov, Abdukadir Kh. Tashkulov, Sherzod A. Kasimov, Bekmurod Kh. Alimnazarov, Jamshid M. Ashurov, Aziz B. Ibragimov, Takashiro Akitsu, Changkun Xia, Abul Monsur Showkot Hossain. Synthesis of mononuclear Ni (II) and



binuclear Cu (II) complexes from pyridine-2, crystal structure and Hirschfeld surface analysis, 6-dicarboxylic acid with monotholenamine and hydrochloric acid solution //Structural Chemistry. – 2025. – C. 1-13 <https://link.springer.com/article/10.1007/s11224-025-02468-9>

3.Ghosh S. K., Ribas J., Bharadwaj P. K. Metal-organic framework structures of Cu (II) with pyridine-2, 6-dicarboxylate and different spacers: identification of a metal bound acyclic water tetramer //CrystEngComm. – 2004. – T. 6. – №. 45. – C. 250-256.

4. Nazarov Y.E., Turaev Kh.Kh., Suyunov J.R., Ibragimov B.T., Alimnazarov B.Kh., Ashurov J.M. 8-Hydroxyquinolinium trichlorido(pyridine-2,6-dicarboxylic acid- κ^3O,N,O')copper(II) dihydrate Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications, 2024, 80(10), c 1049–1053 <https://doi.org/10.1107/S2056989024009186>

5.Mirzaei M. et al. On the importance of non-covalent interactions in the structure of coordination Cu (II) and Co (II) complexes of pyrazine-and pyridine-dicarboxylic acid derivatives: experimental and theoretical views //CrystEngComm. – 2014. – T. 16. – No. 27. – pp. 6149-6158.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV INSTITUTINING VUJUDGA KELISHI, SHAKLLANISHI VA TAKOMILLASHUVI

Rasulov Samandar G'ulomjon o'g'li,

TDYU Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy sudlov instituti mustaqillik yillarida huquqiy davlat qurish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Mazkur institutning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan bo'lib, unda konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus sud organini tashkil etish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy qonuniylik, konstitutsiyaviy nazorat, huquqiy asoslar, huquqiy maqom, tashkiliy-huquqiy masalalar, qonuniylikni ta'minlash.

Konstitutsiyaviy sud ilk bor 1995-yilda tashkil etilib, u davlat hokimiyati tizimida mustaqil sud organi sifatida faoliyat yurita boshladi. Dastlabki bosqichda uning faoliyati asosan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda uning vakolatlari va funksiyalari kengaytirildi.

Konstitutsiyaviy sudlov institutining shakllanish jarayonini uch bosqichga ajratish mumkin:

birinchi bosqich (1992–2000-yillar) – institutning tashkil etilishi va dastlabki huquqiy asoslarning yaratilishi;

ikkinchi bosqich (2000–2017-yillar) – sud faoliyatining barqarorlashuvi va amaliyotning shakllanishi;

uchinchi bosqich (2017-yildan hozirgi davrgacha) – sud faoliyatini modernizatsiya qilish, vakolatlarini kengaytirish va xalqaro standartlarga moslashtirish.

Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari natijasida konstitutsiyaviy sud faoliyati yanada takomillashtirildi. Jumladan, sudning mustaqilligini kuchaytirish, uning ochiqligini ta'minlash, qarorlarining ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator choralar ko'rildi.

Shuningdek, "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilinib, unda sud faoliyatining zamonaviy mexanizmlari, protsessual tartib-taomillari hamda vakolatlari



yanada aniqlashtirildi. Bu esa konstitutsiyaviy sudlov institutining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Konstitutsionalizm rivoji uchun albatta konstitutsiyaviy qonunchilik takomillashi, konstitutsiya tom ma'noda himoya qilinishi lozim. Adabiyotlarda Konstitutsiyaning himoyasi va muhofazasi sifatida konstitutsiyaga og'ishmay amal qilish, shuningdek, konstitutsiyaviy normalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan huquqiy xarakterdagi institutlar va chora-tadbirlar tizimini joriy etish, uni barqarorligini ta'minlash uchun davlat va jamiyatda zaruriy choralarini yaratish, konstitutsiyaviy nazorat funksiyasi bilan birgalikda bosqichma-bosqich mavjud qonunchilikni takomillashtirishni, amaldagi konstitutsiyaga tuzatishlar kiritish hamda yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini belgilanishini nazarda tutadi.

Konstitutsiyani muhofaza etish – konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini barpo etish, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish orqali Konstitutsiyaning ustunligini hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'ulligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

Konstitutsiyani himoya qilishning bir usuli bu konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirishdir. Konstitutsiyaviy sudlovni amalga oshirish orqali konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini barpo etish, konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash hamda uni maxsus muhofaza qilish ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy odil sudlov jamiyatda konstitutsionizmni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash uchun sud hokimiyati va sud faoliyatining alohida ahamiyatini anglatadi. Ushbu o'rinda Konstitutsiyaviy odil sudlov tushunchasiga oydinlik kiritish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlarda konstitutsiyaviy sudlov tizimini talqin etish jarayonida turli xil kategoriyalar qo'llaniladi. "Konstitutsiyaviy yustitsiya", "konstitutsiyaviy sudlov", "konstitutsiyaviy odil sudlov", "konstitutsiyaviy nazorat", "konstitutsiyaviy kontrol" "konstitutsiyaviy monitoring" shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, adabiyotlarda konstitutsiyaviy kontrolning konstitutsiyaviy nazoratdan farqi konstitutsiyaviy kontrolda noqonuniy (Konstitutsiyaga zid) hujjatning bekor qilish vakolati mavjudligidadir deb qayd etiladi. "Kontrol" tekshiruvchi subyektning ixtiyori asosida vaqti-vaqti bilan yoki muayyan xabar berilgan taqdirda amalga oshiriladi; "nazorat" esa tekshiriluvchi organ faoliyati ustidan olib boriladigan doimiy kuzatuvdir.¹

¹ Odilqoriyeva F.X. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy maqomi. Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor; O.T.Xusanov. – T. TDYuU, 2012



O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, konstitutsiyaviy kontrol va konstitutsiyaviy nazorat tushunchalari bir xil ma'noni aks ettiradi. Mazkur terminlarni amaliyotda qo'llash yuzasidan F.X.Odilqoriyeva quyidagilarni qayd etadi: "Ko'pchilik olimlar konstitutsiyaviy nazorat" terminini keng qo'llash tarafdori bo'lsalarda, "konstitutsiyaviy sudlov", "konstitutsiyaviy odil sudlov" iboralariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, "konstitutsiyaviy sudlov" ma'no-mazmuni jihatidan "konstitutsiyaviy nazorat" terminidan torroq bo'lib, birinchisi ikkinchisining shakli sifatida maydonga chiqadi¹. Yuridik adabiyotlarning tahlili "konstitutsiyaviy sudlov" tushunchasiga turli ta'riflar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, konstitutsiyaviy sudlov sohasida mutaxassis, italiyalik olim M.Kappeletting fikricha, "konstitutsiyaviy sudlov – "qadriyatlar" bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, konstitutsiyaviy xartiya me'yorlarida mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarida o'z ifodasini topadigan poydevor va eng yuqori qadriyatlarni amalga oshirishni maqsad qiluvchi vositadir.²

J.B.Grossmanga ko'ra, konstitutsiyaviy sudlov bu muvofiqlashtiruvchi yoki bo'ysunuvchi hokimiyat tarmoqlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning konstitutsiyaviy qonuniyligini aniqlash bo'yicha sudlarning institutsional vakolatidir.³ S.A.Avakyan konstitutsiyaviy sudlovni konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish jarayoni sifatida ko'rsatgan.⁴

Biz yuqoridagi tushunchalarni inobatga olgan holda hamda ularni to'ldirgan holda konstitutsiyaviy odil sudlovga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Har bir sohaning o'z predmeti, o'rganish obyekti hamda u tartibga soladigan munosabatlarda ishtirok yetadigan subyektlari bo'lgani kabi konstitutsiyaviy odil sudlovning ham o'z predmeti, obyekti va subyektlari mavjud. Konstitutsiya ustunligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi konstitutsiyaviy odil sudlovning predmeti hisoblanadi. Konstitutsiya boshqa normativ hujjatlardan yuridik jihatdan ustun turadi, birorta normativ-huquqiy hujjat konstitutsiyaga zid kelishi mumkin emas. Bu qoida bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasida ham o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.⁵ Aynan ushbu moddada belgilangan qoidani amaliy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar tizimini konstitutsiyaviy odil sudlovning predmeti deb aytish mumkin. Konstitutsiyaviy nazoratning samaradorligini ta'minlashda konstitutsiyaviy nazorat

² Mauro Cappelletti, In Memoria di Piero Calamandrei [In Memory of Piero Calamandrei] 77 (1957). // The referral mechanism and the role of ordinary judГЭС: Cappelletti and beyond S.Benvenuti International Journal of Constitutional Law, Volume 14, Issue 2, April 2016, PaГЭС 474–479, <https://doi.org/10.1093/icon/mow027>

³ J.B.Grossman. Judicial Review in Law. Johns Hopkins University, Baltimore, Maryland, USA. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences 2001, PaГЭС 8020-8024

⁴ **Авакьян С.А.** Конституционный Суд Российской Федерации: неоднозначные законодательные новеллы // Конституционное и муниципальное право. 2011

⁵ <https://lex.uz/docs/-20596>



obyektlarini va ularni ko'rib chiqish chegaralarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda me'yorlarning sud nazorati har tomonlama qamrab olinishini ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda konstitutsiyaviy sudlov obyektini sifatida qonunlar, ijro hokimiyati organlarining hujjatlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlar, davlatning ichki sharnomalari, xalqaro shartnomalar, individual huquqni qo'llash hujjatlari, harbiy va favqulodda holat joriy etishga sabab bo'ladigan holatlarning mavjudligi, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi, mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy javobgarlik bo'yicha harakatlari, saylov va referendumlarni o'tkazish yakunlarini tasdiqlash tartibi, davlat boshlig'i majburiyatlarini vaqtinchalik joriy etishga sabab bo'ladigan holatlarning mavjudligi, konstitutsiyani sharhlash, davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi nizolar, konstitutsiyaviy shikoyatlar keltirib o'tiladi.

Yuqorida qayd etilgan mazkur obyektlar har bir davlat milliy qonunchilik tizimining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib aks ettiriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ayrim vakolatlar davlat hokimiyati tizimida parlament va ayrim alohida tashkil etilgan organlarning funksional vazifasi bo'lishi mumkin. Masalan milliy qonunchiligimizga muvofiq, huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlar, individual huquqni qo'llash hujjatlari, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi, saylov va referendumlarni o'tkazish yakunlarini tasdiqlash tartibi kabi masalalar konstitutsiyaviy sudlov obyektini hisoblanmaydi.

Masalan, Germaniya Konstitutsiyaviy sudi tomonidan saylovlarni o'tkazishning konstitutsiyaviyligi, vakolatlarga oid nizolarni hal qilish, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi, konstitutsiyaviy shikoyat masalalarini ko'rib chiqilishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda referendum orqali qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlar bilan bog'liq munozarali mavzular mavjud. Referendum orqali qabul qilingan qonunlar Konstitutsiyaviy nazorat obyektini bo'la olmaydi, chunki mazkur qonunlar bevosita xalq suverenitetini aks ettiradi. Agar Konstitutsiyani referendum orqali qabul qilish va o'zgartirishda ko'pchilik (masalan mutlaq) ovoz zarur bo'lsa, bunday talablar mavjud bo'lmagan referendum orqali qabul qilingan qonunlar tekshirilishi shart.

Fransiya, Chexiya va boshqa bir qator mamlakatlarning tajribasi referendum orqali qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga nisbatan Konstitutsiyaviy sudlovni joriy etmaslikni nazarda tutadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Konstitutsiyaviy sud har qanday demokratik davlatning huquqiy tizimida alohida o'rin tutadi. Uning asosiy vazifasi Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekanligini ta'minlash hamda barcha normativ-huquqiy hujjatlarning unga



mos kelishini nazorat qilishdir. Konstitutsiyaviy sud — davlatning barqarorligi va adolatli huquqiy tizimining kafolati hisoblanadi. Uning samarali faoliyati jamiyatda qonunlarga hurmatni oshiradi va demokratik qadriyatlarni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonuni Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy sudlov obyektining nazariy-huquqiy masalalari // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2018. – №3 – B. 50–54. (12.00.00; №20)
4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. "Adolat", 2021. 440-b.
5. Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy sudlov subyekti huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari // "Biznes va innovatsiya: huquqiy masalalar va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T.TDYU, 2018. – B.384-386.
6. Odilqoriyeva F.X. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy maqomi. Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor; O.T.Xusanov. – T. TDYuU, 2012



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Avazova Elsevar Erkinovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Moliya va turizm kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Xizmatlar sektori iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanar ekan, raqobatbardoshlik masalasi "ko'proq xizmat ko'rsatish"dan "samaradorlik, sifat, innovatsiya va bozorga chiqish" darajasiga ko'tariladi. O'zbekiston milliy statistik relizlarida 2025-yil yanvar–sentabrda xizmatlar sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 612 179,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,7%ga oshgani; shu jumladan axborot va kommunikatsiya xizmatlari 21,1%ga o'sgani qayd etilgan. Shu davrda xizmatlar ulushi YAIM (YAQQ) tarkibida 48,1%dan 49,4%ga oshgani ham ko'rsatiladi. Jahon banki bahosiga ko'ra, O'zbekistonda real YAIM 2025-yilda 7,7%ga o'sib (2024-yilda 6,7%), o'sishga xizmatlar, qishloq xo'jaligi va sanoatdagi kengayish ham hissa qo'shgan. Mazkur maqola xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish orqali o'sishni tezlashtiruvchi mexanizmlarni (bozor raqobati, raqamlashtirish, inson kapitali, xizmatlar savdosining "tradability"si, standartlar, logistika, investitsiya va formalizatsiya) dalillarga tayangan holda tizimlashtiradi va amaliy indikatorlar panelini taklif qiladi.

Kalit so'zlar: xizmatlar sektori, raqobatbardoshlik, mahsuldorlik, xizmatlar savdosi, raqamlashtirish, innovatsiya, bozorga kirish to'siqlari, sifat standartlari, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston.

Kirish. Xizmatlar sektorining iqtisodiy o'sishdagi roli uchta sabab bilan izohlanadi: birinchisi, xizmatlar deyarli barcha tarmoqlarning "orqa ofisi" (logistika, moliya, IT, professional xizmatlar) bo'lib, butun iqtisodiyotga spillover beradi; ikkinchisi, xizmatlar bandlikni tez yutadi; uchinchisi, raqamlashtirish va platformalar xizmatlar mahsuldorligini oshirish imkonini kengaytiradi. OECD xizmatlarga tayangan iqtisodiyotlarda ham mahsuldorlik o'sishi mumkinligini, buning uchun innovatsiyani rag'batlantirish, bozorga kirish to'siqlarini pasaytirish, switching costlarni kamaytirish va xizmatlar savdosining "tradability"sini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston misolida ham xizmatlar sektori o'sishning muhim manbai sifatida statistik relizlarda ko'rinadi. 2025-yil yanvar–sentabrda xizmatlar sektorida yaratilgan YAQQ 612 179,6 mlrd so'm bo'lib, 8,7%ga oshgan; ichida savdo 12,8%, transport va saqlash 11,5%, axborot va kommunikatsiya 21,1% o'sgani ko'rsatiladi. Bu raqamlar shuni aytadi: raqobatbardoshlik



mexanizmlarini “xizmatlar” degan bitta katta blokka emas, aynan eng tez o‘sayotgan va eng katta multiplikator beradigan segmentlarga nishonlab qo‘llash kerak.

Muammo shundaki, xizmatlar o‘shishi har doim ham iqtisodiy o‘shish sifatini avtomatik yaxshilamaydi. Agar xizmatlar tarkibi asosan past mahsuldor savdo vositachiligi va informallikka tayansa, YAIM o‘sadi, lekin mahsuldorlik va real daromadlar sekinroq oshishi mumkin. Shuning uchun bu maqola “raqobatbardoshlikni oshirish”ni aniq operatsion ma’noda ishlatadi: (1) mahsuldorlik (bir ishchi/bir soatga qiymat), (2) sifat va ishonch (standart, sertifikat, shikoyatlarni boshqarish), (3) innovatsiya va raqamli transformatsiya, (4) bozorga chiqish va savdo (ichki hamda tashqi). OECDning 2026-yil “Foundations for Growth and Competitiveness” hujjati ham o‘shish uchun raqobatni kuchaytirish, bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish, ma‘muriy yukni pasaytirish va savdo/FDIning ochiqlik bilan qo‘llab-quvvatlash allocative efficiency’ni oshirishini qayd etadi.

Metodologiya. Tadqiqot dizayni yangi eksperiment emas; u dalillarga tayangan konseptual-analitik sintezdir. Empirik tayanch sifatida O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yanvar–sentabr YAIM relizidagi xizmatlar sektori hajmi va o‘shish sur‘atlari, hamda xizmatlar ulushidagi o‘zgarishlar olindi. Qo‘shimcha makro fon uchun Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha 2024–2026 iqtisodiy ko‘rsatkichlar va prognozlar haqidagi baholari ishlatildi. Mexanizmlar va siyosiy “leverlar”ni nazariy asoslashda OECDning xizmatlar mahsuldorligi va raqobatni kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalari, shuningdek OECD 2026 strukturaviy islohotlar bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlari (entry barriers, administrative burden, competition) qabul qilindi.

Analitik ramka “segment → to‘siq → mexanizm → indikator → kutiladigan natija” zanjiri asosida qurildi. Masalan: “Axborot va kommunikatsiya (segment) → bozorga kirish va kompetensiya to‘siqlari (to‘siq) → kadrlar, raqamli infratuzilma, raqobat va standartlar (mexanizm) → xizmatlar hajmi, o‘shish, eksport, foydalanuvchi qoniqishi (indikator) → yuqori mahsuldor o‘shish (natija)”. Maqola regressiya kabi qat’iy sabab-oqibatni da’vo qilmaydi; u rasmiy dinamik ko‘rsatkichlar va xalqaro tadqiqotlardan kelib chiqib, sababiy mexanizmlarni mantiqan asoslaydi.

Natijalar. 1) Raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmi sifatida “raqobat va bozorga kirish”. Xizmatlar sektorida raqobat odatda ikki joyda “qotib qoladi”: bozorga kirish (licensing, ruxsat, byurokratiya) va bozorni tark etish (bankrotlik, sud, kontrakt ijrosi). OECD 2026 o‘shish va raqobat bo‘yicha sharhida ma‘muriy yuklarni kamaytirish, bozorga kirish to‘siqlarini yengillashtirish va insolvensiya rejimlarini soddalashtirish firmalarning kirish-chiqishini faollashtirib, allocative efficiency’ni oshirishini aytadi.

Xizmatlar sektori statistikasi shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar ichida bir nechta segmentlar iqtisodiyotning boshqa qismlariga kuchli “ko‘paytiruvchi ta’sir” beradi: transport va saqlash



11,5% o'sgan, axborot va kommunikatsiya 21,1% o'sgan. Bu segmentlar aynan raqobat va bozorga kirish islohotlaridan eng ko'p foyda ko'radigan turlar: kirish osonlashsa, yangi IT-servislar, logistika operatorlari va raqamli platformalar paydo bo'ladi; bu esa narxni pasaytirib, sifatni oshiradi va ishlab chiqaruvchi tarmoqlar xarajatini kamaytiradi.

2. "Raqamli transformatsiya va texnologiya diffuziyasi". Xizmatlarda mahsuldorlikning katta qismi raqamlashtirish orqali keladi: mijoz bilan aloqa, to'lov, buyurtma, logistika tracking, CRM, elektron shartnoma, data-analitika. OECD xizmatlar mahsuldorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni samarali joriy etish, axborot asimmetriyasini kamaytirish va switching costlarni pasaytirish zarurligini aniq ko'rsatadi.

O'zbekiston statistik relizida axborot va kommunikatsiya xizmatlarining 2025-yil yanvar–sentabrda 21,1% o'sgani raqamli segmentning tez kengayayotganini ko'rsatadi. Mexanizm oddiy: raqamli xizmatlar kengaysa, boshqa xizmat segmentlari ham raqamli kanallar orqali samarador bo'ladi (masalan, savdo va logistika).

3. "Inson kapitali va xizmatlarda ko'nikma bo'shlig'i". Raqobatbardoshlik faqat texnologiya emas: xizmatlar sektorida ko'p qiymat "bilimga tayanadigan xizmatlar" (professional servis, IT, konsultatsiya, moliya) orqali yaratiladi. OECD 2026 hujjati raqobatni kuchaytirish bilan birga "skills va infratuzilma" kabi enabling faktorlarni ham zarur deb belgilaydi. Shuning uchun metodik yondashuv sifatida xizmat segmentlari bo'yicha kompetensiya xaritasi (skill map) tuzish mexanizmi taklif etiladi: qaysi segment tez o'sayotgan bo'lsa (masalan, ICT), o'sha segment bo'yicha (a) o'quv dasturi, (b) sertifikatlash, (c) amaliyot/dual ta'lim, (d) ish beruvchi bilan hamkorlik indikatorlari bir paketda yurishi kerak.

4. "Sifat standartlari, iste'molchi ishonchi va xizmat sifati infratuzilmasi". Xizmatlarda raqobat ko'pincha "narx"dan ko'ra "ishonch" bilan yutiladi: kafolat, shaffof shartlar, shikoyatlarni hal qilish, xizmat sifatini o'lchash. Bu mexanizm ayniqsa turizm, ovqatlanish va joylashtirish, sog'liq xizmatlari, transport-servislar, ta'lim servislarida kuchli. Statistik relizda joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari 8,4% o'sgani qayd etilgan; bu segmentda sifat standartlari va "service recovery" (xato bo'lsa tez tuzatish) mexanizmlari raqobatbardoshlikni keskin oshirishi mumkin.

5. "Xizmatlar savdosi (tradability) va eksport". Xizmatlar sektori o'sishni kuchaytirishi uchun ichki bozor yetarli bo'lganda ham, eksport orqali ko'lam (scale) topishi kerak: IT-outsourcing, transport-logistika, turizm, moliyaviy servislar, ta'lim xizmatlari. Jahon banki 2025-yilda eksport 24%ga o'sgani va bunda tovarlar bilan birga xizmatlar ham rol o'ynaganini qayd etadi. Bu shuni bildiradi: xizmatlar raqobatbardoshligi oshsa, u tovar eksportining o'zini ham qo'llaydi (logistika arzonlashadi, bojxona/huquqiy servis tezlashadi, sertifikatlash yaxshilanadi), va xizmat eksporti alohida o'sish kanaliga aylanadi.



6. “Formalizatsiya va biznes dinamikasi”. Xizmatlar sektori ko‘p hollarda mayda tadbirkorlikka tayanadi. Bu bandlik uchun foydali, lekin mahsuldorlik va soliqqa tortish bazasi nuqtayi nazaridan risklar bor. OECD 2026 allocative efficiency bo‘yicha tahlilida firmalarning kirish-chiqishini yengillashtirish va ma‘muriy yukni kamaytirish biznes dinamikasini oshirishi aytiladi. Formalizatsiya mexanizmi “jazolash” emas, “foyda berish” bo‘lishi kerak: rasmiylashgan subyekt kredit, sug‘urta, davlat xaridi, eksport servislariga kira oladi. Shunda raqobatbardoshlik ham, o‘shish ham kuchayadi.

Muhokama. Yuqoridagi mexanizmlar chiroyli ko‘rinadi, lekin ularni stress-test qilmasak, qog‘ozda qoladi.

Birinchi asosiy faraz: “xizmatlar o‘shishi avtomatik ravishda yuqori mahsuldor o‘shish beradi”. Bu zaif faraz. Statistika xizmatlar o‘shishi bor (2025-yil yanvar–sentabrda +8,7%), lekin xizmatlar ichidagi tarkib hal qiluvchi: agar o‘shish asosan past mahsuldor vositachilikdan kelsa, o‘shish sifati past bo‘lishi mumkin. Shuning uchun indikator paneli faqat “xizmatlar hajmi” emas, segmentlar bo‘yicha (transport, ICT, professional xizmatlar) o‘shish, bir ishchiga to‘g‘ri keladigan qiymat (imkon bo‘lsa), hamda xizmat eksporti ulushi bilan to‘ldirilishi kerak.

Ikkinchi faraz: “raqobatni kuchaytirish har doim ijobiy”. Qisqa muddatda raqobat ayrim kichik firmalarni siqib chiqarishi mumkin; bu bandlikka vaqtinchalik zarba bo‘lishi ehtimoli bor. OECD ham kirish-chiqish dinamikasi oshishi firmalar almashinuvi (churn)ni kuchaytirishini tan oladi; shu sababli islohotlar bilan birga qayta tayyorlash (reskilling) va mehnat bozoriga moslashuv siyosatlari yurishi kerak.

Uchinchi faraz: “raqamlashtirish hammani bir xil tezlikda ko‘taradi”. Raqamli transformatsiya raqamli tafovutni (skills gap, connectivity gap) ham kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun raqamlashtirish mexanizmi UDL emas, lekin shu ruhdagi “inklyuziv dizayn” talab qiladi: xizmat ko‘rsatishda offline kanallar, call-markaz, mobil soddalashtirilgan xizmat, hamda raqamli savodxonlik modullari bo‘lmasa, raqamli platforma raqobatbardoshlikni faqat bir qatlamga beradi.

To‘rtinchi faraz: “makro o‘shishning hammasi xizmatlar raqobatbardoshligidan”. Jahon banki 2025-yildagi 7,7% o‘shishni xizmatlar bilan birga eksport tiklanishi, iste‘mol va investitsiya o‘shishi bilan izohlaydi. Demak, xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish — o‘shishning yagona sababi emas, lekin u ko‘p kanalli “kuchaytiruvchi” omil: eksportni, investitsiya samaradorligini, bandlikni va mahsuldorlikni birgalikda itaradi.

Shu stress-testdan keyin amaliy xulosa quyidagicha: xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni oshirish uchun “bir dona islohot” yetmaydi; mexanizmlar paketi kerak. Paketning minimal tarkibi: (1) kirish to‘siqlarini va ma‘muriy yukni qisqartirish; (2) raqamli transformatsiya va ma‘lumotlar infratuzilmasi; (3) ko‘nikma va sertifikatlash ekotizimi; (4) xizmat sifati va iste‘molchi ishonchi; (5) xizmatlar savdosi va eksport; (6) formalizatsiya va



biznes dinamikasi. OECD va milliy statistika ko'rsatkichlari bu paketni ayniqsa transport-logistika va ICT kabi segmentlarga nishonlash kerakligini ko'rsatadi.

Xulosa. Xizmatlar sektorida raqobatbardoshlikni oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash mexanizmlari, amalda, mahsuldorlik va bozor dinamikasini kuchaytiradigan siyosat va boshqaruv instrumentlaridir. O'zbekiston statistik relizlarida 2025-yil yanvar–sentabrda xizmatlar YAQQ 612 179,6 mlrd so'm bo'lib 8,7% o'sgani, ICT xizmatlari 21,1%ga oshgani, xizmatlar ulushi YAIM tarkibida 48,1%dan 49,4%ga ko'tarilgani ko'rsatiladi; bu raqamlar xizmatlar o'sishi real va sezilarli ekanini, lekin segmentlar bo'yicha farqlanganini anglatadi. Jahon banki ham 2025-yilda o'sish xizmatlar va boshqa sektorlar kengayishi bilan bog'liq bo'lganini qayd etadi.

Shuning uchun amaliy strategiya “xizmatlarni ko'paytirish” emas, “xizmatlarda raqobatni kuchaytirish + raqamlashtirish + ko'nikma + sifat + savdo” paketidir. Bu paketning muvaffaqiyati o'lchovli indikatorlar bilan nazorat qilinishi kerak: xizmatlar ichidagi eng tez o'sayotgan segmentlar (transport, ICT), bozorga kirish va biznes dinamikasi (yangi firmalar/chiqish), xizmatlar eksporti va iste'molchi ishonchi indikatorlari. Faqat shunda xizmatlar raqobatbardoshligi iqtisodiy o'sishga uzluksiz va sifatli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. “Gross domestic product of the Republic of Uzbekistan, January–September 2025” press-reliz (xizmatlar YAQQ va o'sish, xizmatlar ulushi).
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. “Gross domestic product of the Republic of Uzbekistan, January–June 2025” press-reliz (xizmatlar ulushi 50,6%→51,4% va xizmatlar YAQQ).
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. “O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti” (2025-yil yakuni bo'yicha relizda YAQQ tarkibidagi ulushlar dinamikasi).
4. Jahon banki. Uzbekistan: iqtisodiy ko'rsatkichlar va 2025 o'sish (7,7%), 2026 prognoz (6,4%) va eksport/import dinamikasi.
5. OECD. Can productivity still grow in service-based economies? (xizmatlar mahsuldorligini oshirish uchun raqobat, kirish to'siqlari, switching costlar va tradability bo'yicha tavsiyalar).
6. OECD. Foundations for Growth and Competitiveness 2026 (raqobatni kuchaytirish, bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish, ma'muriy yukni pasaytirish bo'yicha yo'nalishlar).

**"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 4, Issue 04, Aprel 2026

**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
4-TOM, 4-SON (30-Aprel)
MUNDARIJA

1	SUKUT – AYOLLAR ICHKI VA TASHQI NUTQINING HARAKAT BIRLIGI SIFATIDA Mirzayeva Surayyo Mahmasharif qizi, Egamberdiyeva Kumush Asadulla qizi	5-11
2	INGLIZ TILINI O'RGANISHDA LINGVISTIK INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH: EKSPERIMENTAL TADQIQOT Allanazarova Sadoqat Azimovna	12-16
3	O'ZBEKISTONDA INVESTITSION SIYOSAT VA UNING HUQUQIY ASOSI Ismoilov Diyorbek Sirojiddin o'g'li	17-20
4	THE USE OF HIGH-ENERGY GAMES TO PROMOTE ACTIVE PARTICIPATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS IN INCLUSIVE CLASSROOMS Abduraximova Feruza Boxadirovna, Yaxyoyeva Sarvinoz Xayotjon qizi	21-25
5	NUTQIY KOMPETENSIYA VA INTERFAOL TA'LIM METODLARI INTEGRATSIYASI Nasimova Muattar Khasanovna	26-29
6	ИС ГАЗИ ТАЪСИРИДА ҚИЗИЛЎНГАЧНИНГ МОРФОФУНКЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАРИ ВА УЛАРНИ КОРРЕКЦИЯЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ Бахронов Б.Б.,	30-31
7	TEKNOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna, Maxmarejabova Gulsevar Ravshan qiz	32-38
8	MADANIYAT MUASSASALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING MEZONLARI Abduhamidov Javlonbek Shodiyor o'g'li	39-44
9	“SHE'RIY MATNDA GUL OBRAZINING LINGVOPOETIK TALQINI VA KONNOTATIV MA'NOLAR TIZIMI” Xolmurodova Mohinur Quvondiq qizi	45-49

10	МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ДЛЯ ЭПИТЕЛИАЛЬНО-СТРОМАЛЬНОЙ ПОРАЖЕНИЙ ШЕЙКИ МАТКИ Халилова Мехринисо Туймуродовна	50-54
11	TRANSLATION STRATEGIES IN DYSTOPIAN LITERATURE: A CASE STUDY OF FAHRENHEIT 451 Qo'ziyeva Durdona Odilbek qizi, Muhtorova Gavharbibi Nurali qizi	55-61
12	TEACHING LISTENING COMPREHENSION O'ktamova Dildora Anvar qizi, Abduraxmanova Zilola Yoqubjon qizi	62-68
13	THE ROLE OF VARK TECHNOLOGY IN DEVELOPING CREATIVE COMMUNICATIVE Jumaniyozova Mukhayyo Saparboyevna	69-72
14	GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT MUAMMOLARI Mahmudova E'zoza Jasurovna,, Mamatqulova Nilufar Xusanovna	73-74
15	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'RGANISH STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI Mirzohidova Yodgora, Zahro Islomova	75-78
16	LINGVISTIK INTELLEKT ASOSIDA INGLIZ TILINI O'RGATISH METODLARINING SAMARADORLIGI (EMPIRIK YONDASHUV Allanazarova Sadoqat Azimovna	79-84
17	STRATEGIES FOR TEACHING ENGLISH IN INCLUSIVE CLASSROOMS Yuldoshova Durdona Abdijalil qizi, Boboqulova Ruxshona, Aslonov Firdavs Baxtiyor o'g'li	85-88
18	SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARI VA HUQUQIY JAVOBGARLIK: ZARAR YETKAZILGAN HOLATLARDA JAVOBGAR SUBYEKTNI BELGILASH MUAMMOSI. QIYOSIY HUQUQ VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI Omonov Firdavs Baxtiyor o'g'li	89-94
19	DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS TIZIMINING SAMARADORLIGI: XALQARO	95-100

**"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 4, Issue 04, April 2026

	TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITINI BIRLASHTIRGAN QIYOSIY TAHLIL Omonov Firdavs Baxtiyor o'g'li	
20	ZEBO MIRZONING HAYOT YO'LI VA SHE'RLARINING ASOSIY G'OYAVIY MAVZULARI Normirzayeva Zuxra Rustam qizi	101-105
21	ZEBO MIRZONING HAYOT YO'LI VA SHE'RLARINING ASOSIY G'OYAVIY MAVZULARI Normirzayeva Zuxra Rustam qizi	106-109
22	MAKTABGACHA TA'LIMNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI Miryusupova Nargiza Shavkatovna	110-112
23	ORGANIZMLARDA ELEKTR TOKI: BIOFIZIK ASOSLAR, ION MEKANIZMLAR VA KLINIK INTEGRATSIYA Buzrukov To'liqin Omonovich, Bahodirova Iroda	113-115
24	ZAMONAVIY KIMYO TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISHI VA SANOATGA TA'SIRI. Bo'riyeva Muhabbat Mamayusuf qizi	116-118
25	ZAMONAVIY QUROLLI MOJARO SHAROITIDA IJTIMOIIY ONG DEFORMATSIYASI Bo'riyeva Muhabbat Mamayusuf qizi, Bo'riyev Fazliddin Fahriddinovich	119-123
26	TASHKILOTNING TASHQI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISH Nazirov Xusanjon	124-126
27	НАВОИЙ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИГА 2022–2024 ЙИЛЛАРДА КЎРСАТИЛГАН АЛЛЕРГОЛОГИЯ ХИЗМАТИНИНГ ТАҲЛИЛИЙ БАҲОСИ Фарҳад Очилов	127-130
28	TIBBIYOTDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNINI VA KELAJAKDAGI FOYDALARI Mahmudova E'zoza, O'ralova Aziza, Ashurova Sarvinoz	131-135
29	M.PORTERNING RAQOBATNING BESH KUCHI NAZARIYASI Xoliqulov Anvar Nematovich	136-138
30	KORXONA (FIRMADA) SWOT ANALIZINI QO'LLASH SXEMASI VA "MCKINSEY 7S" TAHLIL MODELI Xoliqulov Anvar Nematovich	139-142
31	FIRMANING STRATEGIK HOLATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI Xoliqulov Anvar Nematovich	143-146

32	ZAMONAVIY O'ZBEK NASRIDA YOLG'IZLIK MATIVI INSON RUHIYATI VA ICHKI KECHINMALAR TALQINI (NAZAR ESHONQUL VA ULUG'BEK HAMDAM ASARLARI ASOSIDA) Qahramonova Shahnoza Fazliddin qizi	147-151
33	RAQOBATBARDOSHLIK DARAJALARI VA TOVAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH BOSQICHLARI Xoliqulov Anvar Nematovich	152-154
34	RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING M. PORTER MODEL (MILLIY ROMB) Xoliqulov Anvar Nematovich	155-158
35	RAQOBATNING IQTISODIY MAZMUNI VA SHAKLLANISHINING ASOSIY TAMOYILLARI VA RAQOBAT NAZARIYALARI A.N.Xoliqulov	159-162
36	RAQOBAT STRATEGIYASI, BOSQICHLARI, RAQOBATNING ASOSIY VAZIFALARI, TURLARI VA USULLARI A.N.Xoliqulov	163-165
37	SULTON SAODAT MAJMUASINING TARIXIY-ME'MORIY AHAMIYATI VA ZIYORAT TURIZMIDAGI O'RNI Abdumóminova Dilafuz	166-171
38	"RAQAMLI JAMIYATDA ERKINLIK VA NAZORAT: BIO-HOKIMIYATNING YANGI SHAKLLARI" . Muhiddinova Jasmina, Sayqanova Hadicha, Mamatqulova Nilufar	172-176
39	ОЦЕНКА ФАКТОРОВ РИСКА РАЗВИТИЯ ЦЕРВИКАЛЬНОЙ ИНТРАЭПИТЕЛИАЛЬНОЙ НЕОПЛАЗИИ РАЗЛИЧНОЙ СТЕПЕНИ ТЯЖЕСТИ Хамидова Ш.Ш.	177-181
40	YANGI O'ZBEKISTONDA III RENESSANS POYDEVORINI YARATISHNING ZARURIYATI VA IJTIMOIIY-MA'NAVIY AHAMIYATI Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li	182-185
41	ЦИФРОВОЙ РЕГУЛЯТОРНЫЙ ДИАЛОГ ГОСУДАРСТВА И БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ: КОНЦЕПЦИЯ И МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ Бекмирзаев Фаррух	186-190
42	CO(II) VA NI(II) IONLARINING 2,6-PIRIDINDIKARBON KISLOTASI BILAN [ME(L)2]•3H₂O TARKIBLI KOMPLEKS	191-196

**"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 4, Issue 04, April 2026

	BIRIKMALARINI OLIH HAMDA ULARNING KRISTALL TUZILISHI S. Sh.Isroilova, X.X. Turayev, 3Y.E. Nazarov	
43	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV INSTITUTINING VUJUDGA KELISHI, SHAKLLANISHI VA TAKOMILLASHUVI Rasulov Samandar G'ulomjon o'g'li	197-201
44	XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI Avazova Elsevar	202-206
	OUTLINE	207-211